

**S. R. Mirzayeva, Sh.R. Samarova,
D. U.Raxmanova**

OILA PSIXOLOGIYASI



**Toshkent
2024**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

S. R. Mirzayeva, Sh.R. Samarova, D. U.Raxmanova

OILA PSIXOLOGIYASI

O'QUV QO'LLANMA

(5110900 - Pedagogika va psixologiya)

Toshkent
«Renesains sari»
2024

UO'K 159.9:316.3
KBK 88.5
M-47

S.R. Mirzayeva, Sh.R. Samarova, D.U. Raxmanova. OILA
PSIXOLOGIYASI. O'quv qo'llanma. – T.: "Renesans sari", 2024. 178 b.

Taqrizchilar:

O.U.Avlayev - *ChDPU, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Sh.S.Shoyimova - *ToshPTI, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Ushbu o'quv qo'llanma 5110900 - Pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, oilaning ijtimoiy tarixiy kelib chiqishi, oilada yuzaga kelishi mumkin bo'lgan o'zgarishlar haqida bilishi; oilaning mustahkamligini ta'minlovchi bilim va malakalarga ega bo'lishi; oilaviy hayotni o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy asoslangan tarzda talqin eta olishi; muammoli vaziyatlardan psixologik jihatdan oqilona (oila va uning mustahkamligiga ta'sir etmagan holda) chiqar olishi; oilani o'rganuvchi psixologik tashxis metodikalari bilan ishlash va ular yordamida olinadigan natijalarni to'g'ri talqin eta olishi kerak.

UO'K 159.9:316.3
KBK 88.5

O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-sentyabrdagi 438-sonli buyrug'i asosida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-9398-5-3

UZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

KIRISH

Hozirgi zamon taraqqiyoti har bir shaxsdan voqelikni to'g'ri tushunishni, xulosa chiqarishni, axloqiy poklikni va hissiy-asabiy chidamlilikni, jamiyatimiz hayotining barcha jabhalarida mustahkam va faol bilishni talab etmoqda. Ma'lumki, shaxsning bunday ijtimoiy, emotsional, xulqiy va boshqa sifatlariga oila asos soladi, shakllantiradi va kamol toptiradi.

Oila - ijtimoiy institutlarning eng qadimgisidir. Insoniyat boshidan kechirgan tarixiy davrlarning qanchalik turfa va murakkab bo'lishiga qaramay, ayniqsa, XIX va XX asrlarda ro'y bergan buyuk o'zgarishlar va islohotlarga dosh bera olgan ushbu maskan o'z tizimi, tarkibi va jamiyat oldida turgan majburiyatlarini bajarishi nuqtayi nazaridan sog'-omon saqlanib qolgan tuzilmadir. Oilani insonlar tashkil etgani va undagi hayot-mamotni ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tashkil qilishini hisobga oladigan bo'lsak, uni sof psixologik jarayonlar maskani ham deb atash mumkin.

Oila — jamiyatning ajralmas bo'lagi. Biror bir xalq, millat yoki jamiyat yo'qki, u o'zining rivojlanish tarixida va taraqqiyot istiqbolini belgilashda oila va uning atrofidagi muammolarni, qadriyatlarini inobatga olmagan bo'lsa. Har qanday istiqbol oilaning manfaatlaridan ayro tasavvur qilinmaydi. Zero, har bir inson uchun oila — bu umrning boshlanishi, barcha narsalarning muqaddimasidir. Qolaversa, har bir inson o'z baxti va saodatini eng avvalo oilasi bilan bog'laydi, ya'ni, o'z uyi, oilasida baxtli bo'lgan insongina o'zini to'laqonli baxtiyor his etadi.

Kelajagimizning qanday bo'lishi hozirgi kunda bir tarbiyalayotgan yoshlarga bog'liq. Bunday ulkan vazifani amalga oshiruvchi, moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratuvchi asos oiladir. Oila jamiyatning boshlang'ich ijtimoiy bo'g'in sifatida murakkab tarkibga ega bo'lib, u o'z faoliyatida oila a'zolarining ehtiyoji va qobiliyati, turli faoliyatning maqsad va vazifalarinigina emas, balki tarbiyaviy faoliyatni ham aks ettiradi. Uning murakkab va ko'pqirrali faoliyatining hayotiyiligi ikki tomonlamadir.

- birinchidan, jamiyatning kichik bir qismi ijtimoiy o'zgarishlarni o'ta sezgirlik bilan ilg'ab oladigan, o'zida aks ettiradigan belgidir. Shunga asoslanib oilaviy tarbiyani ijtimoiy tarbiyaning asosiy qismlaridan biri deb hisoblash lozim.

- ikkinchidan, oilaning murakkab va ko'pqirrali faoliyati uning vazifalari va tuzilishiga, ijtimoiy turmush tarziga, oila a'zolarining ijtimoiy faoliyatlariga, ularning barcha qiziqishlari, ehtiyojlari va munosabatlariga bog'liqligini nazardan qochirmaslik kerak.

Oila psixologiyasi metodologiyasi va metodikasi uchun eng muhimi uning aloqador tomonlarini, ya'ni psixologik vazifalarni bir maromga solish, oilaning o'ziga xos xususiyatlarini va mavjud imkoniyatlarini aniqlash katta ahamiyat kasb etadi.

Oilaning aniq bir maqomi, asosi bo'lishi kerak va u kishilar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishi, yoshlarda axloqiy fazilatlarini, jismoniy kamolotni, aqliy ziyraklikni shakllantirishi zarur.

Oila psixologiyasining o'ziga xosligi shundaki, u oila a'zolariga ota-onalik, qon-qarindoshlik xislatlarini uzatib, shaxsning umumiy va hissiy rivojlanishini ta'minlab, shaxsning mavjud imkoniyatlarini va axloqiy kamolotini o'stiradi. Shu sababli oila psixologiyasi doimo mavjudligi, ko'rsatmaliligi va serjiloligi bilan ajralib turadi. Unda asosiy vazifani xalq odobga doir tadbirlarni bolaga to'g'ri o'rgatish, ularga maslahat berish, kattalar tajribasi, oilaning yashash tarzi, muhiti, ota-onalarning kasb-hunari, oila a'zolarining ma'naviy-ruhiy munosabatlari kabilarni qamrab oladi.

Talabalarni oila psixologiyasi kursining asosiy mazmunini tashkil etuvchi ilmiytushunchalar, oilaviy o'zaro munosabatlarga oid qonuniyatlar, mamlakatimizda oilani mustahkamlashga yo'naltirilgan davlat siyosatining tub mohiyati bilan tanishtirish, talabalarni oila muammolari borasida teran mustaqil fikrlashga, bilganlarini hayotda va pedagogik faoliyatda qo'llay bilishga o'rgatishdan iborat.

OILA PSIXOLOGIYASI FAN SIFATIDA

1. Oila psixologiyasining psixologik bilimlar tizimida tutgan o'rni.
2. Oila psixologiyasi faning predmeti, maqsadi va vazifalari.
3. Oila psixologiyasining tadqiqot metodlari.
4. Shaxs rivojlanishida oilaning roli.

Oila psixologiyasining psixologik bilimlar tizimida tutgan o'rni. Oila psixologiyasi ijtimoiy psixologiyaning bir tarmog'i sifatida XX asrning oxirlariga kelib shakllangan. XXI asrga kelib esa uning inson hayotidagi ahamiyati va jamiyat ma'naviyatini barqarorlashtirishdagi roli yanada sezila boshladi. Zero, dunyoning qator mamlakatlari, jumladan, rivojlangan davlatlarda ham oila va nikoh munosabatlaridagi bo'hron, psixoterapevtlar yordamiga muhtojlik kabi holatlar ushbu maskanning muammolarini o'rganish va shu yo'nalishda maqsadli tadqiqotlar, ilmiy-amaliy tadbirlarni amalga oshirish lozimligini uqtirmoqda.

Oilaviy munosabatlar psixologiyasi va ushbu masalaga qarashlar tarixidan shu narsa ayon bo'ldiki, inson, uning kim bilan va qanday yashashi muammosiga qiziqish qanchalik uzoq o'tmishga borib taqalsa, oila psixologiyasining fan tarmog'i sifatida shakllanishi shunchalik navqiron va yosh bo'lib, uning shakllanishi yangi davrga to'g'ri keladi.

Oila psixologiyasi fan sifatida oilaning ijtimoiy institut maqomidagi faoliyatining obyektiv qonuniyatlarini, oila-nikoh hamda qarindosh-urug'chilik munosabatlarining mexanizmlari va turmush tarziga oid konkret vaziyatlarda oila a'zolari ijtimoiy xulqining namoyon bo'lishini o'rganadi. Ijtimoiy psixologiyaning amaliy tarmog'i sifatida u nikohga oid ustanovkalarni, oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarning - mehribonlik, g'amxo'rlik, hamdardlik, hamjihatlik, tobelik, bo'ysunish, yetakchilik kabi o'ziga xos qirralarini, oilaviy rollar taqsimoti va o'zaro

ta'sirning jinsga oid qonuniyatlarini, ota-ona va farzandlar, yaqin qarindosh urug'lar o'rtasidagi hissiy-emotsional bog'liqlikni, oilaviy ro'zg'or yuritish va turmush tarzini tashkil etishga bog'liq bo'lgan psixologik jarayonlarning kechishini tadqiq etadi, o'rganadi. Oilaviy hayot psixologiyasi, shunday qilib, insonlarning qanday qilib o'zaro qovushishlari, birgalikda yaxshi niyat bilan oila - ro'zg'or yuritishlari, bahamjihatlikda hayot kechirishlarini o'rganuvchi fan tarmog'idir. Har bir oila aniq davr, vaqt, zamon va makonda mavjud bo'lganligi sababli, u avlodlararo bog'liqlik, ma'naviy meros, milliy an'analar, urf-odatlar va rasm-rusumlarni saqlovchi noyob insoniy uyushmadir. Shu institut bo'lgani sababli, har bir millat, elat va xalqlarning noyob udumlari asrlar osha saqlanib kelmoqda. Umuman, nikoh deb atalmish qadriyatning mavjudligi va unga avlodlarning e'tiqod qilishi ham oilaning muhim vazifasidir.

Oila inson uchun muqaddas maskan, kishilik jamiyatining ijtimoiy poydevoridir. Oilaviy turmushning asosiy maqsadi - bu farzand ko'rish orqali aholini qayta tiklash, avlodlar bilan ajdodlar vorisligi va davomiyligini hamda yer yuzida insoniyat tarixiy taraqqiyotini ta'minlashdan iboratdir. Darhaqiqat, oila - har bir shaxsda ilk yoshligidan boshlab shakllanadigan insoniy fazilatlar, ezgu-istaklar, qadriyatlar takomil topadigan, ming yillar davomida shakllangan o'zbek xalqining qadriyatlari va ma'naviy merosi ravnag'ini ta'minlovchi tarbiya maskanidir. Ota-onalar munosabatlarda namoyon bo'luvchi o'zaro hurmat, mehr-oqibat, halollik, poklik, mehnatsevarlik, insonparvarlik kabi oliy toifadagi qadriyatlar ularning o'zaro munosabatlarida uyg'unlasha borib, oilada o'zaro munosabatlar maromini vujudga keltiradi. Oiladagi ushbu ijtimoiy jarayon yosh avlodning moddiy olam, ijtimoiy turmush haqidagi tasavvurlari, nuqtayi nazarlari, tushunchalari, dunyoqarashlari va sharqona odob-axloq qoidalari va ularga amaliyotda rioya etishning to'g'ri yo'l-yo'riqlarini ko'rsatadi. Yosh avlodning ma'naviy qiyofasi, ularning xatti-harakati, xulq-atvori dastlab oilaviy munosabat

madaniyatida shakllanadi.

Tarixiy ma'lumotlarning guvohlik berishicha, oilaviy munosabatlar madaniyati sharq xalqlarida juda qadimdan rivojlangan ijtimoiy voqelik ekanligini ko'rsatadi. Qadimgi xalqlardan qolgan asori-atiqalarda, muqaddas diniy manbalarda, o'zbek xalqining og'zaki ijodi durdonalarida, sharqning buyuk mutafakkirlarining asarlarida sharq xalqlari, xususan o'zbek xalqiga xos oilaviy shaxslararo munosabatlarda namoyon bo'ladigan odob-axloq qoidalari, me'yorlari, insoniy fazilatlar ifodasi to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni uchratish mumkin.

Manbalarda oilasiz insoniy hayotni tasavvur qilib bo'lmalik, barkamol farzand tarbiyasi, undagi er-xotin va o'zaro munosabatlar madaniyati, baxtli va farovon turmush kechirish yo'llari, hayotiy misollar yordami bilan hikmatlar va nasihatlar ko'rinishida bayon etilgan. Oilaviy turmush bilan jamiyat taraqqiyotining doimiy mushtarakligi tufayli jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida ham oilaviy muammolar uning ilg'or vakillari diqqat-e'tiborida bo'lgan. Oilaviy hayot jamiyat taraqqiyotida va farzandlarning kamolotida uchun shu qadar muhimki, xuddi shu bois uni biror soniya ham diqqat-e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Sharqda qadim-qadimdan oila muqaddas Vatan sanalgan. Agar oila sog'lom va mustahkam bo'lsa, mahallada tinchlik va hamjihatlikka erishiladi. Binobarin, mahalla, yurt mustahkam bo'lsagina, davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi. Ko'rinib turibdiki, oilaviy hayot masalalari hozirgi davr fani tadqiqot yo'nalishining ustuvor sohalaridan biriga aylanib bormoqda. Respublikamizda "Oila" ilmiy-amaliy markazining tashkil etilishi hamda hukumat tomonidan "Oila kodeksi" qabul qilinishi bugungi kunda oilalarning mustahkam va barqarorligini saqlash uchun qilinayotgan muhim amaliy ishlardan hisoblanadi.

Afsuski, oila-nikoh munosabatlarining hozirgi davrga kelib zaiflashib borayotganligi dunyoning deyarli ko'pchilik

mamlakatlarida: Amerika Qo'shma shtatlari, Angliya, Fransiya, Germaniya, Boltiq bo'yi davlatlari, Rossiya va boshqa qator davlatlarda yaqqol namoyon bo'lmoqda o'zbek oilalari hayotida oila-nikoh munosabatlarining zaiflashuvi va uning buzilishlari yuqorida qayd etilgan davlatlardagiga qaraganda ancha kam bo'lsa-da, afsuski ajralishning asoratlari oila a'zolari va qarindosh-urug'lar o'rtasida nihoyatda ayanchli oqibatlar, noxush holat va hodisalar keltirib chiqarayotganligi kuzatilmoqda. Demak, oilalarning buzilishi va uning oqibatida yuzaga keladigan turli xildagi asoratlar ijtimoiy psixologiya va etnopsixologiya fanlarining tadqiqot predmeti sifatida keng o'rganishni taqozo etadi.

O'zbekiston psixologlari tomonidan o'zbek oilalariga xos muammolarni o'rganish yuzasidan bir qator muvaffaqiyatli ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ana shu ilmiy ishlarda oila-nikoh munosabatlari, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, o'zbek oilalaridagi milliy o'ziga xoslik, undagi nizolar va ularni keltirib chiqaruvchi muhim sabablar, ajralishlar va ularning salbiy asoratlari kabi bir qator masalalar har tomonlama o'rganilib tahlil qilingan. Biroq, yuqoridagi ilmiy izlanishlarda oila barqarorligiga shaxslararo munosabatlar ta'sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari maxsus tadqiqot predmeti sifatida o'rganilmagan. Aslida oilaviy turmushda yuzaga keladigan muammolar, hatto oilaning buzilishi va uning salbiy asoratlari, hamma-hammasi undagi shaxslararo munosabatlar ta'sirining natijasi ekanligini hech qachon unutmasligimiz kerak. Bundan kelib chiqadigan xulosa shundan iboratki, oila barqarorligi, baxtli va farovon turmush kechirish, albatta, shaxslararo munosabatlar ta'sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bilan uzviy bog'liq bo'lganligi tufayli, aynan shu muammo yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishni taqozo etadi. Oila barqarorligiga shaxslararo munosabatlar ta'sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini milliy-madaniy sharoitda o'rganishdan iboratdir.

Insoniyat jamiyati taraqqiy etib borgan sari odamlarning o'zlari ham, ularning bir-birlari bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlari ham, ayniqsa, shaxslararo munosabatlar orasida eng samimiy, eng yaqin bo'lgan oilaviy munosabatlar ham takomillashib, o'ziga xos tarzda murakkablashib boradi. Sababi: hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish munosabatlari, vositalari taraqqiyoti, qishloq xo'jaligi, sanoat ishlab chiqarishi, umuman xalq xo'jaligining barcha jabhalarida yangi texnologiya, texnik jarayonlarning jadal joriy etilishi bevosita shu jarayonlarning yaratuvchisi, ishtirokchisi bo'lgan inson omiliga, inson shaxsiga ham o'ziga xos, yangicha talablar qo'ymoqda. Ishlab chiqarish munosabatlari, jamiyat taraqqiyoti bir tomondan, odamlarning o'zlarida ro'y berayotgan ijtimoiy-psixologik, fiziologik va boshqa o'zgarishlar odamlarning o'zaro muloqot munosabatlari doirasini ma'lum darajada chegaralanib qolishiga, ularda ajdodlarimizda kuzatilgan tabiiylikni ma'lum darajada buzilishiga va oqibatda inson ruhiyatida mumkin qadar hissiy, emotsional zo'riqishlarning yuzaga kelishga asos bo'lmoqda. Bularning ta'siri oilaviy hayot va undagi psixologik iqlimda ham o'z ifodasini topadi.

Yoshlarimizda bu masala bo'yicha aniqroq tasavvur hosil qilish uchun, bundan 90-100 yillar oldingi ularning tengdoshlari va bugungi kunlarimizdagi 15-16 yoshli yigit-qizlar o'rtasidagi tafovutlarni solishtirib o'tamiz.

Maxsus adabiyotlarda yozilishi va o'tkazilgan tadqiqotlar natijalarida kuzatilishicha, so'nggi 100 yil ichida odamlarda kuzatiladigan akseleratsiya jarayoniga ko'ra ularning jinsiy, fiziologik balog'atga yetishi 2-3 yilga ilgarilab ketgan. Bundan 100 yilcha oldin yoshlarning jinsiy balog'atga yetish davri 15-16 yoshga to'g'ri kelgan, hozir esa bu holat o'rtacha 12-13 yoshlarga to'g'ri keladi. Endi shu yoshlarning oilaviy hayotga tayyorlik jihatlarini ko'rib chiqamiz.

Ilgarigi tengdoshlaringiz 15-16 yoshlarida oilaviy hayotga yetuklik talablaridan biri bo'lmish jinsiy yetuklikka, balog'atga

yetar ekanlar, ular aksariyat hollarda shu yoshga kelib o'sha davrlar uchun xos va lozim bo'lgan, unchalik murakkab bo'lmagan dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik sir-asrorlaridan deyarli boxabar bo'lganlar (chunki u vaqtlarda bolalarni odatda, 13-14 yoshidan shogirdlikka berishgan), usha davrdagi ishlab chiqarish munosabatlari va texnologik jarayonlar ulardan maxsus yoki oliy ma'lumot talab qilmagan, 3-4 yil ustoz ko'rgan shogird 16-17 yoshida o'zi mustaqil ish yurita oladigan ustaga, o'z ishini uddalay oladigan mutaxassisga aylangan. Mabodo, u shu vaqtda oila quradigandek bo'lsa, o'z hunari orqali mehnat qilib, o'zini va oila a'zolarini iqtisodiy jihatdan ta'minlay olishi mumkin bo'lgan. Bundan tashqari, u vaqtlardagi 18-20 yoshli yigit maxalla-ko'yda, jamoatchilik orasida ma'lum darajada ijtimoiy yetuk shaxs sifatida qabul qilingan, turli tadbir va marosimlarda uning xaqli ishtirokchi sifatida qatnashishi mumkin bo'lgan, ya'ni uning ijtimoiy jihatdan balog'atga yetganligi jamoatchilik tomonidan qabul qilingan. Bu jarayon shaxsning oldiga oila va jamiyat oldida o'ziga xos mas'uliyat yuklagan, mas'uliyatni his qilish esa uning psixologik yetukligi alomatlaridan biri bo'lib xizmat qilgan.

Endi shu xususiyatlarni bugungi kun yoshlarida ko'rib chiqaylik. Ular 12-13 yoshlarda jinsiy (fiziologik) yetuklikka erishadilar (bu haqida keyinroq to'xtalib o'tamiz), biroq ular biror bir kasb-xunar egasi bo'lib, mustaqil ishlab, o'zini va oilasini iqtisodiy jihatdan ta'minlay oladigan bo'lishi uchun, avvalo maktabni bitirishi, so'ng u yoki bu kasb-hunar kolleji yoki litseyda o'qib, biror-bir kasbni egallashi kerak.

Jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi shaxsning madaniy takomillashuviga, u esa shaxslarni bir-birlariga qo'yadigan talablari oshishiga va shaxslararo munosabatning noziklashuviga olib keladi. Buning yorqin dalili sifatida ajralishlar miqdori oliy ma'lumotlilar ichida umumiy-o'rta ma'lumotlilarga nisbatan yuqoriroq ekanligini e'tirof etish mumkin.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi yuqori saviyada bo'lmagan jamiyatdagi oila a'zolari o'zlarining oilaviy yumushlarining aksariyatini qo'lda bajaradilar. Unga oilaning barcha a'zolari va birinchi navbatda farzandlar mumkin qadar ko'p jalb qilinadi. Oila ishlarini bajarishdagi umumiy faoliyat yoshlarda ma'lum malakalarni, shu jumladan oiladagi tegishli rollarni bajarishni, oilada bir-birlari bilan qanday muloqotda bo'lish malakalarini, oilada har bir shaxsning iyerarxik mavqeiga ko'ra o'z huquq va vazifalarini aniqlab olishga imkon beradi.

Moddiy ta'minot, yuqori madaniy saviya esa shaxsning boshqa shaxsga qo'ygan talabini, shu jumladan oilada yanada kuchaytiradi. Oila a'zolarining o'zaro muloqotda bo'lish vaqti miqdorini qisqartiradi. Bu esa ko'pgina yoshlar uchun ota-ona oilasi shaxsiy oilasiga namuna vazifasini bajara olmasligiga olib keladi.

Shulardan ko'rinib turibdiki, bundan 100 yillar oldingi yoshlar 16-18 yoshida oila qurishsalar, ular shu vaqtga kelib oilaviy xayot uchun, muvaffakiyatli turmush kechirib ketishlari uchun zarur bo'lgan yetuklik darajalarining barchasiga erishganlar, bu esa ularning oilaviy hayotlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarning bartaraf etilishiga asos bo'lib xizmat qilgan.

Bugungi yoshlarimiz esa yuqorida bayon etilganidek, 12-13 yoshlarida jinsiy balog'atga yetadilar va aksariyat xollarda oradan 7-8 yil o'tganidan so'ng, ya'ni qizlar 19-20 yoshda, yigitlar esa 21-22 yoshda oila quradilar. Bu vaqtda esa ular na iqtisodiy jixatdan, na ijtimoiy jixatdan va na psixologik jixatdan oilaviy hayotga tayyor bo'ladilar. Bunday holatlar shubxasiz, ularning oilaviy hayotlarida oldingi tengdoshlari hayotida kuzatilmagan muammolarni keltirib chiqaradi. Bundan tashkari, jamiyat taraqqiyotining bugungi holati hozirgi zamon oilasi oldiga o'ziga xos yangi ijtimoiy vazifalarni ham yuklaydiki, bularning barchasi hozirgi yoshlarimizni oilaviy hayotga maxsus tayyorlash masalasi eng dolzarb masalalardan biri

bo'lishligini taqozo qilmoqda. Shuning uchun ham so'nggi 15-20 yil davomida dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlarida, jumladan, bizning respublikamizda mustakillikka erishganimizning dastlabki yillaridanoq, oila masalalariga, yoshlarni oilaviy xayotga tayyorlash masalalariga, oilalarda komil shaxsni shakllantirish masalalariga aloxida e'tibor berib kelinmoqda. Umuman insoniyat jamiyati tobora taraqqiy etib boraverar ekan, oila masalalarining dolzarbligi xam shunga mos ravishda ortib boraveradi va oilaga bo'lgan e'tibor ham kecha va bugunga qaraganda ertaga yanada yuqoriroq bo'ladi. Chunki oila jamiyatning kichik bir ko'rinishi bo'lib, u kancha inoq, ahil va mustaxkam bo'lsa, jamiyat xam shunchalik qudratli bo'ladi. Bu keltirilgan omillar yoshlarga «Oila psixologiyasi» kursini o'qitishning dolzarbligini ifodalaydi.

«Oila psixologiyasi» kursining yaratilishi va uning o'quv predmetlari qatorida maktab, kollej, litseylarda o'tiladigan darslar jadvaliga kiritilishi ham Respublikamiz hukumati tomonidan yuritilayotgan kuchli ijtimoiy siyosatning mantiqiy va mazmuniy davomidir.

Oila psixologiyasi faning predmeti, maqsadi va vazifalari. Oila psixologiyasi fanining maqsadi – oila psixologiyasiga doir eng muhim bilimlarni berish va ular asosida tegishli malakalar, ko'nikmalarni shakllantirib, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashdir.

Oila psixologiyasi fanining predmeti oilaning ijtimoiy va etnopsixologik xususiyatlarini tashkil etadi.

Oila psixologiyasi fanining vazifalari quyidagilardan iborat:

- oilali shaxsning shakllanishidagi roli haqida yoshlarda tasavvur shakllantirish;
- yoshlarni oilaviy hayotda kuzatiladigan o'zgarishlar haqidagi ilmiy bilimlar bilan tanishtirish;
- yoshlarni oilaviy hayotda bo'ladigan muammolar, qonuniyatlar haqida ilmiy tasavvurlar bilan tarbiyalash, ularni

bu jarayonlarga tayyorlash;

- yoshlarni oilaviy hayotda yuzaga keladigan muammolarga konstruktiv tus berishga, destruktiv yo'nalishdagilardan saqlanishga o'rgatish;
- yoshlarda muammoli vaziyatlardan psixologik jihatdan oqilona chiqish malakalarini o'rgatish;
- yoshlarning o'zlariga turmush o'rtog'ini to'g'ri tanlash malakalarini shakllantirish;
- yoshlarni jinsiy hayotga ilmiy asosda tayyorlash;
- yoshlarda oilaning mustahkamligini ta'minlovchi bilim va malakalarni shakllantirish;
- yoshlarni oilaviy muloqotga tayyorlash;
- yoshlarni oilani rejalashtirishga o'rgatish;

Ijtimoiy psixologiya oila psixologiyasini o'rganganda, unga jamiyatning bir bo'g'ini, kichik ijtimoiy guruh sifatida qaraydi. Shu sababli ham konkret izlanishlarda uning paydo bo'lishi, mavjudligiga asos bo'luvchi omillarni va tugashi bilan bog'liq holatlarga e'tiborni qaratadi. Zero, oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar bir qarashda emotsional hissiyotlarga asoslanganga o'xshasa-da, aslida bir insonning ikkinchisiga ko'ngil qo'yishi, tanlashi, birgalikda umr kechirishi jarayoni ijtimoiy-psixologik qonuniyatlarga to'la bo'ysunadi. Ayrim olimlar, masalan, frantsuz tadqiqotchisi *Le Ple* o'z vaqtida oilada sof psixologik qonuniyatlardan tashqari, ro'zg'orni boshqarish, farzandlar soni va tarkibiga ko'ra oila byudjetining o'zgarishlarini inobatga olib, uni ijtimoiy iqtisodiy qonuniyatlar maskani deb atashni ham taklif etgan. Uning fikricha, oilaviy o'zaro munosabatlar nihoyatda o'zgaruvchan bo'lib, ular zamon va davr ta'sirida, oila a'zolarining soni va sifatiga bog'liq tarzda tinimsiz sifat o'zgarishlarini boshdan kechirishini, hattoki, er-xotin o'rtasidagi odatiy munosabatlar yillar tazyiqi, jamiyat normalari, sanoatning rivoji yoki ma'naviyatning tanazzuli ta'siri ostida boshqacha tus olishi mumkinligini, ota-ona va bola munosabatlari tizimi, bunda hattoki, otaning avtoriteti

ham o'zgarib borishi, yaqin qarindoshlar o'rtasidagi psixologik masofa yillar o'tishi munosabati bilan uzoqlashib ketishini ta'kidlaydi.

Oila psixologiyasining tadqiqot metodlari. Xorij mamlakatlarida oilaviy munosabatlarga qiziqish o'tgan asrning boshlarida keskin oshdi. Taniqli tadqiqotchi olimlar *U.Jems, Ch.Kuli, U.Tomas, F.Znanetskiy, J.Piaje, Z.Freyd* kabilar oilaning davrasida ro'y beradigan shaxslararo munosabatlarning xarakteriga alohida e'tibor berishib, bir shaxsning boshqa bir shaxs ta'sirida qanday qilib, o'z sifatlarini takomillashtirishi, o'zgartirishi, tarbiyalanishi kabi qator masalalarni o'rgandilar. Natijada, bu borada olib borilajak ilmiy izlanishlarning naqadar muhimligi o'z navbatida jamoatchilikning diqqat-e'tiborini tortdi. Olimlar oila borasida o'tkaziladigan tadqiqotlar va unda qo'llaniladigan usullarning noyobligini ta'kidlashib, oila tadqiqotlarida rioya etilishi zarur bo'lgan odob normalari haqida ham fikr yuritganlar. Masalan, amerikalik sotsiolog *R.Xill* va boshqalar oila va nikoh muammosini o'rganishning sermashaqqat ish ekanligini ta'kidlab, usullarni tanlash va respondentlar bilan ishlaganda quyidagi omillarni hisobga olish maqsadga muvofiq ekanligi to'g'risida yozgan:

- tadqiqot uchun shunday metodikalarni, izlanish vositalarini topish lozimki, toki u bilan respondentlarga murojaat qilinganda, oilaviy hayotga ziyon etmasin, tadqiqotchi ketgach, er-xotin munosabatlari buzilmasin;

- tadqiqotda oila a'zolari bevosita qatnashishi hisobga olinsa, ushbu jarayon ularning nafaqat o'zaro munosabatlariga, balki psixologik holatlari va kayfiyatlariga ham salbiy ta'sir etmasin;

- tadqiqotchi ham tirik inson bo'lgani sababli, uning oilaga kirib kelishi, uydagi turmush tarziga, odatlar, o'zaro yaqinlik aloqalariga putur yetkazmasin.

Darhaqiqat, barchamiz uchun juda yaqin va tanishdek tuyulgan oila va nikoh masalalari bilan shug'ullanadigan

olimlarga, oila psixologi yoki pedagogi bo'lib faoliyat yurituvchilarga tashqaridan kuzatuvchilar ular ishini osonday tasavvur qilishadi. Lekin ming afsuski, unday emas. Chunki maktabda ta'lim olayotgan bolaning xulqu-odobi haqida ota-ona bilan suhbatlashish ham oson emas, zero, ota-ona ishdan charchab kelgach, xonadonida birinchidan, bolasining o'qituvchisini kutmaydi, qolaversa, ming mehmonnavoz, sertakalluf inson bo'lsa ham o'qituvchining kutilmagan tashrifidan cho'chish, norizolik, "nima derkin bolam haqida" degan shubha, hadik bo'lishi tabiiy. Xuddi shunday, oilaviy munosabatlarga taalluqli ilmiy izlanish olib borayotgan tadqiqotchining har qanday oilaga tashrifi xonadon egalariga yoqavermaydi. Qolaversa, agar respondentlarga taqdim etilayotgan so'rovnoma yoki test o'zaro munosabatlarga, ayniqsa, O'zbekiston sharoitida qaynona-kelin munosabatlariga yoki er-xotinning yaqin munosabatlariga oid bo'lsa, tadqiqotchi ketgach, oila a'zolari o'rtasida "kim taklif etdi, nima maqsadda?" qabiladagi so'rovlar, "tergovlar"ning bo'lmasligiga kim kafolat beradi. Shu bois ham hamisha bizning sharoitimizda oilaviy munosabatlarga oilada tadqiqotlar o'ta odob normalariga bo'ysundirilishi, muammoning nimada ekanligini aniq, samimiy iboralar vositasida tushuntira olish madaniyati katta ahamiyat kasb etadi. Bunda tadqiqotchining qo'lidagi ilmiy "quroli" - metodikalari ham katta ahamiyat kasb etadi.

Oila psixologiyasining asosiy metodlariga quyidagilar kiradi:

- **Kuzatish metodi.** Oilaviy munosabatlarni kuzatish deb oilaviy va turmush vaziyatlarida odamlarning tashqi xulq-atvorini idrok etish va muntazam qayd etib borishga bog'liq faoliyatga aytiladi. Odatda tadqiqot o'tkazayotgan psixologning kuzatayotganligini oila a'zolari bilmasliklari, sezmasliklari kerak. Kuzatuv natijalarini qayd etish aniq ko'rgan-kechirganlarni qanday bo'lsa shundayligicha yozib borish yoki esda saqlab qolib, keyin hech bir subyektiv xulosa yoki tahlilsiz

daftari belgilab borish tarzida kechadi.

- **Konkret vaziyatlarni tahlil qilish metodi.** Oila muhitida yoki hayotiy sharoitlarda ro'y bergan voqea-hodisalarni qayd etish unga kompleks yondashuvni talab etadi. Bunda o'rganayotgan shaxs testlar o'tkazishi, oila a'zolarining biografik ma'lumotlarini tahlil etishi yoki aniq maqsadli so'rov o'tkazishi mumkin.

- **So'rov metodi.** Odatda psixolog bir xonadonga kirib, hammada birdan so'rov o'tkaza olmaydi, u kim bilan, qachon va qanday maqsadda so'rov o'tkazishi lozimligini aniq bilishi va oldindan tanlovni belgilab qo'ygan bo'lishi lozim. Odamlar tanlab olingach, so'rovnoma kiritilgan har bir savolning ifodalanishiga e'tiborni qaratish lozim. Chunki bir shaxsga juda oson va aniqday tuyulgan savol boshqa bir shaxs uchun qiyin, noqulay, mavhum bo'lib tuyulishi mumkin. Masalan, savolning mazmunini tushunishda uyda o'tirgan beka bilan oila a'zosi bo'lgan pedagog ayol o'rtasida farq bo'lishi mumkin. So'rov odatda bevosita yuzma-yuz ko'rishib o'tkazilishi, telefon orqali yoki pochta orqali yuborilgan yozma savolnoma tarzida o'tkazilishi mumkin. Oila psixologiyasida so'rovnoma tarqatish orqali odamlarning fikrlari, munosabatlarini aniqlash keng tarqalgan.

- **Eksperiment.** Ushbu usul yordamida bir omil ta'sirining boshqa bir omil yoki holatning kelib chiqishiga turtki bo'lishini aniqlash mumkin. Odatda oilaviy munosabatlar dinamikasini o'rganishda, u yoki bu hodisalar yoki omillar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashda eksperiment usulidan foydalaniladi. Bunda bir necha xonadon eksperimental, ya'ni sinov o'tkazilayotgan guruh hisoblansa, boshqalari nazorat guruhi sifatida saqlanadi, eksperimentdan so'ng, olingan natijalar ikkala guruh misolida qiyoslanadi. Chunki bunday taqqoslash o'tkazilmasa, eksperiment o'tkazilgan guruhdagi o'zgarishlarning salmog'ini qayd etish mushkul bo'ladi. Respublika "Oila" ilmiy-amaliy markazi olimlari 2006

yilda mamlakatimizning ayrim xududlarida tanlab olingan guruhlarda o'ziga xos eksperiment o'tkazishgan: mahallada "Oila universitetlari" yoki "Ota-onalar universitetlari" tashkil etib, eksperiment oldidan universitet tinglovchilarining qator masalalarda oilaviy ustanovkalarini qayd etganlar, so'ngra aniq dastur asosida 6 oy mobaynida mashg'ulotlar, davra suhbatlari, ma'rifiy tadbirlardan so'ng yana o'sha so'rovnoma orqali ular fikrlari o'rganilib, natijalari monitoring qilinganda, targ'ibot-tashviqot ishlarining samaradorligi qayd etilgan. Bu ham o'ziga xos eksperiment bo'lib, muayyan maqsad va natijani ko'zlaydi.

- **Statistik metodlar.** Matematik statistikaning qator usullari empirik izlanishlar davomida qo'lga kiritilgan ma'lumotlarning qay darajada ilmiy jihatdan asoslanganligini isbotlash maqsadida qo'llaniladi. Ayniqsa, bir hodisa yoki holatning bioshqa bir holat yoki hodisaning oqibati, sababi ekanligini isbot etish uchun statistik metodlarni qo'llash barcha tadqiqotlarning talablaridan biridir. Masalan, oila a'zolarining biror qadriyatlariga nisbatan munosabatlarida yaqinlik, o'xshashlik borligini isbotlash uchun korelyatsion metodlardan foydalaniladi. Masalan, *Spirmenning* yoki *Kendallning* korelyatsiya koeffitsientlarini hisoblash usullari bunday sharoitlarda juda qo'l keladi. Yoki olingan empirik raqamlarning ishonchliligi va matematik jihatdan to'g'riligini isbotlash maqsadida tadqiqotchilar *Sthudentning* t - mezonini qo'llaydilar. Bunday yondashuv olimning mehnati asoslangan, ma'lumotlari ishonchli ekanligini tasdiqlaydi.

Shaxs rivojlanishida oilaning roli. Shaxs tarbiyasida muhim rol o'ynaydigan o'ziga xos mikroja- moalardan biri oiladir. Ishonch va qo'rquv, xotirjamlik va xavotir- lanish, muloqotdagi samimiylik va kirishimlilik yoki aksincha, kirisha olmaslik va sovuqlik — bu xislatlarning barini shaxs oilada egallaydi. Buxislatlar bola maktabga chiqquncha shakllanadi va bolaning rivojlanishiga uzoq vaqt ta'sir etadi. Xavotirlanuvchan onalarda xavotirlanuvchan bolalar shakllanadi. Rus psixologi

R.S.Nemov oila a'zolari orasidagi munosabatlarni to'rtga ajratadi. Ular psixofiziologik, psixologik, ijtimoiy va madaniy.

Psixofiziologik munosabatlarga — biologik qarindoshlik va jinsiy munosabatlar kiradi.

Psixologik munosabatlar — ochiqlik, ishonch, bir-biri to'g'risida g'amxo'rlik qilish, o'zaro axloqiy va hissiy qollab-quvvatlash. Ijtimoiy munosabatlar, rollarning taqsimlanishi, oilaning moddiy tomondan bogliqligi, shuningdek, mavqeli munosabatlarni — avtoritet, rahbar, bo'ysunishni o'z ichiga oladi. Madaniy munosabatlar — urf-odat va an'analar bilan bog'liq oila ichidagi bog'lanish va munosabatlarni o'z ichiga oladi. Bu murakkab munosabatlar tizimi farzandlarning oiladagi tarbiyasiga ta'sir ko'rsatadi. Tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan oiladagi ijtimoiy-psixologik omillarga to'xtalib o'tamiz. Birgalikdagi hayot turmush o'rtoqlardan doimiy kelishuvga tayyorlikni talab etadi, bunda turmush o'rtog'ining qiziqishlari va ehtiyojlari bilan hisoblashish, bir-birini hurmat qilish, bir-biriga ishonish, bir-birini tushunishga harakat qilish lozim bo'ladi. Bolani tarbiyalashga ta'sir etuvchi salbiy omillar qatoriga oila ichidagi munosabatlar odobining er-xotinlar tomonidan doimiy buzilishi, o'zaro ishonch, e'tibor, g'amxo'rlik, hurmat, psixologik qo'llab-quvvatlash va qollab-quvvatlashning mavjud emasligini ko'rsatish mumkin. Ko'pincha bunday salbiy anomalialarga er, xotin, beka, oila boshlig'i kabi oilaviy rollarning bir xil tushunilmasligi, er-xotinlarning bir-biriga yuqori talablar qo'yishi sabab bo'lishi mumkin. Bola tarbiyasiga salbiy ta'sir etuvchi omillarni amalda bartaraf etish uchun er-xotin orasidagi o'zaro munosabatlar quyidagi asosiy tamoyillar asosida qurilishi lozim:

1. Turmush o'rtog'ingizni o'zingizga yoqadigan qilib qayta o'zgartirish vazifasini qo'ymang. Uni shaxs sifatida tushunishga, voqelikka uning ko'zi bilan qarashga, odatiy bo'lmagan, o'rganilmagan, lekin bola tarbiyasida muhim bo'lmagan jihatlar bo'yicha aqli kelishuvni amalga oshiring.

2. Fikrlarda, qarashlarda, ayniqsa tarbiya masalalari bo'yicha umumiylikni barcha iloji bor usullar bilan mustahkamlashga harakat qiling.

3. Oila qurgan insonlar shaxs sifatida shakllanib bo'lganligi uchun qarashlarda farqlar yuzaga kelganda nizolashishgacha olib bormaslik lozim.

4. O'z xatolaringizni ochiq tan olishga, haqligingizdan shubhalanishga uyalmang.

5. Turmush o'rtog'ingizga tanqidiy munosabatda bo'lishdan oldin, o'zingizga ham tanqidiy munosabatda boling. Buning uchun har doim ko'p asoslar topilishi mumkin.

6. Turmush o'rtog'ingizda ayrim kamchiliklar, masalan, salbiy xarakter xislatlari paydo bo'lsa, normal holat deb qabul qilish lozim. Barchada kamchilik bor, beayb parvardigor.

Oilada tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish uchun ota-onalar turli tarbiya vositalaridan fodalanishadi: bolani rag'batlantirishadi, jazolashadi, uning uchun namuna bo'lishga harakat qilishadi. Do'stona munosabatda bildirilgan maqto'v, befarq va sovuq ota-onalardan olingan maqto'vga qaraganda ta'sirliroqdir. Jazolash va taqiqlashga nisbatan maqto'vdan aql bilan foydalanish hisobiga bolani shaxs sifatida shakllanishiga ijobiy ta'sir qilish mumkin. Bolani boshqa yo'l bilan amalda o'zgartirib bolmaganida jazolashdan ham foydalanish mumkin. Agar jazolash uchun ehtiyoj tug'ilsa, uning tarbiyaviy ta'sirini oshirish uchun iloji bori-cha qilgan xatti-harakati uchun jazolashga intilish kerak. Jazolash adolatli, lekin juda shafqatsiz bo'lmazligi lozim. Juda qattiq jazolash bolada qo'rquv paydo qilishi mumkin. Bolaning qilgan xatosi unga yaxshilab tushuntirilsa, jazolash samarali bo'ladi. Ko'proq jazolanadigan, baqiriladigan bolalar, ota-onadan uzoq-lashadi, emotsional befarq bo'lib qoladi hamda yuqori agressivlikni namoyon etadi.

Nazorat savollari

1. «Oila» tushunchasini izohlab bering.
2. Oilaviy hayotga tayyorlash deganda nimani tushunasiz?
3. Oila psixologiyasi fanini o'qitishdan maqsad nima?
4. Oila psixologiyasining vazifalari nimalardan iborat?
5. Oila psixologiyasi fanining predmeti nima?
6. Oila psixologiyasining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
7. Oila psixologiyasining qanday metodlarini bilasiz?
8. Oila psixologiyasi qaysi fanlar bilan o'zaro bog'liq?
9. Yoshlarni oilaga tayyorlash nima uchun zarur?
10. Davlat va jamiyat miqqiyosida oilaga oid xujjatlarni ayting.

OILA VA OILAVIY MUNOSABATLAR BORASIDAGI QARASHLAR

1. Oila va nikoh institutining rivojlanish tarixi.
2. Avestoda oila haqida bayon etilgan fikrlar. Islomda oilaviy munosabatlar masalalari.
3. Mutafakkirlarining oila haqidagi qarashlari. (Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beniniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf xos Xojib, Alisher Navoiy va boshqa mutafakkirlarning oila va oilaviy munosabatlar xususidagi qarashlari)
4. Yu.Toslaviyning "Xikmatlar xazinasini"dagi nasihatlar.
5. Ibn Sinoning oilaviy munosabatlar haqida qarashlari.

Oila va nikoh institutining rivojlanish tarixi. Tarixan oila va nikoh masalalarining qanday bo'lganligi, ushbu qadriyatlarga olimlar va allomalarning munosabatlari qanday bo'lganligi o'ta muhim va amaliy ahamiyatli hisoblangan.

Guruhiy nikohdan juftlik nikohigacha. Oilaviy munosabatlar tizimining rivojlanishi nikohga kiruvchilar sonining kamayishi va nikoh uchun sherik tanlash tartiblarining qat'iy belgilanishi yo'nalishida ro'y bergan. Insoniyat ijtimoiy tashkil topishining eng qadimiy shakli bu **urug'-qabila** bo'lib, u bir ayol urug'idan tarqagan, matriarxat zotidan kelib chiqadigan (uning qizlari, qizlarning farzandlari va ularning avlodlari) barcha odamlarni o'zida birlashtirgan. Shu tariqa **urug'** - mohiyatan matriarxal oila bo'lib, onaning zotidan tarqalgan barcha avlodni bir-biriga chatishtirib boravergan. Bunday urug' shaklining saqlanib qolgan andozalaridan biri ruslardagi "matreshka" o'yinchog'i bo'lib, u bizga ona avlodlarining o'zaro bir-birlaridan kelib chiqishini ifodalaydi.

Gruppaviy yoki guruhiy oila - bir necha opa-singillarning boshqa bir toifa erkaklar guruhi bilan nikohga kirishini taqozo etgan. Bunday ayollar yo o'z qavmidan bo'lgan erkakka yoki tamoman boshqa - begona urug'ning vakili bo'lmish erkakka

turmushga chiqishi mumkin bo'lgan. Lekin avlodning kelib chiqishi onalik urug'iga bog'langan, otalikni belgilash holatlari inobatga olinmagan. S. Golodning yozishicha (1998 y.), onadan tarqagan avlodlar XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ham ko'pgina xalqlarda saqlanib kelgan.

Juftlik oila - alohida, bir-biriga unchalik yaqin bo'lmagan yoki mutloq begona ikki kishi o'rtasidagi nikohni nazarda tutgan bo'lib, ular o'rtasidagi munosabatlar har doim ham mustahkam bo'lmagan va tomonlarning xohish-irodasiga ko'ra u istalgan vaqtda barbod bo'lishi ham mumkin edi. Hozirda mavjud bo'lgan oilalarda shaklan shu model saqlab qolingan.

Patriarxal oila - bir erkak kishining bir yoki bir nechta ayol o'rtasidagi nikohiga asoslangan bo'lib, bunda erkakning huquqlari xotinnikidan ko'proq bo'lgan, nikohning bu shakli ayni xususiy mulkchilik rivojlangan davrlarda keng tarqalgan. Bunday oilada, tabiiy, erkak huquqlari ustivor bo'lib, uning har qanday oila masalalarini yechish va qarorlar qabul qilishdagi mavqei yuqori hisoblangan. Shu sababli avlodlarning kelib chiqishi, urug'ning tarqalishi kabi masalalar erkakning avlodlari shajarasidan boshlangan, mulkka egalik va unga vorislik ham erkaklar tabaqasi orqali yuritilgan.

Monogam oila - bir erkak va bir ayol juftligi o'rtasidagi nikoh munosabatlarini nazarda tutadi. Ularning er-xotinlik munosabatlari ham umrbod hisoblangan (qadimgi grek so'zlaridan olingan: "*monos*" - bir, yagona, tanho; "*gamos*" - nikoh ma'nosini bildiradi). Oilaning bunday shakli taxminan uch ming yillar avval paydo bo'lgan. O'z mohiyatiga ko'ra bu - patriarxal oilaning bir ko'rinishi hisoblanib, yaqin yillardan buyon oilaning bu shakli ayollar va ayollarning teng huquqliligi, bolalar tarbiyasidagi muayyan erkinlik, ona va bolaning oila hayotidagi nufuzi ortishi shaklida rivojlanib kelmoqda.

Lekin biz oila va nikoh tushunchalarining allomalar va taniqli olimlar izlanishlarida qanday ifoda etilganiga e'tiborni qaratamiz.

Ana shunday nikoh tarixiga qiziqqan olimlardan biri qadimgi grek faylasufi *Platon* bo'lgan. Uning fikricha, barcha samon va makonlarda patriarxal oila ijtimoiy munosabatlarning, jamiyat hayotining asosi bo'ladi, davlat esa ana shu kabi oilalarning birlashuvidan paydo bo'lgan. Lekin *Platon*ning o'zi o'z qarashlarini oxirigacha himoya qilib, fikrlarini yakunlay olmadi. "Ideal davlat" deb nomlangan loyihasida u jamiyatda hamjihatlikni ta'minlash uchun ayollar, bolalar birlashmalari va sarmoyalarning umumiyligiga erishish lozim, degan fikrni ilgari surdi. Lekin ayni shu oxirgi fikr aslida yangi emas edi. Qadimgi grek tarixchi olimi *Geradot* o'zining mashhur "Tarixlar" deb nomlangan asarida ayollar birlashmalari bir qator qabilalar uchun o'ziga xos xususiyat ekanligini ta'kidlagan edi. Bu kabi ma'lumotlar antik davrga xos bo'lgan qator manbalarda o'z ifodasini topgan.

Aristotel *Platon*ning izdoshi sifatida uning "ideal davlat"ga oid fikrlarini rivojlantirib, ustozining patriarxal, ya'ni, erkak kishi yetakchi bo'lgan oila modelini yoqlab fikr bildirgan. Uning fikricha, oilalar birlashib, "turar-joylarni", "turar-joylar" birlashib, yaxlit davlatni tashkil etadi. *Platon* va *Aristotel*blarning shu kabi nuqtai nazarlari anchagina davrgacha hukmron bo'ldi va oila jamiyatning bo'lagi sifatida, o'ziga xos bo'linmas patriarxal institut sifatida idrok etildi. Frantsuz ma'rifatparvari *Jan-Jak Russo* o'z davrida "Oila - eng qadimiy va asli tabiiy bo'lgan jamiyat bo'lagidir. Oila - kerak bo'lsa, jamiyat siyosiy qiyofasini belgilovchi obraz, bunda yetakchi, rahbar - go'yoki ota misoli, xalq esa - farzandlar kabidir" deb yozgan edi. Bu aslida insoniyat tarixida uzoq vaqtgacha ustivor bo'lgan paternalizm tamoyilining yaqqol timsolidir ("*patern*" - ota, otalik, yetakchilik ma'nosini bildiradi).

Shunday qilib, antik davrning faylasuflari ham, ulardan keyingi o'rta asr, hattoki, yangi davrga kelib ham ko'plab tadqiqotchilar va allomalar oila institutiga alohida ahamiyat berib, o'z asarlarida ijtimoiy munosabatlarning tabiati

va namoyon bo'lishini aynan oilaviy munosabatlarning xarakteridan qidirish lozimligi fikrini yoqlab keldilar. Shu kabi fikrni nemis faylasuflari *Kant* va *Gegelbning* mutloq g'oyaga aloqador asarlarida ham ko'rish mumkin. Ular avvalo "oila" va "nikoh" tushunchalari o'rtasida bevosita aloqa mavjudligini ta'kidlaydilar. Shu bois bo'lsa kerak, hanuzgacha shu ikki tushuncha ko'pincha sinonimlarday o'zrao bog'liqlikda ishlatiladi. Shunday bo'lsada, oilashunoslar bu ikki tushunchaning o'rtasida nafaqat farq borligini, balki ular aslida tarixan turli davrlarda paydo bo'lganligini ham isbot qila oldilar.

Masalan, rus olimi *A.G. Xarchevning* kitoblarida bu ikki tushunchani farqlovchi jihatlar aniq belgilangan. Xususan, uning talqinida "nikoh - erkak va ayol o'rtasidagi tarixan o'zgaruvchan o'zaro munosabatlarni bildirib, shu orqali jamiyat ularning jinsiy hayotlarini tartibga soladi, o'zaro er-xotinlik munosabatlarini hamda farzandlari bilan shakllanadigan munosabatlarni, bu boradagi huquq va majburiyatlarni belgilaydi, yo'naltiradi". Oila esa nikohga nisbatan murakkabroq tabiatli munosabatlarni ifodalaydi, chunki u nafaqat er va xotinlarning o'zaro munosabatlarini, balki ularning farzandlari, qarindosh-urug'lar, ikkalalari uchun yaqin bo'lgan insonlar munosabatlarini ham qamrab oladi.

Oila va nikoh masalalariga tarixiy yondashuv shveytsariyalik olim *I.Baxoven* (1815-1887) ishlarida, ayniqsa, uning "Onalik huquqi" kitobida yoritilgan. Undan tashqari, amerikalik tadqiqotchi *L.Morgan* (1818-1881)ning asarlarida ham oilaga nisbatan evolyutsion qarashlar bayon etilgan bo'lib, "Qadimgi jamiyat" kitobi buning yaqqol namunasi hisoblanadi. Bu asarlarda oila institutining bevosita jamiyat tarqqiyoti bilan bog'liqligi, jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning takomili oilaning mustahkamligiga bog'liq ekanligi g'oyasi o'z isbotini topgan. Bu o'zgarishlar tarix mobaynida turli jins vakillari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga bog'liq tarzda kechishi ham ta'kidlangan.

Shunday qilib, oilani ijtimoiy institut sifatida idrok etish va uni ilmiy jihatdan o'rganish an'analari tarixi XIX asrning o'rtalariga to'g'ri keladi. Ayni shu davrdan boshlab jahonning turli burchaklaridagi taniqli sotsiologlar va antropologlar (*L.Morgan, M.Kovalevskiy, B.Malinovkiy, P.Sorokin*, keyinchalik *A.Xarchev, S.Golod* va boshqalar.) oila muammolarini o'zlarining aniq tadqiqot mavzulari sifatida o'rgana boshladilar.

Oilaviy munosabatlar Bir qarashda yangicha tuyulgan monogam oiladagi **rivojlanishida yangicha** o'zgarishlar XX asrning boshlaridayoq kuzatila **an'analari** boshlangan. Olimlarning ta'kidlashicha, oila institutining o'zi tabiati nuqtai nazaridan ancha konservativ, ya'ni o'zgarmas, turg'un tizim bo'lgani bois, jamiyat miqqiyosida ro'y beradigan o'zgarishlar oila doirasida taxminan 10-30-yillardan keyingina aks eta boshlaydi. Bundan tashqari, rus sotsiologi *S.Golodning* yozishicha, Yevropa xalqlari hayotida, oilaviy munosabatlarda kuzatiladigan barcha ijobiy jarayonlar monogam, patriarxal oilaning saqlanib qolingani sababli ro'y bergan bo'lsa, qolgan barcha salbiy holatlar aksincha, oilada ro'y berayotgan salbiy, yomon jarayonlardan kelib chiqadi. Bu kabi talqinlar tabiiyki, ko'plab tadqiqotchilarga oila va uning istiqbolini tushunishga, mazkur yo'nalishda jiddiy tadqiqotlar olib borishga xalaqit beradi.

Shunga qaramay, oila institutida kuzatilayotgan har qanday o'zgarishlari odatda eng avvalo, ayolning — xotin-qizlarning jamiyat va oilada tutgan maqomlarining o'zgarib borayotganligi, ular malakalarining oshib borayotganligi va kasb-hunar, lavozim pog'onalarida erkaklardan qolishmaslikka intilayotganligi bilan izohlanadi. Qayd etilgan holat bevosita oila hayotida ro'y berayotgan turli xil o'zgarishlarga, ham salbiy, ham ijobiy hodisalarga sabab bo'lmoqda.

Ikkala jins vakillari xaq-huquqlarining amalda tenglashib borayotganligi xotin-qizlarning erkaklar - yigitlar oldida o'zini tutishi va o'z navbatida yigitlarning qizlarga, erkaklarning

ayoliga bo'lgan munosabatlari, xushomad qilishlarida o'z aksini topmoqda. Ayniqsa, Yevropa xalqlarida nikoh oldi sovchilik instituti yo'qolib, uning o'rniga o'z xohishi bilan o'ziga nikoh sheriginini tanlashi an'anasi barqarorlashdi. Lekin ayni holat saqlanib qolgan mamlakatlarda, jumladan, O'zbekistonda oila institutiga munosabat boshqacharoq, ya'ni an'analarga sodiqlik saqlanib qolgan. Sovchilikning ahamiyati shundaki, bunda o'rtada turganlar, kelin-kuyov oilasini tanigan, bilgan, surishtirgan odamlar bo'lgani sababli ham ular yosh oilaning mustahkam bo'lishidan juda manfaatdordirlar, shuning uchun haqiqiy o'zbekona me'zonlar, "teng-tengi bilan" tamoyili asosida, sovchilar yordamida qurilgan nikohlar aksariyat holatlarda mustahkam bo'ladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, har bir davrda bo'lgani kabi hozir ham yoshlarning o'z ixtiyori bilan, bir-birlarini yoqtirib qolishlari oqibatida paydo bo'lgan oilalar mavjud. Yoshlarning ayrimlari o'z ixtiyori bilan qalliq tanlashni, yoqtirib, sevib turmush qurishni oldindan niyat qiladi. Shunisi borki, o'z ixtiyori bilan turmush o'rtog'i tanlashda ota-ona va oilasi manfaatlari, ularning istak-xohishlari deyarli inobatga olinmaydi. Odatda bu kabi yoshlar nikoh oldidan ota-otasining roziligini olmaydi, shu sababli, ko'pincha, bunday nikoh yengil-yelpi qarorlar oqibati bo'lib, uzoqqa bormasligi mumkin. Respublika "Oila" ilmiy-amaliy markazi 2003 yilda o'tkazgan tadqiqot natijalariga ko'ra, ajralishib ketgan yosh oilalarning 90 foizidan ortig'i nikoh motivi-sababi sifatida "sevish-sevilish"ni ko'rsatganlar.

Xotin-qizlarning iqtisodiy mustaqilligi tufayli XX asrga kelib ayolning oila va jamiyatda tutgan o'rne va maqomi keskin o'zgardi. Oxirgi paytlarda butun dunyoda matriarxat davridagi kabi oilaning yetakchisi, boshlig'i roliga ko'pincha ayol da'vogarlik qila boshlashi kuzatildi. Buning oqibatida erkak kishining oiladagi yetakchilik roli, oilada resurslarni boshqarish, qarorlar qabul qilish va farzandlarni jamiyat hayotiga jalb etishdagi maqomi sezilarli darajada pastladi.

Ikkinchi tomondan, ayol-onaning oilasi va bola tarbiyasi uchun bo'sh vaqtining kamayib borayotganligi, reproduktiv mas'uliyatning jamiyatda lavozimlar pog'onasida yuqoriroq o'rin egallash istagiga nisbatan pastlab borayotganligi salbiy oqibatlarga olib kelmoqda. Shu sababli sanoati rivojlangan mamlakatlarda tug'ilishlar sonining kamayib borayotganligi, oqibatda aholi sonining keskin pasayishi kuzatilmoqda. Afsuski, bunday holatlar O'zbekistonning shahar hududlarida ham kuzatilmoqda.

Oilaning tarbiyalovchi vazifasi oila a'zolaridan tashqari boshqainsonlarga, muassasalarga — enagavaguvernantkalgarga, yoki davlat tomonidan to'la muhofazaga olingan tashkilotlar - Mehribonlik uylari, Muruvvat uylari va boshqalar zimmasiga yuklatilmoqda. Sobiq totalitar tuzum davrida ushbu vazifaning davlat zimmasida ekanligi, individual, oilaviy tarbiyaning gruppaviy tarbiya bilan, tarbiyalanuvchi shaxsiga e'tiborning keskin kamayishi bilan o'zgartirildi. Oqibatda hech kimga tegishli bo'lmagan, psixik va aqliy rivojlanishi o'rtamiyona bo'lgan bolalar paydo bo'ldi. Bu ochiq yoki yashirin onalik *deprivatsiyasini* keltirib chiqardi.

Ya'ni, XX asr o'rtalariga kelib, monogam oilada o'zgacha uyg'unlik kashf etgan, yaxlit guruhday tasavvur etilgan oilaning vazifalari - nikohga kirish, jinsiy hayotni ta'minlash va o'zidan nasl qoldirish - reproduksiya bir-biri bilan bog'lanmagan vazifalar tarzida ayrocha, alohida funktsiyalarday tasavvur etila boshlandi. Agar XIX asr oxirlarigacha oila paydo bo'lishi bilan unda farzandlar tug'ilishini kutish odatga aylangan bo'lsa, yangi davrga kelib, qachon tashkil bo'lganligiga qaramay, bola tug'ilishini rejalashtirmaydigan oilalar hamda boshqa tomondan, oilasiz, nikohsiz ham tug'iladigan bolalar ko'paydi. Ochiqroq aytadigan bo'lsak, turmushga chiqmasa-da, bola tug'adigan yolg'iz onalar ham paydo bo'ldi. Shu tariqa nikoh bilan oilaning reproduktiv vazifasi o'rtasida tafovut paydo bo'ldi.

Jinsiy hayot borasida sodir bo'lgan o'zgarishlar shuki, agar ilgari bunday munosabat oiladan tashqarida ro'y bersa, jamiyat ham, din ham uni qoralar edi. So'nggi o'n yilliklarda dunyo miqqiyosida erkaklar ham, ayollar ham erkin jinsiy hayotga oddiy munosabat sifatida qaraydigan bo'lishdi. Ma'naviy inqiroz hisoblanmish bunday munosabatlarga jamiyatning befarqligi ilg'or fikrlovchi insonlarni jiddiy tashvishga solmoqda. Buning asosiy sababi jamiyatda ma'naviy qadriyatlar inqirozga yuz tutgani bo'lsa, ikkinchi tomondan, bunga ayollar o'rtasida kontratseptiv vositalardan foydalanishning urf bo'lishi va ular o'zlariga berilgan ijtimoiy erkinliklarni noto'g'ri idrok etishlari, ommaviy axborot vositalari orqali u yoki bu xalq mentalitetiga mos kelmaydigan axborotlarning keng tarqalishi sabab bo'layotir.

Eng achinarlisi, ayrim yoshlar va ularning ota-onalari uchun "nikoh" va "ajrim" tushunchalari oddiy narsaday, ziddiyatsiz qabul qilinadigan bo'ldi. Ular o'z shaxsiy mas'uliyatini his etmayaptilar. Sanoat rivojlangan mamlakatlarda 51 foizgacha bo'lgan nikohlar muayyan muddatdan so'ng barbod bo'layotganligi odatiy holday qabul qilinadi. Chet el axborot vositalarining ba'zi taniqli shaxs, aktyor yoki millionerning har 3-4 yilda almashinib turiladigan nikohlari to'g'risida yozilayotgan maqolalari eng o'qimishli, qiziqarli axborotday talqin etilmoqda. Tabiiyki, bu ularni o'qiyotgan yoshlar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ta'kidlash joizki, bunday holatlarda ajrimlarning tashabbuskorlari ko'pincha ayollar bo'lib, bu o'z navbatida oila ajrimlari sonining ortib borishiga, farzandlarning aybsiz aybdorlarday noto'liq oilalarda tarbiyalanishiga olib keladi.

Yangi davr oilasi: tipologiyasi, turlari, xususiyatlari. Oilani turlarga bo'lganda, turli olimlar turlicha yondashdilar. Masalan, Sank-Piterburg lik olim S.I. Golod (1998) faqat er va xotin hamda ularning farzandlaridan iborat oilalarni tasavvur etgan holda ularning oila davrasidagi ijtimoiy nufuzlari va

rollari nuqtai nazaridan oilani toifalarga bo'lib o'rganishni taklif etadi. Xususan, u monogam oiladagi munosabatlarni oilaviy tabaqalar nuqtayi nazaridan farqlashni taklif etgan. Undan tashqari, *Golod* o'z kitobida oxirgi yillarda Rossiyada keng tarqab borayotgan o'ziga xos tabaqali oilalarga ham ilmiy jamoatchilikning diqqatini qaratadi.

Patriarxal monogam oila - bu o'z mohiyatiga ko'ra oiladagi erkak kishining nufuzi, yetakchilik roli, xotinning unga, farzandlarning ota-onaga tobeligini nazarda tutadi. Bunday oilada o'g'il bolalar otaning oilasini sira tark etmaydi, aksincha, uylangan taqdirda ham turmush o'rtog'ini shu xonadonga olib keladi, qizlar esa kimga turmushga chiqsa, uning familiyasiga o'tib, o'z ota-onasining uyini tark etadi. Bunday oilada urug'ning atalashi (familiya), shajara va mulkka egalik otaning yo'lidan amalga oshiriladi, oilaviy rollar esa erkaklarniki yoki xotinlarniki tarzida aniq tafovutlanadi. Erkaklar oilaning moddiy boyliklari, resurslari, ta'minoti bilan shug' ullansalar, ayollar asosan uy ishlari bilan band bo'ladilar.

Oilaning ijtimoiy nufuzi, obro'si otaning, urning, o'g'ilning iqtisodiy maqomidan kelib chiqadi, ayolniki esa farzandlar soni bilan belgilanib, uning professional maqomi ko'p hollarda oilaning, turmush o'rtog'ining ijtimoiy maqomiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, farzandlar ko'z o'ngida otaning avtoriterti pastlaganday bo'ladi, ayrim holatlarda urning oila ta'minotidagi ulushi tushib ketishi ham ayolning oila moddiy ta'minotiga bevosita aralashishiga sabab bo'ladi.

Monogam oila - bola manfaatiga yo'nalgan oila (detotsentrik) XIX asrning oxiri - XX asrning boshlarida paydo bo'lgan hodisadir. U xotin-qizlarning ijtimoiy hayotdagi rolining ortishi hamda bola huquqlarining oshib borishi bilan izohlanadi. Bunday holatlarda gap ko'proq oilada farzandlar soni haqida emas, balki oilada umuman bola borligining qadrlanishi to'g'risida boradi. Ota-onalar bunday sharoitda ko'proq bolaning kelajakda kim bo'lishi, u egallashi lozim

bo'lgan martabalar, uning istiqboli xususida qayg'uradigan, shu bois ham oila byudjetining asosiy qismi uni ta'minlash, unga zarur ta'lim va tarbiyani berish, g'amxo'rlik qilishga sarflanadi. Bolalar bilan bog'liq ehtiyojlarining o'sib borishi oqibatida mamlakatda ham bolalar ta'minoti, ularning ozuqasi, kiyim-kechagi, o'yinchoglar, bolalarining madaniy-ma'rifiy maskanlarini rivojlantirishga ixtisoslashgan sanoat korxonalari ko'payadi, rivojlanadi. Bolalar va yoshlarning turli ma'rifiy o'choqlarining kengayishi, yangi texnika va texnologiyalarning kasb ta'limini takomillashtirish ishlari, ular o'qishi va bilim olishi muddatlarining uzaytirilishi ularning mehnat sohasiga kechroq kirib borishga olib keladi. Ya'ni, ilgariqiga nisbatan bolalar kechroq mustaqil hayotga kirishadi. Buning oqibatida nikoh yoshi ham tobora kattalashib boradi. Kattalar tomonidan bolaga e'tiborning, shu bilan bir qatorda tashvishlarning ortishi, o'z navbatida bolalarining tug'ilish soni kamayishiga olib keladi. Bolalar erka bo'lib, ular erkinligi ortib boradi, ota-onaning butun diqqat- e'tibori ularga qaratiladi. Bu toifa oiladagi bola manfaati shu qadarki, ba'zan ona qavat bolani o'ylash, unga e'tibor qilishni afzal bilganidan, eridan ham voz kechishi holatlari ham kuzatiladi.

Bola manfaatiga yo'nalgan oilaning ham turli ko'rinishlari bo'lib, ularidan biri **avtoritar tip**dir. Bunda bola soni bittami yoki ikkita ota-onaning cheksiz g'amxo'rligi, ular obro'si bilan parallel tashkil etiladi. Masalan, ko'pgina amaldorlarning oilasi shunday. Ota-ona bola nazarda eng nuфуzli, aqli har narsaga yetadigan, shuning uchun bola ham xuddi otasi yoki onasiday bo'lib yetishish motivatsiyasi kuchli bo'ladi.

Ambivalent detotsentrik oiladagi bola ko'proq ota-onaning hissiy-emosional g'amxo'rligi ta'sirida bo'ladi. Masalan, bu agar qiz bo'lsa, u qavat otasi yoki onasi, yoki ikkisinin doimiy erkashlari og'ushida katta bo'lib, oxir-oqibat shunday holatga ko'nikib ketadi. Oilaviy munosabat faqat shunday bo'lsa kerak,

degan fikr ba'zan o'zi mustaqil oila qurganda, uning yangi xonadonga ko'nikishiga jiddiy xalaqit beradi.

Kvaziavtonom detotsentrik oilada bola huquqlari kattalarniki bilan deyarli tenglashhtiriladi, ularga kattalar bilan bir qatorda oilaviy yumushlarni bajarish erki, o'z holicha qarorlar qabul qilish huquqlari berilgan bo'ladi. Buning albat, ham ijobiy, ham salbiy jihatlari bor.

Er-xotin oilasi XX asrning 60-70-chi yillarida paydo bo'lib, u ham ayollar, ham bolalar emansipatsiya jarayonlarining oqibati sifatida qaraladi. Bunday oiladagi o'zaro munosabatlari asosan erkak va xotin o'rtasidagi muomalaga, uning qanchalik samimiy, iliqigiga bog'liq bo'ladi. Ayolga o'z xohish-irodasini mumkin qadar namoyon etish, unga ma'lum ma'noda mustaqil erishish imkoniyati yaratiladi. U ko'p holatlarda turmush o'tog'iga suyuqli, erka va zarur yor rolini o'ynaydi. *Gold er-xotin*ning bir-birlariga yaqin bo'lishlarining 4 xil jihati ni farqlaydi: simpatiya (yoqtirish), samimiyat, minnatdorlik va erotik jihatdan bog'liqlik.

Monogam bolmagan oila toifasi chin ma'noda nikoh munosabatlari ta'yanmaydi. Bundan oilaning uch xil ko'rinishi mavjud:

Ajrimlar tufayli paydo bolgan noto'liq oila - XX asrning oxirlarida ko'payib ketgan noto'liq oila turi. *Goldning* ma'lumotlariga ko'ra, Rossiyadagi oilalar ajrimi shu qadar ko'paydiki, har 100 ta nikohga 51 ta oila ajrim to'g'ri keladi. Bunga sabablardan biri ota-onalik rollarining bajarilmasiligi, otaning bola tarbiyasidan sovuqqonlik bilan chetlashishidir, chunki ko'pgina otalar ajralishgandan so'ng ma'lum muddat o'tgach, O'zbekistonda oila va nikoh nechog'li qadriannmasin, oilaviy ajrimlar ham qayd etiladi. Statistik ma'lumotlariga ko'ra, oxirgi yillarda yiliga o'rtacha 14,5 mingga 15 mingacha oila ajrimlari qayd etiladi, ajrimlarning sudlar orqali rasmiylashtiriladigan turlari FXDYo orqali rasmiylashtiriladiganidan ko'proqdir. Ajrim

bo'lgan oilalarning 70 foizi yosh oilalar bo'lib, ularda o'rtacha 2,5 ta bola chala yetim bo'lib qoladi. Bu kabi noto'liq oilalarda o'ziga yarasha ijtimoiy-iqtisodiy muammolar paydo bo'ldaiki, shu bois ham davlatimizning oila siyosatining mazmuni noto'liq oilalar sonini kamaytirishga qaratilgandir. Bunda masalaning moddiy tomonidan ham uning ma'naviy-ahloqiy tomonlari bizni ko'proq tashvishga soladi.

Beva bo'lib qolish, yoki turmush o'rtog'ining vafoti munosabati bilan noto'liq bo'lgan oila ham ko'proq onaning farzandi bilan yolg'iz qolishidir.

Bunday oilalardagi ma'naviy muhit ajrim tufayli paydo bo'lgan noto'liq oilanikidan farq qiladi. O'zbek onalari bunday holatlarda otasining ruhi hurmatidan farzandlarida yuksak insoniy fazilatlarini tarbiyalashga intiladi. Bunday o'ziga xoslik qator tadqiqotlarda alohida qayd etilgan (*G. Yadgarova*, 2003).

Nikohdan tashqari oila 90-chi yillarda ko'paygan oila turi, unda asosan yolg'iz qolgan ayol-ona oilani tebratadi. Bunday oilalar o'sha davrda Rossiyada 20-21 foizni, Buyuk Britaniyada va Frantsiyada - 32-35 foizni tashkil etgan bo'lib, ko'proq yoshgina bo'la turib ona bo'lganlar (15-19 yoshlilar) yoki aksincha, reproduktiv yoshdan o'tib qolganlar - 40-44 yoshlilar tashkil etadi. Bu o'rinda ikkala holatda xotin-qizlarning nikohga kirmasdan tug'ish motivlari turlicha bo'ladi.

Rossiyada ota-onalardan bittasigina bo'lgan oilalarda 1989 yilda 4,5 mln. bola yashagan bo'lsa, bu ko'rsatgich 1994 yilda 5 millonga yetdi (*A.G.Volkov, Ye.L.Soroko*, 1999). O'zbekiston sharoitida bu kabi holatlar favqulotda holatlar sifatida qaraladi, chunki ayrim udumlar va milliy qadriyatlarimiz farzandning nikohdan tashqari paydo bo'lishini qoralaydi. Shunday bo'lsa-da, turli sabablar va otag'onalarining vaziyatlar qurboni bo'lishi natijasida mamlkataimizda otalikni belgilash holatlari ortib bormoqdaki, unda ham ko'pincha rasman oila nikohsiz oiladay tasavvur etiladi. Sha'riy nikoh o'qilgani bilan rasmiy ravishda nikohning o'z vaqtida qayd etilmasligi mentalitetimizga zid

bo'lgan shu toifa oilalarning rasmiylashtirilib qolishiga sabab bo'lmoqda.

Albternativ oila turlari - kam uchraydigan oila turlari bo'lib, ular ayrim jihatlari bilan boshqalardan farqlanib turadi va o'z navbatida toifalarga bo'linadi. Masalan, ulardan biri - fuqarolik nikohi deb atalib, unda erkak va ayol o'z ixtiyorlari bilan rasmiy nikohni qayd emay, yashayveradi. Ba'zan bunday qarorga ular kutilmagan homiladorlik paydo bo'lganda ham kelishlari mumkin. Bunday nikoh bizning sharoitimizga, musulmonchilikka sira ham to'g'ri kelmaydi. Alternativ nikohlar ko'proq g'arb mamlakatlariga xosdir. Lekin *Golodning* ta'kidlashicha, hozirda Rossiyada mavjud oilalarning 7% shunday nikoh asosida tashkil topgan. Oilaning muqaddasligini tinimsiz targ'ib etishimiz azaliy qadriyatlarni ardoqlab kelayotgan yurtimizda bunday salbiy holatlarning bo'lmasligiga xizmat qiladi.

Albternativ nikohning yana bir ko'rinishi **qayta nikohlardir**. Odatda bunday nikoh turi beva yoki tul qolgan shaxslarda uchraydi. Aslida ham birinchi qayta nikohlar XVI asrda Angliyada qayd etila boshlagan. Hozirda esa bunday nikohlar odatda beva qolganlar yoki ajrashib ketganlar o'rtasida qayd etilishi mumkin. Bunday oila turi ham ajrimlar ko'payishiga mos tarzda ortib bormoqda.

Aralash oilalar yoki begona ota-onalar bilan yashaydiganlar oilasi. Bu — yetimlarni boqib olish hisobiga paydo bo'ladigan, otalikka olish, o'gay ota yoki ona bilan yashaydiganlar oilasidir. Ming afsuski, turli hayotiy vaziyatlar tufayli shunday oila ham bor, ular nisbatan ko'p bo'lmasa-da, O'zbekistonda ham mavjud.

Godvin - nikohlar, uning asoschisi bo'lgan ingliz sotsial-monarxi *U.Godvin* (1756-1836) nomi bilan bog'liq. U bunday oilani ideal deb hisoblagan, chunki bunday oilalar, asosan, ota-onaning xohish-irodasiga ko'ra paydo bo'ladi, yoshlarning istaklari bunda inobatga olinmaydi. Bunday nikohlarda jinsiy

yaqinlik ko'zda tutilmaganligi sababli, o'zaro hurmat va bir tom ostida alohida yashashga mo'ljallangan bo'ladi, er va xotin bir-birlarining oldida faqat ma'naviy jihatdan majburiyatlarga ega xolos. To'g'ri, bir qarashda bunday nikoh bizdagi sovcilik yo'li bilan quriladigan oilaga o'xshab ketadi, lekin bizda zurriyod qoldirish, birga yashash talab etiladi. Shuning uchun yigit va qiz bir-birlarini sevmagan bo'lsalar- da, nikoh o'qilayotganda ularning rizochiliklari so'raladi, javob ijobiy bo'lgach, ular chimildiqqa kiritiladi. *Godvin* tipidagi nikohlar ko'pincha O'zbekistonda keksalar o'rtasida rasmiylashtiriladi. Masalan, kampiridan uning qazosi tufayli juda bo'lgan otaxon o'zaro kelishuv natijasida o'zga bir beva ayolga uylanadi, ular o'rtasidagi munosabatlar o'zaro samimiyat, hurmat, qo'llab-quvvatlov, keksalikni bezashga yo'naltirilgan. Lekin bu oila o'zidan zurriyod qoldirish kabi haqiqiy oilaga xos funktsiyalarning barchasini bajarmaydi. Bunday oila Islom dini arkonlariga ham mos bo'lib, bu ikki keksa odamning bir-birlari umrlarini cho'zishga qaratilgan samimiy munosabatlari majmuidir.

Qo'shxotinlilik ham albternativ nikoh turlaridan biri bo'lib, bunda bir erkak ko'pincha hufyona o'z qonuniy nikohidagi ayoldan tashqari yana boshqasi bilan shar'iy nikohda yashaydi. Qo'shxotinlilik ko'proq Osiyo va Sharq mamlakatlari aholisiga xos deb hisoblansa-da, hozirda bunday oilalar hattoki, Rossiyada ham kuzatilmoqda. Lekin bunday oila turi qonunan man etilgan.

Avestoda oila haqida bayon etilgan fikrlar. Bugungi kunda globallashuv jarayonining ijobiy xususiyatlari bilan birga salbiy xususiyatlarini ham namoyon bo'lmoqdaki, milliylik kundan kunga shaffolashib, milliy tarbiya asoslariga putur yetmoqda. Bu o'z navbatida insoniyat oldiga tarbiya masalasida kechiktirib bo'lmas vazifalarni qo'ymoqda. O'sib kelayotgan yosh avlodni jamiyatning asosiy bo'g'ini, tayanchi hisoblangan oila va nikoh masalasiga ma'suliyatli bo'lishini ta'minlash, milliy tarbiya asoslarida tarbiyalash muhim va dolzarb vazifa

hisoblanadi.

Qadimda ota-bobolarimizning oila va nikohga bo'lgan munosabatni o'rganishda xalqimizning asosiy e'tiqod shakli bo'lib kelgan zardushtiylik dinining muqaddas kitobi Avestoga murojaat qilamiz. Sababi Markaziy Osiyo tarixi, o'tmishi, madaniyati, pedagogikasini o'rganishda eng qadimiy manba Avesto hisoblanadi¹.

Buyuk mutafakkirlar tarixni o'tmish va kelajak o'rtasidagi ko'prik sifatida ta'riflashgani bejiz emas. Sababi insoniyat tarixini o'rganar ekanmiz bugungi kunimizga shukronalik, ertangi kunimizga esa ishonch tuyg'ulari paydo bo'ladi. Zero ota-bobolarimiz bosib bosib o'tgan mashaqqatli hayot tarzi, shonli tariximiz bizga ulkan ibrat maktabi vazifasini o'taydi. Markaziy Osiyo dunyo tamadduniga katta hissa qo'shgan olimu fozillar, qomusiy olimlar, buyuk sarkardalar maskanidir.

Ajdodlarimizning ilm-fanga, insoniyat tamadduniga qo'shgan hissasi har birimizni ularga munosib avlod bo'lishga undashi shubhasiz. Shu o'rinda ming yillar davomida xalqimizning asosiy e'tiqod shakli hisoblangan zardushtiylik dini muqaddas manbasi "Avesto" bizga ko'xna tariximining sir-sinoatini ochib beruvchi qimmatli manbadir.

Ushbu mavzuni tadqiq qilishdan maqsad ming yillar davomida o'z ahamiyatini yo'qotmagan xalq pedagogikasi, oila va nikoh munosabatlarini o'rganish va bugungi kunda uning ahamiyatini tahlil qilishdan iborat.

Zardushtiylik dini muqaddas manbasi Avesto tarixiy, diniy, falsafiy jixatdan ko'plab mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan chuqur o'rganilgan. Bizga ma'lumki zardushtiylikning kelib chiqishi borasida ayrim tarixchilar Eron, Ozarbayjon hududlarini, ayrim tadqiqotchilar esa Markaziy Osiyo hududlarini e'tirof qilishadi. Abu Rayhon Beruniy o'z asarida Zardushning vatani haqida haqida bildirilgan fikrlarni

¹ Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. "Fan" nashriyoti-Toshkent-1998. 236-238 b.

tahlil qiladi va "Rumliklar da'vosicha Zardusht Muvsuldan bo'lgan".

Ehtimol ular Ozarbayjon chegaralarini Muvsulga qo'shib shunday degan bo'lsalar kerak"-deydi. Mutafakkir bu fikrlari orqali Zardushtning vatani Ozarbayjon bo'lishi mumkunligiga shama qilib fikrini uning ilm olish maqsadida otasi bilan Harronga borganligi va hikmatshunos Ilyusga uchraganligi bilan izohlaydi. Beruniy Zardusht Avestoni dastlab podsho Vishtospga berganligini aytadi va Avesto qismlarining yo'q qilinishi haqida "Podshoh ibn Doro hazinasida 12 ming qoramol terisiga tillo bilan bitilgan nusxasi bor edi. Iskandar otashxonalarni kuydirib unga xizmat qiluvchilarni o'ldirgan paytda uni kuydirib yubordi.

Shuning uchun o'sha vaqtlardan beri Abestoning uchdan bir qismi yo'qolib ketdi"-deydi. Shu bilan birga Zardusht yashagan (din tarqalayotgan) davrdagi intsest (to'g'ri tutashgan qarindoshlar nikohi) ni axloqsizlik sifatida baholaydi. Olimning o'zi yashagan davrdan deyarli 1,5 ming yillar oldingi davr borasida bergan ma'lumotlari taxminiy asoslarga tayanishi tabiiy holat. Tabiiyki, din asoslari qayerda paydo bo'lgan bo'lsa o'sha yerda kuchli saqlanib qoladi.

Avesto kitobida ilk muqaddas olov yoqilgan joy aynan qadimgi Xorazm hudidiga to'g'ri kelishi va ushbu hududlarda Zardushtiylik bilan bog'liq marosim va odatlarning kuchli saqlanib qolganligi ushbu dinning Markaziy Osiyoda paydo bo'lganligini asoslaydi. Bu borada rus sharqshunos olim Dyakanov o'z asarlarida Zardushtiylikning vatani sifatida Markaziy Osiyoni ko'rsatadi: "Avesto kitobidagi geografik-tarixiy ma'lumotlar shundan dalolat beradi-ki, Qadimgi Baqtriya va Eronga oid ba'zi geografik nomlar — Avestoga Zardushtiylik dini O'rta Osiyodan chiqib shu o'lkalarga yoyilgan paytlarda kirganligi shubhasizdir. Mahalliy tadqiqotchilardan N.M.Koshanova o'zining "Xalqimiz hayotidagi zardushtiylik

² Аширов А. "Авесто" ва зардуштийларнинг оила турмуш маросимлари ҳақида // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. - 2002. - №1. - Б.50

ta'limoti bilan bog'liq an'analar va marosimlar mavzusidagi maqolasida hozirgi Qoraqalpog'iston respublikasi, Xorazm vohasida islom bilan sinkretik tarzda yashayotgan olov va boshqa unsurlar bilan bog'liq zardushtiylikning an'ana va marosimlariga to'xtalib nikoh marosimidagi irim sirimlar, an'ana va odatlarning mazmun-mohiyatini izohlashga harakat qiladi. Oila qurish yoki yolg'iz yashash tanlovi ixtiyoriy bo'maganligini, oilaning muqaddasligi va avlodlar davomiyligini ta'minlovchi kichik jamiyat sifatida qadrlanganligini ta'kidlaydi.

Zardushtiylik falsafasiga ko'ra yaxshilik va yomonlik insonlarning botiniy -ichki dunyosida yashaydi. Dinda inson esa Axura Mazda ruhidan yaratilganligi tufayli yaxshilik uchun kurashmog'i zarur deyiladi. Lekin bu dunyoning asoslarini yaratilishiga Axriman aralashganligini sababli inson qalbi ham butun dunyo kabi yaxshilik va yomonlik, nafs bilan sabr, hasad bilan sahovat kabi ezgu fazilatlar va qabih xususiyatlar kurashi maydoni ekanligi, shu sababli ham zardushtiylikni qabul qilgan har bir shaxs o'zini behdinon, ya'ni ezgu dindagi inson deb atagan.

Zardushtiylikda axloq falsafasi 3 ta so'z: "Gumantu"-ezgu fikr, "gutka"- ezgu so'z, "Gvarshita" - ezgu amalda mujassamlashgan. Avesto nafaqat tarixiy, diniy manba balki unda yana bugungi kunda o'lmas bo'lib kelayotgan insonlar ongidagi dualistik qarashlar tadqiqi ham yuksak o'rin egallagan. Qadimgi ajdodlarimiz yaxshilik va yomonlik, ilm va jaholat, saxiylik va baxillik, adolat va haqsizlik, go'zallik va xunuklik, savob va gunoh kabilarning o'zaro tafovutlarini anglash, ijobiy tushunchalarning inson hayotidagi o'rni, salbiy tushunchalarning zarari haqida to'xtalib o'tiladi. Bu esa xalqimiz uzoq o'tmishdayoq ma'naviy jihatdan qay darajada yuksak salohiyatga ega bo'lganligini anglatadi.

Avestoshunos olim M.Ishoqov zardushtiylik atamasi dinga nisbatan shartli ravishda qo'llanganligi bu hol dinni uning payg'ambari nomi bilan bog'lash natijasida yuzaga kelganligini

aytadi. Aslida Zardusht dini Mazda Yasna deb atalgan, Mazdaga "Mutlaq oqil" zotga sig'inish demakdir.

Miloddan avvalgi V-IV asrlardagi qadim yunon olimlari asarlarida ilk bor Zardusht nomi tilga olinadi. Dinning muqaddas manbasi borasida birinchi prezidentimiz "Avesto ayni paytda bu qadim o'lkada buyuk davlat, buyuk ma'naviyat, buyuk madaniyat bo'lganidan dalolat beruvchi buyuk hujjatdirki, uni hech kim inkor etolmaydi" -degan edilar.

Birgina Avestoning Videvdat qismi zardushtiylik dinida axloqning naqadar qadrlanganligining isboti sifatida keltirishimiz mumkin. Mazkur qism devlarga qarshi duolardan tarkib topgan bo'lib, oddiygina qilib aytadigan bo'lsak, insonlar orasida nopoklik, yomonlik, adolatsizlik, dangasalik urug'ini yo'qotishga qaratilganligini ko'rishimiz mumkin. "Avesto" gotlarida "Bitta donni undursang mingta devni o'ldirasan" deyilishi sababi birinchidan insonni mehnatsevarlikga chorlasa, ikkinchidan chorvador xalq orasida dehqonchilikning tarqalishini rag'batlantirish maqsadi mavjud bo'lgan deya olamiz. Hozirgi kunda Navro'z bayramlarida tayyorlanadigan sumalak taomini tayyorlash uchun bug'doy donini undiradigan ayollar ushbu jarayonni katta savobli ish sifatida qarashi aynan zardushtiylikdagi ushbu e'tiqod shakli bilan bevosita bog'liq. "Avesto"da oila mustahkamligini saqlash, nikoh tartiblari, er-xotin majburiyati, nikoh tuzish va bekor qilishning qonun-qoidolari ko'rsatib o'tilgan³. Avestoning maxsus boblarida Axura Mazda va Zardushtning yigit qizlarga nikoh masalasidagi murojatlari keltirilgan. Unda oila qurish, jufti halol tanlashda shoshma-shosharlikga yo'l qo'ymaslik, ota-ona, keksalar maslahatiga quloq tutish kabi maslahatlar haqida qimmatli mulohazalar mavjud. Qadimgi turkiy xalqlarda nikoh qat'iy qonun-qoidalar asosida tashkil etilgan. Oilaviy masalalarda yoshlar keksa avlod o'gitlariga quloq solganlar.

Zardo'shtiylik tartib-qoidalariga ko'ra, o'z hayotini oila

³ Boys M History of Zoroastrianism. - Leiden - Koln: E.L., 1982. 23 p

qurmasdan o'tkazish qattiq qoralangan. Qiz bolalar uchun balog'at yoshi 15 yosh hisoblangan. Balog'at yoshidagi qiz ota-ona yoki jamoa ra'yidan yurmay turmushga chiqishni, zurriyot qoldirishni istamasdan umrguzaronlik qilib yursa qopga solinib 25 darra kaltaklangan.

Erkaklar esa, o'n yetti yoshda uylanish huquqiga ega bo'lgan. Agar erkak kishi zurriyod qoldirish qobiliyatiga ega bo'lsa-yu, ammo uylanmasa, unga tamg'a bosilib, badnom qilish maqsadida beliga zanjir bog'lab yurishga majbur etilgan va uyaltirilagan. Islomda oila qurish sunnat hisoblangani kabi Zardushtiylikda ham nasl qoldirish, o'z urug'ini va qavmini ko'paytirish rag'batlantirilagan. "Aveto"da qayd etilishicha, erkak kishi, eng avvalo, uylanish uchun moddiy va ma'naviy tomondan to'q va baquvvat bo'lmog'i lozim, buning uchun o'z vaqtida to'yib ovqatlanishi zarur, aks holda erkak kishi o'z xizmati va axloqiy burchlarini bajara olmaydi.

Agar xalqimiz hayotidagi turli marosimlar, rasm-rusumlar, an'analarning tashkil etilishiga chuqurroq razm solsak, ishontirish, isbotlash, namuna ko'rsatish, ta'sir etish, tasdiqlash kabi pedagogik usullar orqali barkamol insonni tarbiyalash asosiy maqsad qilib olinganligiga ishonch hosil qilamiz.

Zardushtiylikda oila muqaddas sanalgani bois ig'vo, tuhmat, er-xotinning o'zaro kelishmovchiligi, ota-ona bilan murosas-madora qila olmaslik kabi bahonalar bilan nikohning bekor qilinishiga yo'l qo'yilmagan.

Avestoning qimmatliligi shundaki, o'sha davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar, ilk davlatchilik an'analari, turli ijtimoiy tabaqalarning jamiyatda tutgan o'rni, dunyo va insonning nokomilligi, oilaviy turmush tarzi va u bilan bog'liq urfodatlarlarga oid qimmatli ma'lumotlar berilgan. "Avesto" da oila, oila a'zolari va boshlig'ining vazifasi va majburiyatlari, oila-nikoh munosabatlari turli o'rinlarda, har xil munosabatlar bilan maxsus bayon etilgan. Zardushtiylikda ayollar haq-huqulari yuqori darajada e'zozlangan, oila daxlsizligi va mustahkamligiga

erishish, o'taonalarning farzand oldidagi burchi, farzandlarni o'ila qurishga tayyorlash va ko'plab o'ila turmush an'ana va marosimlariga oid fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Zamonaviy zadushthiyalar hayotini o'rganigan tanig'li olimlar M.Boys "Zardusht o'zining davomchilariga o'ziga xos ikkita majburiyatni -kuniga besh mahal ibodat va yetti bayramni nishonlashni yuklagan"-deya ta'kidlaydi. Zardushtiylikda nikoh bir umrga muhrlangan. Ushbu dinda nikohning monogom shakli rag'batlantirilgan bo'lib, ko'pxotinlik yoki vaqtincha nikoh mumkun bo'lmagan. O'ilada xiyonat qattiq qoralangan. Begona erkak bilan qovushgan ayollar badnom qilingan, jazolangan va nikohdagi er uchun harom hisoblanagan.

Zardushtiylikda o'ilaga qadriyat sifatida qaralishi, farzand tarbiyasida ma'suliyatli bo'lish lozimligining qat'iy belgilanishi, nopoklik, yovuzlikning qoralanishi, insondagi insoniy xususiyatlarning ulug'lanishi jamiyat taraqqiyotini ta'minlashda hamda barkamol avlod tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Zardushtiylik dini bilan bog'liq barcha marosim va odatlar zamirida nopoklikga va yovuzlikga qarshi kurash g'oyasi mavjud bo'lib, mehnatsevarlik va bunyodkorlik yuksak darajada ulug'langan hamda rag'batlantirilgan⁴.

Hatto ajdodlarimizning muqaddas dini hisoblangan zardushtiylikda ham nikoh va oilaviy burch masalasi muhim axloqiy o'rinda to'rgan. Zardushtiylikda ko'pxotinlik qat'iy man etilgan. Ayni paytda hayotni bo'ydoq o'tkazish ham qoralangan. Balog'atga yetgan qiz o'ta-ona va jamoaning ra'yini pisanld qilmay, qasddan turmushga chiqmay yursa, u qopga solinib, 25 darra kaltaklanish bilan jazolangan. Agar erkak kishi shu yo'lni tutsa, unga tamg'a bosilib badnom qilish maqsadida beliga zanjir bog'lab yurishga majbur etilgan. "Avesto"da qayd qilinishicha, erkak avvalo uylanish uchun moddiy va ma'naviy tomondan to'q va baquvat bo'lmog'i lozim edi. Bundan tashqari, mazkur

⁴ Враниский И.С. Из истории таджикской народной поэзии.- М., 1956.-С.188-189.

muqaddas kitobda o'ila qurish, jufti halol tanlashda shoshma shosharlikka yo'l qo'ymaslik, o'ta-ona, keksalar maslahatiga qulq solish xususida ham diqqatga sazovor mulohazalar mavjud. Shuningdek, unda nikoh va taloqning (ajrashishning) o'ziga xos mezonlari birma-bir keltirib o'tilgan.

Zardushtiylikning axloq me'yorlari majmuida ayollar masalasiga ham alohida o'rin berilgan. Zardushtiylikda o'ila muqaddas sanaligani uchun boshqa sabablariga ko'ra, jumladan, ig'vo, tuhmat, er-xotinning o'zaro kelishmovchiligiga, o'ta ona bilan chiqishda olmaslik bahonasi bilan nikohni bekor qilinishiga yo'l qo'yilmagan. Umuuman Zardushtiylikda ham, Islomda ham nikohda ikki tomon teng va munosib bo'lishi aytib o'tilgan. Nikoh tartiblari va hayotiy tajribalariga ko'ra, kelin va kuyov nasi nasabda, ijtimoiy mavqeda, bilim-saviyada, did-farosatda, ilm-e'tiqodda, mulkdorlikda bir-birlariga yaqin bo'lishi ma'qul topilgan. Shu bois, Sharq xalqlarida yoshlarni oilaviy turmushga tayyorlash, ularning tengini topib uylantirishga jiddiy e'tibor berilgan. Ayniqsa, qizlarni oilaviy turmushga tayyorlashda, ularning muqaddas ekanligi, uni avaylab-asrash aynan uy bekalarga bog'liqligi haqida ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan nasihatnoma, pandnoma va hikmatnomalarda tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan qimmatli nasihatlar hikoya qilinadi.

Islomda oilaviy munosabatar masalari. Ma'lumki, muqaddas dinimiz islomda, uning asosiy manbalari hisoblangan "Qur'oni Karim" va Hadislarida ham oilaviy turmushning va er-xotin munosabatlarining barcha tomonlari haqida qimmatli ma'lumotlar va shar'iy qonunlar yoritilgan. Islomda bo'lajak oilaning vujudga kelishiga alohida e'tibor berilgan. Shar'iat bo'yicha nikohdan o'tishda quyidagi qoidalariga amal qilish lozim bo'lgan.

1. Nikohlannuvchilarning o'zaro roziligi.
2. Nikoh yoshiga to'lish.
3. Nikohni guvohlar ishtirokida tuzish.

4. Kelin uchun qalin va mahr to'lash.
5. Diniy e'tiqod birligi.
6. Nikohlanuvchilar yaqin qarindosh bo'lmasligi.
7. Tabaqa bo'yicha tenglik.
8. Nikohdan o'tuvchilarning ruhiy jihatdan sog'lom bo'lishi.

Bu shartlarga rioya qilinib tuzilgan nikohgina qonuniy hisoblanib, taraflarni tegishli huquq va majburiyatlar bilan ta'minlagan. Qur'oni Karimning oyatida oiladagi er bilan xotinning o'zni belgilab berilgan. Shariat hukmicha, er avvalo oilaning barcha moliyaviy va ma'naviy taraflariga javobgar, uni chetdan bo'ladigan har qanday xurujlardan himoya qiladigan shaxsdir. Mana shularning evaziga va erkak kishi uchun fazilat hisoblanmish og'ir-bosiqlik, oila ro'zg'or tebratishdagi tadbirkorlik kabi sifatlar mavjudligi sababli u oilaning boshlig'i sanaladi. Yaxshi xotin esa diyonatli, erning uyini obod qiladigan va unga bir umr sadoqatli bo'lgan ayoldir. Qur'oni Karimdan er-xotin yoxud oilaviy munosabatlarga xos ibratli misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Oila borasidagi diniy, ilmiy va falsafiy yondashuvlarni kuzatsak, oila barqarorligida er-xotin munosabatlari asosiy o'rin tutishini ko'ramiz. Masalan, islomda nikoh orqali inson va oilani ulug'lashga, erkak va ayolning huquqlariga, ularning sha'niga va oilada tinchlikni saqlashga katta e'tibor qaratilgan: "Ayollar (uchun belgilangan huquqlar) o'z me'yorida erkaklar (huquqi) bilan tengdir" [2:36].

Burhonuddin Marg'loniyning "Hidoya" asarida yozilishicha, oila va nikoh masalasida ma'rifiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega hukmlardan biri ayolning nikohda qanday haq-huquqlari borligi haqidagi bilimga ega bo'lishidir: «Nikohning asl mohiyati haqida ilm bo'lishi shart. Chunki, qiz bola faqat ilm bo'lgandagina tasarruf eta oladi. Bu dunyo ilm olish dunyosi, bunda johillik uzr bo'lolmaydi» [3:675]. "Hidoya"da oila va nikohga oid hukmlarning ijtimoiy ahamiyatga ega tomoni erkak va ayolning ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy va aqliy jihatdan bir-

biriga teng bo'lishiga e'tibor qaratilganidir: «Nikohda tenglik e'tiborga olinadi. Payg'ambarimiz (S.A.V.) aytganlarki: **"Ogoh bo'lingki, ayollarni faqat o'zlariga teng bo'lgan kishigagina bersinlar"** [3:680].

Islomda er-xotin o'rtasidagi munosabatning davomiyligini ta'minlash uchun o'ziga xos qonun-qoidalar joriy qilingan. Bunda oilaviy hayotning asosiy tashkilotchilari va a'zolari bo'lmish er va xotinning har biriga o'ziga xos burch va vazifalar yuklangan, bir-biriga nisbatan haq-huquqlari ham belgilab berilgan. Bu haqda Qur'onning bir qator suralarida oyatlar keltiriladi: **"Erkaklar xotinlar ustidan** (oila boshlig'i sifatida doimiy) **qoim turuvchilardir. Sababi – Alloh ularning ayrimlari** (erkaklar)**ni ayrimlari** (ayollar)**dan** (ba'zi susiyatlarda) **ortiq qilgani va** (erkaklar o'z oilasiga) **o'z mol-mulkdaridan sarf qilib turishlaridir"** (Niso surasi, 34-oyat) [4:390]; **"Va yaxshilik ila ularning burchlari muqobilida haqlari ham bordir"** (Baqara surasi, 228-oyat) [3:398]. Agar er va xotin bu qoidalarga amal qilsa, bir-biriga nisbatan zimmasidagi burch va mas'uliyatini his qilib sidqidildan ado etsa, bunday oila baxt va saodat qasriga aylanadi. Bunday oilada tug'ilgan farzandlar ham go'zal tarbiya topadi va ulardan jamiyatga foydasi tegadigan insonlar yetishib chiqadi. Islom dini har bir er va xotin uchun o'ziga xos huquqlarni ishlab chiqish bilan birga, ularga muayyan majburiyatlarni ham yuklagan. Bularning ba'zilari er va xotin o'rtasida mushtarak bo'lsa, ba'zilari erga, ba'zilari xotinga tegishlidir.

Xotinning er zimmasidagi haqqi erning o'ziga ham, moliga ham tegishlidir. Xotinning eri zimmasida mahr va nafaqa singari shaxsiy va moliyaviy haqlari bor. Ular quyidagilar:

1. *Xotinning er zimmasidagi haqlaridan birinchisi er tomonidan unga yaxshi va adolatli muomala qilinishidir.* Zero, Alloh taolo O'z Kitobida: **"Ayollar bilan yaxshilik ila turmush kechiring. Agar ularni yoqtirmasangiz, shoyadki, Alloh siz yoqtirmagan narsada ko'plab yaxshiliklarni paydo**

qilsa!”, deya amr etgan (Niso surasi, 19-oyat) [3:402]. Bu amr erning xotinga yaxshi muomalada bo'lishini, tabiatidagi ayrim noqisliklarga sabr qilishini, ba'zi xatolariga ko'z yumishini taqozo etadi. Shuningdek, ayolni tarbiyalash va unga dunyoyu oxiratda foydasi tegadigan narsalarni o'rgatib, ta'lim berishni ham nazarda tutadi. Nabiy sollallohu alayhi vasallamning bir hadislarida: **“Mo'min er mo'mina xotindan nafratlanmasin, agar uning bir xulqini yomon ko'rsa, boshqa xulqi tufayli undan rozi bo'lib ketaveradi”**, deyiladi (Imom Muslim rivoyati). Ya'ni, er xotinining ayrim fe'lidan g'azablansa, oilani buzib yuborishga shoshilmasligi, shu tufayli xotinini yomon ko'rib qolmasligi lozimligi, balki uning yaxshi odatlarini ham ko'z oldiga keltirib, shu bilan ko'nglini to'q qilib yurishi kerak. Shuningdek, er xotiniga xushfe'l bo'lishi, u bilan yaxshi muomala qilishi, birga farovon hayot kechirishi, ozor yetkazmasligi kerak. Bu bilan er Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning hadislariga amal qilgan bo'ladi.

2. *Ayolning eri zimmasidagi ikkinchi haqqi mahrdir.* Bu – ayolni ikrom qilish, unga yaxshilik qilish bobidan. Alloh taolo Qur'oni karimda erylarni ayollarning bu haqqiga rioya qilishga chaqirib: **“Xotinlarga mahrlarini mamnunlik bilan beringiz”** (Niso surasi, 4-oyat), deb amr etgan.

3. *Er xotinning ozorini ko'tarishi, u g'azablanganida va jahli chiqqanida muloyim bo'lishi, uning xatolarini kechirishi kerak.* Bu Rasululloh sollallohu alayhi vasallam sunnatlariga amal qilishdir. Imom Muslim Anas ibn Molik roziyallohu anhudan rivoyat qiladi: “Rasululloh (S.A.V.)dan boshqa oilasiga mehribonroq biror kishini ko'rmadim”.

4. *Erkak ayolining or-nomusini saqlashi kerak.* Oqibati buzuq bo'ladigan har qanday holatga beparvo bo'lmaslik lozim. Ammo yomon o'y, o'ta talabchanlik va gumonda haddan oshish durust emas. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bundan qaytarganlar. Imom Muslim Jobir roziyallohu anhudan bunday rivoyat qiladi: “Rasululloh (S.A.V.) erni oilasini xiyonatda gumon

qilib, uyga kechqurun kelishdan qaytarganlar”.

5. *Er xotinining oziq-ovqat va kiyim-bosh kabi ehtiyojlarini isrof etmay, yetarli ta'minlashi kerak.* Er oilasiga sarflagan xarjlari uchun ajr va savobga erishadi. Imom Buxoriy va Muslimning “Sahih”larida bunday keltirilgan: “Sa'd ibn Abu Vaqqos roziyallohu anhudan rivoyat qilishicha, Payg'ambarimiz (S.A.V.) dedilar: **“Alloh taolo roziligini istab qilgan har qanday xarjing uchun ajr olasan. Hatto xotining og'ziga solgan taoming uchun ham senga ajr bor»**. Shuningdek, bu masalada, ya'ni nafaqa masalasida er o'zining iqtisodiy ahvolidan kelib chiqib ish ko'radi. Alloh taolo Qur'oni karimda bunday marhamat qiladi: **“Boy-badavlat kishi o'z boyligidan** (ya'ni, o'z boyligiga yarashadigan tarzda) **nafaqa bersin. Kimning rizqi tang qilingan** (kambag'al) **bo'lsa, u holda Alloh o'ziga ato etgan narsadan** (o'z holiga yarasha) **nafaqa bersin. Alloh hech bir jonga O'zi unga ato etgan narsadan boshqa narsani yuklamas. Alloh tanglik – kambag'allikdan so'ng yengillik – boylilikni ham paydo qilur”** (Taloq surasi: 7-oyat) [2:559].

6. *Er xotinining iffatini saqlashi lozim.* Xotinini haromdan himoya qilish erga vojibdir.

7. *Er xotinini yaxshi ko'rsa, juda hurmatlashi lozim, yomon ko'rsa, zulm qilmasligi kerak.* Istasa, chidab yashasin yo yaxshilikcha ajrashsin. Ayolni faqat mardlar qadrlaydi, pastlar xo'rlaydi.

Erning ham o'z xotini oldigi shar'iy haq-huquqlari belgilangan. Zero, oilaning davomiyligi er-xotinning bir-biridan roziligi va haqlarini ado etishiga bog'liq. Erning xotin zimmasidagi eng muhim haqlari quyidagilar:

1. *Xotinning er oldidagi eng birinchi burchi yoxud erning o'z ayolidagi eng birinchi haqqi – bu ayol kishining eriga hurmatli va itoatkor bo'lishidir.* Ayol Allohga ma'siyat hisoblanmaydigan barcha ishda eriga itoat qilishi lozim. Ayol kishi oilada o'jar-qaysar bo'lsa, unday oilaning davomiyligi va mustahkamligi haqida gap ham bo'lishi mumkin emas. Ayolning eriga hurmatli

bo'lishi naqadar buyuk fazilat va baxt ekani haqida Nabiyo sollallohu alayhi vasallam bunday marhamat qiladilar: **"Ayol besh vaqt namozini o'qisa, (yilda) bir oy (farz) ro'zasini tutsa, o'z farjini haromdan saqlasa va eriga itoat qilsa, unga "jannatning istagan eshigidan kir!", deyiladi"** (Tabaroniy rivoyati).

2. *Erning ayol ustidagi bu haqqi, ya'ni ayol kishi muboh ishlarda eriga itoat qilishi* doirasiga ayol kishi erining ruxsatisiz nafl ro'za tutmasligi, uning ruxsatisiz nafl haj qilmasligi, unga aytmasdan uydan chiqmasligi, uning roziligisiz uydagi narsalardan birovlariga sadaqa va ehson qilmasligi ham kiradi. Shariatda erga itoat qilish ayol kishiga vojib bo'lishining hikmatlaridan biri shuki, erining o'z ayolidagi haqlari va fazli oilaning boshqa a'zolariga nisbatan buyukdir. Er tufayli ayol oilaning hurmatli bekasiga aylanadi, yomon ko'zlardan va yomonlardan muhofaza qilinadi, himoyalanaadi.

3. *Ayol kishi asosiy vaqtini farzand tarbiyasi bilan o'tkazishi* lozim. Nabiyo sollallohu alayhi vasallam: **"Barchangiz rahbardsiz va barchangiz qo'l ostingizdagilardan so'ralursiz. Amir rahbardir. Er kishi o'z oilasiga rahbardir, ayol kishi erining uyida va uning farzandlariga rahbardir"**, deydilar [4:358].

4. *Xotin erining haqqini hurmat qilishi kerak.* Chunki zimmasidagi erining haqqi kattadir. Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisi sharifda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bunday marhamat qilganlar: **"Ayol kishi uchun eri borida uning iznisiz uyiga begona erkakni kiritishi halol bo'lmaydi"** (Imom Buxoriy, Muslim rivoyat qilgan).

5. *Xotin kishi Alloh taolo bergan nasibaga rozi bo'lishi, eriga injiqlik qilmasligi kerak.* Xotin kishi nochorligi uchun g'azablanmasligi va oh-voh urmasligi lozim. Balki xushnudlik va qanoat libosini kiyib, erining rizq topishdagi mashaqqatlarini qadrlashi, harom kasbga o'tishidan qo'rqib, undan hojatdan ortig'ini talab qilmasligi lozim. Aksincha, erini ham qanoatga

undab, harom yo'llardan ogohlantirishi zarur. Momolarimiz ularini kuzatayotib bunday derdi: **"Harom kasbdan saqlaning! Biz ochlik va qiyinchilikka chidaymiz, ammo do'zax oloviga chiday olmaymiz"**.

Ayol kishi erining tuyg'ularini hurmat qilishi, u yoqtirmaydigan yoki unga ozor beradigan ishlardan yiroq bo'lishi va erining moliyaviy sharoitini hisobga olishi, erining uydan tashqaridagi mas'uliyatini qadrlab, uyga kech kelishidan bezovta bo'lmasligi yoki bu borada eriga bosim o'tkazmasligi lozim. Shuningdek, eri toqat qilolmaydigan darajada pul talab qilmasligi kerak. Ba'zi ayollar nuqul boshqa oilalarda erining xotiniga sarflagan narsalarini misol qilib, eridan xuddi shunday ta'minot talab qiladi. Ayol kishi erini qadrlasa, unga minnatdorlik tuyg'ularini o'zining muomalasi va xatti-harakatlari bilan izhor qilsa, Alloh unday ayoldan rozi bo'ladi.

1. *Xotin erining do'stiga notanishdek bo'lishi* lozim. Eri uyida bo'lmaganida, uning do'sti eshik qoqsa, u bilan so'zlashmasin. Aks holda, bu rashk va janjalga sabab bo'lishi mumkin.

2. *Xotin go'zalligi bilan eriga faxrlanmasligi*, eri xunuk bo'lsa, yomon ko'rmasligi, agar boy bo'lsa, moli bilan g'ururlanmasligi kerak. Erning qarindoshlarini hurmat qilishi va qadrlashi lozim.

3. *Xotin farzandlarini ham hurmat qilishi, ularni urishib, la'natlashdan tiyilishi* lozim. Bu farzand tarbiyasi va ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Er – oila rahbari. Ayol eriga hurmat va itoatda bo'lsa, farzandlar ham otaga itoat qiladigan bo'ladi. Natijada oilada ahillik, muhabbat hukm suradi va u mustahkam bo'ladi. Ayolning eriga itoatsizligi esa oilaning buzilishi va boshqa ko'plab noxushliklarga sabab bo'ladi. Ammo bu ayol kishi xohlasa ham, xohlamasa ham oilada yashashga majbur, uning ajrashishga haqqi yo'q, degani emas. Islomda ayol kishi ham ajrashish huquqiga ega. U buni "xulu" yo'li bilan bajaradi.

“Xulu” “kiyim yechish” ma’nosini bildiradi. Shariatda esa, xotin kishining arz qilish orqali eri bilan ajrashishiga “xulu” deyiladi, ya’ni ayol ajrashmoqchi bo’lsa, qozixonaga ariza berib ajrashish huquqiga ega bo’ladi [5].

2020 yil 6 avgust kuni O’zbekiston Xalqaro islom akademiyasida “Musulmon jamiyatlarida oilaviy munosabatlardagi muammolar: Sabab va yechimlar” [6:121] mavzusida xalqaro mutaxassislar va yurtimizdagi islomshunos olimlar, imom-xatiblar, diniy bilim yurtlari mudirlari va talabalar ishtirokida video-seminar o’tkazildi. Unda islom ilmlari bo’yicha yetuk olim, Tatariston Respublikasidagi Bulg’or islom akademiyasi (Rossiya Federatsiyasi) professori Shayx Abdurazzoq Sa’diy ishtirok etdi va ajrashishlarning yechimi sifatida quyidagi tavsiyalarni sanab o’tdi:

- oila qurishdan avval kuyov yo kelinning mol-davlati, shon-shuhratiga emas, tarbiyasi va axloqiga, ma’naviy go’zalligiga e’tibor qaratish lozim;

- o’zaro kelishmovchiliklar kelib chiqqanda, darrov ajrashmasdan, o’rtani isloh qilish va yarashtirish uchun ikki tomondan vakillar chaqirish;

- iqtisodiy kamchiliklar bo’lganda, boriga qanoat qilish va sabrli bo’lish;

- diniy idora oilaning muqaddasligi, farzand tarbiyasi, taloqning oqibatlari kabi mavzularda juma tezislarini ishlab chiqishi va musulmon ommasiga yetkazishi;

- oilalarda vujudga kelayotgan nohaqlik, zulm va ajrashishlarning oldini olish maqsadida diniy idora tizimida fiqhiy ilmga ega 2-3 kishidan iborat yetuk mutaxassislar hay’atini tuzish va muammolarga o’z vaqtida yechim topish.

Mutafakkirlarining oila haqidagi qarashlari. (Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beniniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf xos Xojib, Alisher Navoiy va boshqa mutafakkirlarning oila va oilaviy munosabatlar xususidagi qarashlari). Sharqning buyuk allomalari va ma’rifatparvarlari hisoblangan Abu Nasr

Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Rizouddin ibn Faxruddin, Ahmad Donish, Abdulla Avloniy, Fitrat va boshqalarning asarlarida Markaziy osiyoda yashab kelayotgan xalqlar, jumladan, o’zbek xalqining oilaviy hayoti, undagi o’zaro munosabatlarning (ayniqsa er-xotin) milliy psixologik xususiyatlari, er-xotinning burch va vazifalari, oilaning turmush tarzi va tarbiyaviy muhiti va boshqalar haqida qimmatli fikrlar mavjud.

Oilaviy turmush va undagi shaxslararo munosabatlar madaniyatiga xos masalalar buyuk muhaddis allomalar Muhammad ibn Ismoil Buxoriy, At-Termiziy ijodlarida hamda tasavvuf falsafasining yirik namoyandalari bo’lmish Ahmad Yassaviy, Baxovuddin Naqshband, Najmiddin Kubro tariqatlarida ham keng yoritilgandir. Sharq mutafakkirlarining ilmiy-madaniy merosini o’rganar ekanmiz, ularda bayon qilingan oilaviy turmush qoidalari, undagi shaxslararo munosabatlar madaniyati, farzand kamoloti, erkak bilan ayol munosabati, insoniy fazilatlarining shakllanishi haqidagi qimmatli fikrlar sharq xalqlari, xususan, o’zbek xalqining og’zaki ijodi, eposining (o’zbek xalq maqollari, ertaklari, dostonlari, afsonalari, rivoyatlari) uzviyligi asosida tarkib topgan ilmiy-madaniy meros ekanligini ko’ramiz. Chunonchi, o’zbek xalqining og’zaki ijodi va eposlarida mardlik, halollik, kamtarlik, ishonch, sevgiga-sadoqat, do’stlik, adolatlilik, mehnatsevarlik, hamfikrlilik, orastalik, go’zallik, oqillik, e’tiqod, hurmat-ehtirom, oila sha’ni va g’ururini himoya qilish, tug’ilgan joyiga muhabbat, ezgulikka intilish, halol va pok yashash ulug’langan. Bu voqelikni biz Alpomish, Kuntug’mish, Go’ro’g’li, Oysuluv, Layli va Majnun, Yusuf va Zulayho kabi qator o’zbek xalq dostonlarining qahramonlari misolida ko’rishimiz mumkin. “Qadimiy eposlarda ayollar bilan erkaklar teng ijtimoiy mavqega ega shaxslar sifatida gavdalanadi, ayollar erlaridan qolishmaydigan jasoratli qilib tasvirlangan”.

Sevib turmush qurish, sevgida vafodorlik, oilaviy totuvlik kabi insoniy xislatlar o'rta Osiyo xalqlari, xususan, o'zbek urug'lari va elatlarining xarakterli xususiyati sifatida saqlanib qolgan.

Xalq og'zaki ijodi va diniy g'oyalar hamda hikmatnomalar og'zaki tarzda avloddan-avlodga ko'chib sayqallashgan holda saqlanib kelgan bo'lsa, xalqimiz orasidan yetishib chiqqan donishmand va allomalar esa ana shunday qimmatli ma'lumotlarni xalq an'analari va qadriyatlariga tayangan holda o'z asarlarida yoritgan holda ilmiy-madaniy meros sifatida kelgusi avlodlar uchun qoldirganlar. Ulardan biri - jahon ilm-fani hazinasiga munosib hissa qo'shgan mutafakkir olim Abu Nasr Forobiydir.

Abu Nasr Forobiy (873-950) jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarini va inson kamoloti bosqichlarini, insonlar yashash jarayonida baxt-saodatga erishuv yo'llarini o'zining mashhur asari "Fozil odamlar shahri"da bayon etadi. Forobiy oqil insonlar haqida gapirib, "Aqlli deb shunday kishilarga aytiladiki, ular fazilatli, o'tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, yomon ishlardan o'zlarini chetga olib yuradilar. Bunday kishilarni oqil deydilar" degan edi. Alloma oqillar bor joyda hech qachon muammolar va kelishmovchiliklar bo'lmasligiga ishora qiladi. Uning g'oyalarida oilaning to'liqligi, unda qaror topgan sog'lom ma'naviy muhitning ahamiyatini aks ettiradigan fikrlar ham mavjud. "Har bir inson o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi. U bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kiritmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi. Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bo'lgan narsalarni yetkazib beradi" yoki "odamlarga nisbatan ularni birlashtiruvchi boshlang'ich asos insoniylikdir. Haqiqiy baxtga erishish maqsadida o'zaro yordam qiluvchi kishilarni birlashtirgan shahar (bizningcha, oila) fazilatli

shahardir, baxtga erishish maqsadida birlashgan kishilar jamoasi (bizningcha, oila jamoasi) fazilatli jamoadir". Forobiy keraksiz urf-odatlardan (hozir ham oilaviy hayotda, er-xotin munosabatlarida uchraydi) voz kechish, baxt saodatga erishish yo'llari haqida gapirib shunday deydi: Rahbarlar (er yoki xotin) "yomon odatlarni o'zida ifodalovchi o'tmishni ham o'zgartirmog'i kerak. Aks holda o'tmishni talablariga rioya etib, uning kayfiyati saqlansa, turmushda hech qanday yengillik, o'zgarish va o'sish ham bo'lmaydi". Yoki "Baxt saodatga erishuv yo'lida nimaiki (bilim, axloq, kasb-hunar) yordam bersa, uni saqlamoq, mustahkamlamoq nimaiki zararli bo'lsa, uni foydali narsaga aylantirishga harakat qilmoq zarur".

Biz tadqiqotlarimizda o'rganadigan muammo nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, Forobiyning inson kamoloti, uning jamiyatdagi, oiladagi o'rni, yoshlarning voyaga yetishiga ta'siri to'g'risidagi fikrlari, insonlar jamoasidagi o'zaro hamjihatlik, yordam haqidagi hikmatlari hozirgi oilaviy turmush masalalarini yechishda, undagi munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yishda farovon turmush kechirish uchun dasturilamal bo'lib xizmat qiladi.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048) o'z ijtimoiy qarashlarini aks ettirgan yaxlit ijtimoiy ta'limot yaratmagan bo'lsa-da, lekin u ijtimoiy masalalar bo'yicha o'zining nuqtai nazarini ko'pgina qomusiy asarlarida izhor etishga yoki ular yuzasidan tanqidiy fikrlar aytishga harakat qilgan. Abu Rayhon Beruniyning muayyan qarashlari oilaviy turmush, oila va nikoh, oilaviy qadriyatlar va uning a'zolari o'rtasidagi munosabatlariga xosdir. Bunday ishoralarni Beruniy hikmatlarida ham uchratamiz. "Yaxshi xulq yaxshilik alomatidir". "Buzuq niyatli va yomon axloqli kishilar o'rta kirib olishi bilan ish to'g'ri bo'lmaydi". "Tenglik hukm so'rgan joyda sotqin, aldanchi ehtiros, g'am-g'ussa bo'lmaydi oilaviy munosabatlarda ana shunday hikmatlarga amal qilishimiz maqsadga muvofiqdir. Beruniy o'rta Osiyo, Qadimgi Yunon va Hind xalqlari hayotini yaxshi bilgani

uchun ular amal qiladigan urf-odatlar, qadriyatlar va milliy madaniyatlarining o'ziga xos tomonlarini taqqoslab tahlil qiladi. Ushbu tahlillar oila-nikoh, oiladagi o'zaro munosabatlarga ham xosdir. Jumladan, u oilalarning "poligamiya" (erkak yoki ayol bir paytning o'zida bittadan ortik er yoki xotinga ega bo'lishiga yo'l qo'yiladigan nikoh shaklini bildiradi) turi haqida ham qimmatli ma'lumotlarni keltiradi. Masalan, Janubiy Hindiston madaniyatida tud erkaklari biologik nuqtai nazardan otalikni o'rnatish bilan qiziqmaganlar. Ularda bolaga otalik rasmini amalga oshirish chog'ida o'qli kamonni homilador ayolga tantanali suratda bergan erkak bolaning otasi hisoblangan. Agar keyinchalik boshqa bir erkak bolaga otalik qilishni xohlab qolsa, bu rasm ayolning navbatdagi homiladorligida takrorlangan. Bu ma'lumotlar izlanuvchilarda ijtimoiy tarixiy taraqqiyot davomida oilaviy turmushning takomillashuvi, oila-nikoh munosabatlarining barqarorlashuvi va monogamiya oila turining kelib chiqishi tarixi haqida ilmiy tasavvurlar shakllanishiga yordam beradi.

Beruniy qarashlarida oilaviy munosabatlar barqarorligining yetakchi omillari oqillik va mehnatsevarlikning ahamiyati haqida ham qimmatli fikrlar mavjud. "Muayyan vazifalarni bajarish zaruriyati inson faoliyatining bir umrga yashash qoidasidir. Insonning qadr-qimmati o'z vazifasini a'lo darajada bajarishidan, shuning uchun ham insonning eng asosiy vazifasi va o'rni mehnat bilan belgilanadi. Zero, inson o'z hohishiga mehnat tufayli erishgan".

Kaykovus qalamiga mansub Qobusnoma asari (1082-1083 yillarda yozilgan) Sharq xalqlari orasida ma'lum va mashhurdir. Qobusnomada qator ibratli va hayotiy pand nasihatlar bilan birgalikda "ishq va uning odatlari zikrida", "xotin olmoq zikrida" ham qimmatli ma'lumotlar berilgan.

"Ey farzand, to kishining ta'bi latif bo'lmaguncha oshiq bo'lmag'usidir, nedinkim ishq beshak ta'bi latiflikdan paydo bo'lur. Har narsaki ta'bi latiflikdan paydo bo'lsa, ul beshak latif

bo'lur". Bu yerda insonning qalbi toza, pok va axloqan yuksak bo'lsa, uning ko'ngli, sifat va fazilatlar ham, hissiy kechinmalari ham sof va chiroyli bo'lishiga ishora qilingan. "Bas, agar oshiq bo'lsang shundoq kishiga bo'lgilki, ul ma'shuqalikka loyiq bo'lsin". Bunda bo'lg'usi er-xotinning nikohigacha davrda bir-birini ko'rib-bilib, sinab ma'shuqaning oqila, orasta, tejamkor, saranjom-sarishta, bola tarbiyasini, uy-ro'zg'or ishlarini o'rniga qo'yadigan kamtarin va eriga sadoqatli bo'lishi nazarda tutiladi. Ey farzand, agar xotin olmoq tilasang, o'z hurmatingni yaxshi saqlagil. Garchi mol aziz bo'lsa ham xotin va farzandingdan darig' tutma. Ammo xotinni pok dil, farzandni farmonbardor va mehribon tutgil bu ish sening qo'lingdadir. Bu o'rinda xotinga xos munosabatda bo'lish erning ixtiyorida ekanligi ogohlantirilgan. Xotin talab qilsang, xotinni molini talab qilmagil, xotin pok nixod (toza tabiat va pok dil) bo'lsin. Kadbonu (uy bekasi va ishchan xotin) eriga do'st bo'lgay. Hayolig', taqvador, tili qisqa, molni yaxshi saqlaguvchi bo'lsin. Debdurlarki, yaxshi xotin erning va umrning rohati bo'lur. Bunda esa bo'lg'usi turmush o'rtog'ini tanlashda erning oldidagi mas'uliyat va latif xotin bo'lishga xos fazilatlar bayon qilingan. Agar sen xotiningga rashklik qilmasang, u senga samimiyat bilan munosabatda bo'lur. U senga ota-onang va farzandlaringdin ham mushfiqroq bo'lur va senga undin do'stroq kishi topilmas. Agar unga g'ayroq (rashk, qizg'anish) ko'rguzsang, senga ming dushman din dushmanroq bo'lur va begona dushman din hazar qilsa bo'lur, lekin undin hazar qilib bo'lmas. Bunda er-xotinning o'zaro munosabatlarini ziddiyatlarning shakllanishiga olib keluvchi sabablar va omillar haqida gap boradi.

Yusuf xos Hojibning mashhur asari "Qutadg'u bilig" (baxt saodatga yo'llovchi bilim)da er yoki xotin tanlashda uning qaysi sifat va fazilatlariga e'tibor berish zarurligi, inson shaxsiga xos sifat va fazilatlarining oilaviy hayotni boshqarishdagi roli, o'rni va ahamiyati, er-xotin o'zaro munosabatlarining me'yorlari, farovon turmush kechirishning muhim shartlari haqida

qimmatli fikrlar aytilganki, ular hozirgi oila turmushi va er-xotin munosabatlari uchun ham ahamiyatlidir. Asarda "Sen xotin olsang, o'zingdan quyisini ol, zoti oliysiga boqma, sen qul bo'lib qolasan". Asli, urug'i hamda zoti yaxshi bo'lsin, uyatli, andishali, pokizasini istagin. Yuzi chiroyini istama, xulqi yaxshisini ista, fe'l-atvori yaxshi bo'lsa, sening yuzingni yoritadi. Fe'lu-atvori yaxshi bo'lsa, u to'kis bo'ladi. Fe'lu-atvori to'g'ri bo'lsa, juda munosib bo'ladi, xotin chiroyi xulqdir, buni bilgan biladi. Agar yaxshi andishali ayol topishga muyassar bo'lsang, boy berma (darhol olgin) ey ezgu kishi andishali, pokiza bo'lsa, unday kishi asl bo'ladi. Sen xotinning andishali-aqlisini ista, ey dono, andishali aqli xotin topilsa - farosat, andisha, boylik, chiroy, nasl-nasab jam bo'ladi. "Sen xotinni qadrlit tut, nima so'rasa muhayyo et". Asarda xotin bilan bir qatorda er ham bilimdon, farosatli, aql-idrokli, zukko bo'lishi, oila tartibini saqlash va uni yuritishda intizomli (intizom o'rnatuvchi), uni kuzatib borishi kerakligi, oilaning iqtisodiy jihatdan to'kisligini ta'minlovchi, xotiniga va farzandlariga mehribon, xushmuomalali, to'g'ri so'z bo'lishi uning farovonligi va barqarorligini ta'minlovchi muhim omillar ekanligi alohida ta'kidlab o'tilgan.

Alisher Navoiy (1441-1501) "Mahbub ul qulub", ya'ni "qalblar sevgilisi" va "Vaqfiya" asarlarida oilaviy turmushi bilan bog'liq er va xotinning vazifalari, burchlari, o'zaro munosabatlari, muloqot madaniyati, ularning muvofiqligi va nomuvofiqligi, uning oqibatlarini haqida qimmatli nasihat va ma'lumotlarni yozib qoldirgan. Jumladan, Alisher Navoiy "Mahbub ul qulub" asarining 37 fasli "uylanganlik va xotinlar to'g'risida" ayolning fazilatlarini va uning oiladagi o'rni haqida quyidagilarni yozadi: "er bilan xotin bir-biriga mos tushsa, o'rtada boylik va saranjomlik bo'lur, uy bezagi undan va uylanganing (erning) tinchligi undan. Husni bo'lsa, ko'ngilga yoqimli bo'lur, yaxshiligi bo'lsa, jon ozig'idir. Aqli bo'lsa, turmush intizomli va ro'zg'or kerak yarog'i tartibli va saranjomli bo'ladi. Ana shunday turmush o'rtog'i bo'lsa - g'am kulfatda sirdosh va hamdaming

bo'lur, maxfiy va yashirin dard va mashaqqatda hamnafas va hamrohing bo'lur. Turmushdan har jaf o'yetsa, hasratdoshing ul va osmondan har bir balo kelsa, ko'makdoshing ul. Ko'ngling g'amidan ul g'am chekadi. Nosoz juft uy uchun ham ochiq va ham yashirin qo'rqinchli kasallikdir. Uyatsiz bo'lsa, ko'ngil undan ozorlanadi, yaramas bo'lsa, ruh undan azob tortadi. Tili yomon bo'lsa kuyovning ko'ngli yaralanadi, yomon ishlik bo'lsa, erga yuz qarolik keladi. Mayxo'r bo'lsa, uy obodonligi yo'qoladi va buzuvchi bo'lsa uy ichi rasvogarlikka aylanadi".

Alisher Navoiy mazkur asarida (11 qismida) har bir kishi uchun zarur bo'lgan yaxshi fe'llar va yomon xislatlar to'g'risida qanoat, sabr, tavozu' va odob, ishq, vafo, hayo, yumshoq ko'ngillilik va bir qator yomon illatlar to'g'risida qimmatli maslahatlar beradi. Alisher Navoiyning fikrlarini psixologik nuqtai nazardan tahlil qiladigan bo'lsak, o'sha zamonlarda ham, hozir ham yigit va qizlarning o'zlariga har tomonlama mos turmush o'rtoq tanlashi, ularda zarur sifat va fazilatlar mujassamligi oilaning baxti va farovonligidir. Bir-biriga nomunosib er yoki xotin oilaning tanazzulidir.

Husayn Voiz Koshifiy (1440-1505) o'zining hayotdan olgan saboqlari, tajribalari asosida insonparvarlik, ijtimoiy hayot, oilaviy odob, adolat, halollik, sofdillik, to'g'rilik, rostgo'ylik haqidagi fikrlarini qiziqarli hikoyalar, rivoyatlar, pandu-nasihatlar yordamida bayon etgan. U salbiy axloqiy xislatlarni qoralaydi va ularning inson hayoti va jamiyat uchun katta zarar olib kelishini qator ibratli rivoyatlar bilan ko'rsatadi. Koshifiy jamiyatda, odamlar o'rtasida va oiladagi o'zaro munosabatlarda axloq me'yorlari bo'lib, bu me'yorlar insonlarning xulq, fe'l-atvorlarini tartibga solib turadigan axloqiy talablardir, deb baholaydi. U ijobiy xislatlarning kishilarda bo'lishi shart bo'lgan insoniy fazilat deb tushunadi. Insoniy fazilatlar; sabr, hayo, iffat, pokizalik, sobitqadamlik, saxiylik, rostgo'ylik, shijoat, kamtarlik, xushyorlik, oliyhimmatlilik, diyonatlilik, ahdiga vafolilik, andishalilik, izzat-hurmatni bilish, sir yashira

olish kabi fazilatlarni birma-bir ta'riflab, ularning ahamiyati va oqibatlarini aytib o'tadi. O'z davrining yetuk ulamosi Rizouddin ibn Faxruddin er-xotin munosabatlarining sofliги naqadar muhim ahamiyat kasb etishini e'tirof etgan holda bu masalaga shunday yondashadi.

"Go'zal muomalali bo'lmoq islom shariatining birinchi qoidalaridandir. Go'zal muomalaning eng lozim qismi xotin bilan bo'lajak muomaladir. Qur'oni Karim xotinlar bilan go'zal mushoirat etishga buyo'rgandir. Bunday muomala etuvchi urning dunyosi tuzuk, oxirati rohat bo'lur. Xotinga go'zal muomala qiluvchi oliy tabiatli erlar shariatu aql tarafidan man etilgan narsalarga xotinlarini yo'llamaydilar va eng aziz bolasiga bo'lgan mehru-shafqati darajasida oqibat ko'rsatib, xotinlarini barcha mashaqqatdan saqlaydilar, qurbilari yetmagan xizmatga buyurmaydilar".

Oilaviy hayot va undagi munosabatlar bobida **Ahmad Donishning** qarashlari alohida e'tiborga loyiqdir. U o'zining "Nodir voqealar" asarida oilaviy hayotning turli jabhalari nikoh odoblari, uylanish shartlari, ishq-muhabbat va sevishganlarning odobi, qaynona-kelin nizolari, farzandlarga vasiyat, kasb-hunarlarining foydasi haqida qimmatli fikrlarni bayon etgan. Uning fikricha, har bir inson muayyan yoshga yetgandan keyingina unda uylanish va oila qurishga zarurat hosil bo'ladi. Bu davrga kelib inson oila nikoh munosabatlari, oilaviy hayot quvonchlari va tashvishlaridan boxabar, oilaviy baxt, farzand tarbiyasi, er-xotinlik va ota-onalik burchlarini tushunib yetgandirlar.

Ahmad Donish uylanish shartlariga o'sha davr uchun xos bo'lgan xislatli turmush quruvchilarning biron-bir kasb sohibi ekanligini, uy-joy sohibi bo'lishini, oila va oilaviy hayot masalalarini egallab olganliklarini nazarda tutadi. O'sha davrga xos uylanish shartlari (qiz tomonidan qo'yilgan) yangi oilaning farovonligi, to'kisligini ta'minlaydigan omillardan hisoblangan. Ahmad Donish o'sha davrdagi uylanishning maqsadi va motivi

o'ziga xosligi, shunga qaramay, xotinlarning ham erkaklarday izzat nafi borligi, ular o'zlarini erkaklardan kam tutmasligi, shuning uchun ularning haq-huquqlarini himoya qilish zarurligini aytib o'tadi. Ahmad Donishning qarashlarida ham oilaning baxti, oila farovonligi uning mustahkam va barqarorligi xotinga, uning axloqiy va ma'naviy kamolotiga bog'liqdir.

XX asr Turkiston jadidchiligining ulkan namoyandalaridan biri Abdurauf Fitrat "Oila" nomli asarida farzandlar tarbiyasi, qizlar ham ilm olish kerakligi va bu sohada ota-onaning vazifalari, uylanish va uylanmaslik, uylanishda qanday xotin tanlash lozim, bo'lajak er-xotin birinchi marta nimalarga e'tibor berishi lozimligi, er-xotinning qanday yashamoqlari xususida oilaning maishati va idorasi, er xotinga xos sifat va fazilatlar to'g'risida hayotiy ma'lumotlarga tayanib ilg'or g'oyalarni ilgari suradi. U "millat taqdiri mana shu millat vakillari yashagan oilaning holatiga bog'liqdir, qaerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va tartibli bo'ladi", deb yozadi (10; 8).

Fitrat mazkur asarining uylanishda qanday xotin tanlash lozim mavzusida "er xotin mushkulotdan iborat bo'lgan hayot safarida birga bo'lib, jismoniy va ruhiy osoyishtalikka sherik, insoniy vazifalarni bajarishda dastyor, qayg'u va umidsizlik damlarida g'amxo'r, saodat va baxtiyorlik chog'lari bir-birlariga hamdam bo'lishlari lozim. Shunday ekan, ular albatta, eng avvalo, bir-birlarini kamoli diqqat va tajriba yuzasidan imtihon qilishlari zarur. Xotin erkak holidan va yigit qiz ahvolidan yaxshigina xabardor bo'lib, keyin turmush qurishlari lozim" deb ogohlantiradi. Fitratning fikricha, uylanish uchun yana to'rt narsaga alohida e'tibor berish lozim: mol, nasab, husn va imonu-e'tiqod. "Uylanish orzusida bo'lgan er bilan xotinning mol (boylik)lari va nasablari taqriban bir xil bo'lishi lozim. Aks holda er bilan xotin bir-birlariga teng bo'lmay, hayotini mudom azobga qo'yadi".

Sharq mutafakkirlarining ma'naviy merosidan bunday

misollarni adoqsiz davom ettirish mumkin. Ko'rinib turibdiki, oila barqarorligiga shaxslararo munosabatlar ta'siri masalasiga Sharq mutafakkirlari va ma'rifatparvar ziyolilari alohida e'tibor bilan qaraganlar. Ularning asarlarida oilaning muqaddasligi, uning jamiyat hayotida tutgan o'rni, oila muqaddasligini belgilovchi muhim milliy-madaniy va milliy-psixologik omillar ko'rsatib o'tilgan. Ayniqsa, oilaning asosini tashkil etuvchi er va xotinga xos sifat va fazilatlarining shakllangan bo'lishi, ular oilaviy burch va vazifalarini sadoqat bilan ado etishlari, bir-biriga mehribon va kechirimlilik eng muhim qadriyat sifatida e'zozlanadi.

Yusuf Toslaviyning "Xikmatlar xazinasini" dagi nasihatlari. Jumladan, turk olimi Yusuf Toslaviy to'plagan "Hikmatlar xazinasini" dagi kelin bo'luvchi qizga beriladigan ona nasihati kishining e'tiborini o'ziga tortadi. Unda ona turmushga chiqayotgan qiziga quyidagilarni nasihat qiladi: "Bolajonim, sevikli qizim, meni yaxshilab tingla. Nasihat har kimga lozimdir, o'git hammaga zarurdir. Nasihat bilmaganga o'rgatadi, bilganni esiga soladi. Oллоh bergan qonunga ko'ra, hayotga qadam qo'yadigan har bir qiz erga, har bir erkak ayolga muhtoj bo'ladi. Erkaklar ayol uchun, ayollar erkak uchun yaratilgandir. Hayot mavjud ekan, bu qonunni hech kim buza olmaydi". Shu sababli sen tug'ilib o'sgan va voyaga yetgan uyingdan, yayrab-yashnab, o'ynab-kulib yo'rgan yeringdan chiqib, o'zing bilmaydigan, notanish uyga borasan. Kelajakda bu uy senikidir. Sen eringga shunday xizmat qilki, ul ham senga qul bo'lsin. Sen unga yer bo'lki, u senga osmon bo'lsin! Aytganlarimga amal qilsang ering bilan go'zal hayot kechirasizlar, mas'ud, baxtiyor va saodatli turmush ko'rasizlar. Bizlar ham (har ikki oila bizning ham, eringning ham oilasi) huzur-halovatda va baxtiyor bo'lamiz. Aks holda ikki oilada ham huzur-halovat bo'lmaydi. Sen o'zing bir jahannamda yashagandek bo'lasan.

Qizim! Endi senga aytadigan o'n o'gitimga quloq sol! Bularni doimo yodingda tut;

1. Qanoat sohibasi bo'l. O'z xolingga shukur qil. Ya'ni, ering uyga nimaiki olib kelsa, u xoh yeydigan, xoh kiyadigan narsa bo'lsin, xushfe'llik bilan, go'zal odob bilan qabul qilib ol! Eringga tashakkur aytib, xushnudlik ko'rsat. Zero, baxtli hayot kechirmoqning bir yo'li o'z holiga shukur etmoqlikdir, holiga shukur etmagan o'z nafsini tiymagan kishida ko'ngil huzuri, qalb rohati bo'lmaydi.

2. Eringga itoat qil, qil degan ishlarini qil, qilma deganini qilma! Ya'ni, ering bilan suhbatlashganda, muloqotda bo'lganingda itoatli bo'lishingni, uning so'zlarini odob bilan tinglab ado etishingni sening so'zlashib, quloq solishingdan tushunib oladigan bo'lsin. Shunda Alloh Taolo sendan xushnud va uyingiz saodat nuridan porloq bo'ladi.

3. Eringning ko'zi tushadigan joylarga yaxshi e'tibor ber!. Ya'ni, uyingning ichini, tashqarisini nihoyatda toza tut, shunday qilki, eringning ko'ziga bir chirkin yer ko'rinmasin.

4. Ust-boshingni toza tut. Ering faqat xushbo'yni sezs, dimog'iga yomon hid kelmasin. Chunki yomon hidlar ering ko'z o'ngida sening obro'yingni tushiradi. Sendan irkanishga sabab bo'ladi. Shuni yaxshi bilgilki, tozalik va zariflik eng yaxshi narsalardir, inson ko'ziga xush ko'rinishlik shular bilandir.

5. Ovqatni vaqtida tayyorla. Ya'ni ovqatlanish vaqtini hech qachon kechiktirma. Ering qachon ovqatlanishga o'rgangan bo'lsa, o'sha paytda ovqatini tayyorlagin. U kelishi bilan darhol dasturxon sol. Shuni yaxshi bilginki, ochlik insonning tez jahlini keltiradi.

6. Uyqu vaqtini, uyg'onish paytini yaxshi bilib ol! Ya'ni, uning qachon uyquga yotish payti bo'lsa, o'rnini tayyorlab qo'y. Zero, uyqusizlik insonni xafaqon etadi. Asablarning buzilishi, xafaqonlik odamlarning ehtirosi, muhabbatini sekin-sekin so'ndiradi.

7. Eringni moli va ashyosiga juda e'tiborli bo'l! Ya'ni, eringning mol dunyosini yaxshi saqla, ashyolarini avayla, muhofaza qilgil. Chunki uning mol-dunyosi senikidir. Eringni

mol dunyosini isrof etmaslik ish bilish va qadriga yetish demakdir.

8. Eringni qarindosh va yaqinlariga hurmat ko'rsat! Ya'ni, eringni qarindoshlari va yaqinlariga hurmat - uning e'tiborini qozonmoq demakdir. Ularni hurmat qilish - eringni hurmat qilish demakdir. Bu esa qadr va e'tibor qozonishdir.

9. Eringning sirini boshqalarga aytma! Ya'ni, eringning ba'zi sirilarini bilgan vaqtingda ehtiyot bo'lib, uni saqla, bировlarga aytib yurma. Agar aytib qo'ysang, uning g'azabini keltirib qo'yasan, ishonchini yo'qotasan. Bunda tuzayotgan oilangiz buziladi.

10. Eringni diniga to'g'ri keladigan barcha buyruqlarini ado qil! Hech qachon unga nisbatan itoatsiz bir harakat bo'lmasin. Agar bir shunday harakat bo'lsa, senga kin saqlab, oxiri dushman bo'ladi. U senga dushmanlik yo'lini tutsa, sen ko'p zarar ko'rasan va qo'lingdan hech narsa kelmaydi.

Ibn Sinoning oilaviy munosabatlar haqida qarashlari.

Abu Ali Ibn Sinoning (980-1037) "Donishnoma", "Risolai ishq", "Tib qonunlari", "Uy xo'jaligi" kabi qator asarlari Markaziy Osiyo xalqlari axloq-odobi, tarbiya psixologiyasi, falsafa va tabobat olamida alohida o'rin tutadi. Ibn Sino oilaviy munosabatlarning turli va muhim tomonlarini yoritib ekan, avvalo oila boshlig'i eringning oldidagi mas'uliyatli vazifalarga e'tiborini qaratadi. Uning fikricha, birinchi navbatda er oiladagi tarbiyaviy ishlarga doir ham nazariy, ham amaliy ma'lumotlarga ega bo'lishi shart. Shundagina, u haqiqiy oila boshlig'i bo'la oladi.

Er-xotin munosabati tenglik hamjihatlik va o'zaro hurmat asosida qurilishi haqida to'xtalib, "Erkak kishi oila boshlig'idir, u oilaning barcha ehtiyojlarini qondirmog'i lozim, chunki bu uning birlamchi vazifasidir. Ayol esa erkakni yaxshi, munosib yo'ldoshi va bola tarbiyasi borasida eng yaxshi voris va yordamchisidir" deb yozadi Ibn Sino. Ibn Sino oilaviy munosabatlar maromi

oiladagi tinch totuvlik, mehr-muruvvat, oila g'ururi va sha'ni ko'p jihatdan ayollarga ham bog'liq ekanligi haqida ko'p yozgan. Jumladan, "Oila xo'jaligi" asarida ayollar axloqan eng maqbul, yuqori insoniy fazilatlariga ega bo'lmoqlari lozim, deb yozadi. Mazkur asarning "Ayollarning yaxshi fazilatlarini haqida" nomli bo'limida ularning quyidagi fazilatlarini bayon qilinadi; ayol aqlan dono, uyatchan, iboli, iffatli bo'lib, ko'p gapirmasligi lozim; u eriga bo'ysunmog'i, uni sevmog'i, farzandlar tug'ib, doimo halol, pok, to'g'ri so'z, kamtar bo'lishi kerak; injiq bo'lmasligi, o'z iffat va obro'sini to'kmasligi lozim; u hech qachon eriga nisbatan dimog'dorlik, viqor hissini ko'rsatmasligi, o'z ishlarini yaxshi, o'z vaqtida bajarib, oilaning moddiy boyliklarini tejamkorlik bilan ishlatmog'i lozim; o'z xulq-atvori bilan o'z erining qalbida hadiksirash hissiga o'rin qoldirmasligi kerak ("Ibn Sino va tadbiri manzil"). Mufakkir olimning sog'liqni saqlashga doir risolalarida jinsiy aloqalarning me'yorlari, unga qat'iy amal qilish, jinsiy aloqalarda o'zgarishning sabablari, ularni yo'lga qo'yish tadbirlari haqida ham qimmatli ko'rsatmalar berilgan. Uning fikricha, er-xotin ularni yodda tutishi va unga amal qilishi oilaviy munosabatlar barqarorligiga ijobiy ta'sir etadi. Shuningdek, Ibn Sino "Kitob ush-shifo" asarida oila inqirozi va buzilishiga sabab bo'ladigan omillarni ham ko'rsatib o'tgan.

Bularga:

1. Agarda er va xotinlikdan dunyoga farzand kelmagan bo'lsa.

2. Agarda xotin eriga hiyonat qilib, uning e'tiborini pasaytirsa.

3. Xotin kishi tarbiyasiz bo'lsa-yu, tarbiya olishni istamasa.

4. Er va xotin bir-birlariga yoqmaydigan xarakterli bo'lsa.

Ko'rinib turibdiki, Ibn Sino asarlarida oila-nikoh va oilaviy turmushda er-xotin munosabatlarini ibratli misollar asosida yoritgan hamda ayollar mavqei undagi munosabatlarda muhim o'rin tutishini asoslab bergan.

Nazorat savollari:

1. Beruniy, Farobiy, Yusuf Xos Xojib oila xususida qanday fikrlarni bildirishgan?
2. Ibn Sinoning oilaviy munosabatlar haqida qarashlari ayting
3. Alisher Navoiyning oila haqidagi qarashlarini psixologik tahlil qiling/
4. Kaykovusning oila haqidagi fikrlarini aytib bering.

OILANING IJTIMOIIY VAZIFALARI, OILAVIIY ROLLAR

1. Oilaning ijtimoiy vazifalari va ularning o'zaro bog'liqligi. Oila vazifalarining o'ziga xos xususiyatlari.
2. Oila vazifalari klassifikatsiyasi.
3. Oilaning iqtisodiy vazifalari.
4. Oilaning xo'jalik ishlarini olib borishda, byudjet yuritishda, iste'molchilik faoliyatini tashkil etishdagi ishtiroki.
5. Oilaning tarbiyaviy vazifalari.

Oilaning ijtimoiy vazifalari va ularning o'zaro bog'liqligi. Oila vazifalarining o'ziga xos xususiyatlari.

Har bir oila ijtimoiy tizim struktura sifatida jamiyat oldida ma'lum bir vazifalarni bajaradi. Oilaning ijtimoiy vazifalari haqida gapirganda, bir tomondan jamiyatning oilaga ta'sirini, ikkinchi tomondan esa umumiy ijtimoiy tizimda oilaning o'rnini, oilaning hal qiladigan ijtimoiy (jamoatchilik) vazifalarini hisobga olish lozim.

Barcha oldingi jamiyatlarda oila quyidagi asosiy vazifalarni bajargan: iqtisodiy, reproduktiv, tarbiyaviy, rekreativ, kommunikativ, regulativ (boshqaruv).

Bu haqda sharq allomalari Yusuf Xos Hojib, Ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy, Ahmad Donish va boshqalar o'z asarlarida yozib qoldirganlar.

Albatta, bu sanab o'tilganlar hozirgi zamon oilasini asosiy vazifalarining yagona klassifikatsiyasini tashkil eta olmaydi. Chunki ayrim manbalarda: naslni davom ettirish, tarbiyaviy, xo'jalik va o'zaro yordam kabi vazifalar hozirgi zamon oilasining muhim vazifalari sifatida ko'rsatib o'tilgan, sotsiolog olimlar (U.M.Sverdlov, V.A.Ryasensov, V.P.Klyuchnikov) esa inson zotini davom ettirish, bolalarni tarbiyalash va xo'jalik vazifalarini farqlaydi; S.D.Laptenok xo'jalik-maishiy, aholi sonini qayta tiklash, tarbiyaviy va oila a'zolari dam olishi - hordig'ini tashkil etish; N.G.Yurkevich - ma'naviy muloqot, seksual, bolalarni

dunyoga keltirish, tarbiya jarayonidagi hamkorlik, uy xo'jaligini yuritish uchun zarur vositalarni ta'minlash, dam olishni tashkil qilish, o'zaro moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash; A.G.Xarchev - aholi sonini qayta tiklash, ijtimoiylashuv, xo'jalik, iste'mol va dam olishni tashkil qilish kabilarni farqlaydi. Mana yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, qator oilashunos mutaxassislar tomonidan oilaning asosiy vazifalari turlicha klassifikatsiya qilinmokda. Bu o'rinda oila vazifalarini shunchaki sanab o'tish emas, balki ularni bir tomondan odamlarning moddiy, xo'jalik-maishiy va ikkinchi tomondan emotsional va ijtimoiy-psixologik ehtiyojlarini qondiruvchi vazifalarga farqlash muhim.

Shuni ham aytib o'tish joizki, hozirgi zamon oilasida emotsional va ijtimoiy-psixologik jarayonlarni qondirish vazifasining ahamiyati ortib bormoqda. Hatto sof moddiy xarakterga ega bo'lgan vazifalarda ham hissiylik ko'prok tus olib bormoqda. Hissiy, emotsional kontaktlarning ahamiyati shahar oilalarida kuchliroq anglanmoqda. Qishloq oilalari esa uy hayvonlari va tomorqa yerlarining borligi evaziga shahar oilalariga qaraganda jamiyatning ishlab chiqaruvchi bo'g'iniligini, ishlab chiqaruvchilik vazifasini ko'proq saqlab qolmoqda.

Ijtimoiy tarbiyaning asl ma'nosi ham, vazifasi ham boladagi ijtimoiy faollikni oshirish orqali, undagi ijobiy fazilatlarni kamol toptirishdir. Odatda oilada ijtimoiy faollikni oshirish bola irodasini chiniqtirish orqali amalga oshiriladi. Chunki ko'pincha ota-onalar bolalarining aqlli, farosatli bo'lib yetishlariga e'tibor berib, uning ruhiyatini hamda jismoniy quvvatini oshirishga, irodasini mustahkamlashga bee'tibor qoladilar. Buning oqibatida bola turmush so'qmoqlarida tez qoqiladigan, turli ijtimoiy vaziyatlarda qiyinchiliklarni yenga olmaydigan, ruhiyati mo'rt bo'lib katta bo'ladi. Shuning uchun ham oilaviy ijtimoiylashuvda bolaning ijtimoiy bilimdonligi, ijtimoiy ko'nikmalar va ularni oshirishga qaratilgan chora-

tadbirlarga alohida urg'u beriladi.

Mutaxassislar oilaviy sotsializatsiyaning bosqichlari, funktsiyalarini tafovvtlash bilan birgalikda uning har birida o'ziga xos ijtimoiylashuv usullari ustivor bo'lishini ham ta'kidlaydilar. Masalan, rus sotsiologi *N.Andreenkova*⁵ ijtimoiylashuv jarayonini ikki katta bosqichda tasavvur qiladi. Uning **birinchi bosqichi** - individning ijtimoiy mavjudot sifatida shakllanishini ta'minlovchi hayot bo'lagini o'z ichiga olib, u inson hayotining qarib uchdan bir qismini tashkil etadi. Bu davrda asosan bolaning:

- *dastlabki ilk sotsializatsiyasi (bolalik davri);*
- *normativ xulqning marginal jihatlarini o'zlashtirish davri (o'smirlik davriga to'g'ri keladi);*
- *o'spirinlikdan balog'atyoshiga o'tish davrini o'z ichiga olgan ijtimoiylashuv oqibatlarixlit namoyon bo'ladigan bosqich.*

Ikkinchi bosqich - shakllanib bo'lgan shaxsning jamiyatda faoliyat yuritishi davrlarini o'z ichiga olgan hayot bosqichi. Bunda shaxs dastlab mehnatga yaroqli jamiyat a'zosi sifatida, so'ngra naqaqa yoshiga yetgan inson sifaidida o'z o'rniga ega bo'ladi.

Ijtimoiylashuvning dastlabki yillarida uning samaradorligi ko'proq yuqorida ta'kidlaganimizdek, oila, undagi ijtimoiy-psixologik muhit va ota-onaning tarbiyachilik burchini qanday ado etganligiga bog'liq bo'lsa, uning keyingi bosqichlarida ta'lim muassasalari va mehnat jamoalarining roli ortib boradi. Shunga mos ravishda ijtimoiylashuv usullari ham turlicha bo'ladi.

Ko'plab olimlar va oila masalalari bo'yicha mutaxassislarni xavotirga solgan jihat shuki, zamonaviy oila o'zining bola shaxsini ijtimoiylashtiruvchi vazifasini yaxshi va to'liq ado etmayapti. *A.Antonov*ning ta'kidlashicha, zamonaviy oila oilaviy turmush tarzini shakllantira olmayotganligi sababli ham o'zining

⁵ *Андреевкова Н. Роль семьи на разных этапах социализации индивида // Динамика изменения положения женщины и семья. - М.: 1972. - С.4.*

bola tarbiyasi borasidagi ijtimoiy bilimdonligini namoyon eta olmayapti.⁶ Bundan tashqari, G'arb mamlakatlarida o'tkazilgan tadqiqotlarda aksariyat ayollarda onalik ustanovkalarining yo'qligi, bola tarbiyalash xohishining yo'qligi, qo'ydi- chiqdining bemalol amalga oshirilishi, rasman FXDYo bo'limlarini nikohni qayd etmay yashash (fuqarolik nikohi), ajrimlardan keyingi erkak va ayolning o'zaro yomon munosabatlari bolalarning ijtimoiylashuviga nihoyatda salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday er-xotinlarning farzandlari bir tomondan umuman oila institutiga va nikohga nisbatan salbiy qarashlarga ega bo'lib, voyaga yetsalar, ikkinchi tomondan, ularning xarakterida asosan xudbinlik, egoizm, agressivlik kabi salbiy sifatlar egasi sifatida shakllanmoqda. Demak, jamiyatda o'z davriga munosib, sog'lom fikrlovchi yoshlarni tarbiyalab, voyaga yetkazishning muhim omili bu rasmiy nikohda bo'lgan er-xotinlar oilasining bahamjihatlikda yashashlaridir.

Oila vazifalari klassifikatsiyasi. Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida hozirgi zamon oilasining asosiy vazifalari qatorida quyidagilarni sanab o'tish mumkin: iqtisodiy, reproduktiv, tarbiyaviy, rekreativ, kommunikativ, regulativ (boshqaruv), feliotsitologik kabilar. Oila psixologiyasiga oid ilmiy adabiyotlarda oilaning quyidagi **funktsiyalari** - jamiyat oldidagi vazifalari farqlanadi:

OILA VAZIFALARI

- Iqtisodiy
- Reproductiv
- Tarbiyaviy
- Rekreativ
- Kommunikativ
- Regulativ (boshqaruv)
- Feliotsitologik.

Oilaning **hissiy-emotsional** funktsiyasi - bu uning o'z a'zolari o'rtasida muayyan iliq munosabatlarni saqlash, ular

⁶ Социология семьи / Под ред. А.И. Антонова. - М.: 2005. - С. 235.

o'rtasida mehr-oqibat, o'zaro g'amxo'rlik, bir-birini qo'llab-quvvatlash, sevishtirish, sevilish kabi qobiliyatini namoyon etishidir. Bu oila uchun juda muhim bo'lib, insonning ruhiy salomatligi aynan shu vazifani qanday bajarayotganligiga bog'liqdir. Oilaning ma'naviy- psixologik muhiti sog'lom deganda, aslida ana shu a'zolar o'rtasidagi ilqlik, samimiyat, o'zaro bag'rikenglikning mavjudligi, mehr-oqibat kabi insoniy hissiyotlarning ijobiyligi tushuniladi.

Jismoniy quvvatni ta'minlash funktsiyasi - oila a'zolarining jismonan sog', tetik va o'zini yaxshi his qilishlarini ta'minlashga bog'liq bo'lgan sharoitlarni nazarda tutadi, masalan, har birimiz oilada boshpanamizga egamiz, bundan tashqari, mana shu o'z hududimizda, ya'ni, xonadonimizda dam olish, yaxshi sifatli, to'yimli taomlardan bahramand bo'lish, ijod qilish va o' qishimiz uchun zarur, qulay imkoniyatlarga ega bo'lishimiz shart. Zero, agar shulardan birortasi ta'minlanmagan bo'lsa, bunday oila o'zini baxtli deb hisoblay olmaydi va qator noqulayliklarni his qiladi. Masalan, uysiz, boshpanasiz qolgan odamlarning nafaqat ruhiy, balki jismoniy azoblarga duchor bo'lganliklarini tasdiqlovchi psixologik tadqiqotlar mavjud.

Ma'naviy muloqotni ta'minlash funktsiyasi - odamning o'z nasl-nasabi, ma'naviy-madaniy an'analari bo'lishiga intilishidan kelib chiqadi, har bir shaxs o'zini kimning avlodi, qanday an'analarning vorisi ekanligidan cheksiz faxrlanadi, u qanday oila bo'lishidan qat'iy nazar, albatta, o'z a'zolarini muayyan yaxshi urf- odatlar, muomala maromlari doirasida birlashtirishga qodir bo'lgandagina mustahkam va baxtiyor bo'ladi. Yangi tug'ilgan farzand teta-poya qilib yura boshlagan onlardan oq oilaning kattalari uni erkalatishlar orqali shirin muomalaga o'rgatadi, kattalarga xurmat, kichiklarga g'amxo'rlik, izzat tushunchalari xam oilada tarbiyalanadi. Shu funktsiyani ado eta olmagan oilada hamisha ko'ngilxiraliklar, janjal, ziddiyatlar bo'lishi ehtimoli kattadir.

Jinsiy-hirsiy muloqot funktsiyasi - er va xotin o'rtasidagi

ikkalasigagina taalluqli bo'lgan seksual ehtiyojlarni qondirish, shu orqali avlodlar bardavomligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu funktsiyaning bajarilishi er-xotin munosabatlariga bevosita ta'sir qiladi, ularning bir-birlariga vafo-sadoqatda bo'lishlarini, salomatliklari va to'g'ri turmush tarzini barqaror etishlariga xizmat qiladi.

Baxt va tinchlik-xotirjamlikni barqarorlashtirish funktsiyasi ham o'ta muhim bo'lib, aynan oila har bir a'zosining muammolarini yechish, unitashqiturlita sirotlardan himoyalash, kerak bo'lsa, unda himoya immunitetini shakllantirishga yordam beradi. O'zbeklarda "O'z uyim - o'lan to'shagim" degan ibora bor, har kim o'z uyida chinakam xotirjam bo'lishi mumkin. Uzoq safarlarda, yuksak servis mavjud mehmonxonalarda dam olib kelgach, o'z uyida, oyog'ini uzatib, "shukur" deyishi uning eng katta baxtidir. SHu nuqtai nazardan farzandlarning ham sog'- omon katta bo'lishi, ular ongini turli tashqi ta'sirotlardan, yot g'oyalardan himoya qilishda ham oilaning roli benazirdir. Oila tinch va xavfsiz bo'lsa, demak, jamiyat ham, davlat ham tinch va undagi osoyishtalik barqaror bo'ladi.

Oilaning muhim bo'lgan vazifalaridan yana biri bu uning reproduktiv (jamiyatning biologik uzluksizligini ta'minlash, bolalarni dunyoga keltirish) vazifasidir.

Reproduktiv funktsiya - bu oilaning nafaqat avlodlar, vorislarni yaratishga aloqador vazifasi, balki, shu orqali ota va ona bo'lishdek baxtga muyassar bo'lish, davlatning esa tub aholi sonini muayyan miqdorda ushlab turishiga ham xizmat qiladi. Ayniqsa, o'zbeklarda nikohning dastlabki onlaridanoq, "uvali-juvali bo'linglar, qo'sha qaringlar" deb duo qilinadi va kelinchakning homilador bo'lishi intiqlik bilan kutiladi. Chunki aynan shu omil yosh oilaning mustahkamligida katta ahamiyatga molik bo'ladi. "Farzandli oila" tushunchasi oila psixologiyasida ham, oila sotsiologiyasida ham muhim bo'lib, u oilada turmush tarzining deyarli barcha jabhalaridagi ko'rsatkichlarning me'zonidir. Chunonchi, o'zbeklarda "Bolali uy - bozor, bolasiz

uy - mozor" degan naqlning ma'nosi ham farzand tug'ilgan uyga farishtalar yog'iladi, yaxshilik va xursandchiliklar, to'ylar uchun yo'l ochiladi, demakdir.

Bu vazifaning asosiy mohiyati inson turini davom ettirishdan iboratdir. Oila faqatgina yangi avlodni dunyoga keltiribgina qolmasdan, ularni insoniyat paydo bo'lgan davrdan boshlab yashab kelayotgan ilmiy va madaniy yutuqlari bilan tanishtirish, ularning salomatligini saqlab turishdan ham iboratdir. Tabiatan berilgan avlod qoldirish instinkti odamda farzand ko'rishga, ularni o'stirishga va tarbiyalashga bo'lgan ehtiyojga aylanadi. Bu ehtiyojlarni qondirmasdan turib, kishi odatda o'zini baxtiyor his qila olmaydi. Shuningdek, er-xotinda, farzand tug'ilishi bilan bog'liq holda butunlay yangi hissiyotlar: ayolda - onalik, erkakda - otalik hissi paydo bo'ladi. Farzand er-xotin munosabatlarini yanada mustahkamlovchi asosiy omil hamdir. Oilaning jamiyat oldidagi reproduktiv vazifasi va uning bajarilishi deyilganda aholi sonining qayta tiklanishi uchun har bir oilada nechtdan farzand bo'lishi lozimligi nazarda tutiladi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, agar har bir oilada bittadan farzand bo'ladigan bo'lsa, bunday xalq sakkizinchi avloddan keyin yo'q bo'lib ketishi mumkin ekan. Har bir oilada ikkitadan farzandning bo'lishi ham aholi sonini saqlab turishni ta'minlay olmaydi. Demograflarning ta'kidlashlaricha, oila o'zining reproduktiv vazifasini bajarishi uchun xar bir oilaga o'rtacha 2, 6 ta farzand to'g'ri kelishi kerak.

Albatta, faqat oilagina jamiyat oldidagi vazifalarini bajarib qolmasdan, balki jamiyat ham oilalarga o'z vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratib berishi lozim. Bu o'rinda hukumatimiz tomonidan yuritilayotgan demografik siyosat, iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy tadbirlar bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Bunday siyosatning asosiy yo'nalishlari onalik va bolalikni muhofaza qilish, ko'p bolali va kam ta'minlangan oilalarning moddiy ahvolini yaxshilash, yosh oilalarga, onalarga

yaratilayotgan imtiyozlar va shu kabilardan iborat.

Oila sotsiologiyasi va demografiyasida oiladagi farzandlar soniga ko'ra guruhlarga bo'linadi. Masalan, ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan "kam sonli oila" - bu 1-2 nafar bola bor oiladir. Bu raqam umuman demografik jihatdan baholansa, aholining o'sishi va tabiiy yo'qotishlarning urnini qoplash uchun kamdir. Sotsiolog A.Antonovning fikricha (2005), jamiyatda aholi balansini saqlash uchun o'rtacha farzandlar soni 2,5 nafardan kam bo'lmasligi lozim. Yoki jami oilalarning to'rtidan biri ikkita, uchdan biri uchta, 14 % - befarzand yoki yolg'iz, 7 %i ko'p bolali, ya'ni beshtagacha bolasi bor oilalardan iborat bo'lsa, avlodlar vorisligi ta'minlanadi. Lekin Rossiya misolida bu masalaga e'tibor beriladigan bo'lsa, aholining reproduktiv o'sishida jiddiy pastlashish kuzatilmoqda. U yerda jami oilalar nisbatida kam bolalilar, ya'ni, 1ta yoki 2ta bolaga ega bo'lgan oilalar soni keskin oshib, bugun ularning ulushi 95 %ni tashkil etmoqda. Xalqaro YUNISEF tashkilotining 2004 yili e'lon qilgan monitoringi natijalariga ko'ra, Yevropa mamlakatlarida ham Markaziy Osiyo davlatlarida ham tug'ilishning kamayishi holatlari kuzatilmoqda (1.1-jadval).

1.1-jadval.

Ayrim mamlakatlarda tug'ilish koeffitsientlarining o'zgarishi

(1000 nafar aholi soniga nisbatan tirik tug'ilgan bolalar soni)

№	Mamlakatlar nomi	1989 yil ko'rsatkichi	2002 yil ko'rsatkichi
1	Rossiya	14,7	9,7
2	Qozog'iston	23,4	15,3
3	Qirg'iziston	30,5	20,3
4	Tojikiston	38,8	27,2
5	Turkmaniston	34,8	22,0
6	O'zbekiston	33,3	21,1 ⁷

⁷Социальный мониторинг. - М.: "Инноченти", 2004. - С. 62.

Rossiyada ko'p farzandli oilalar ulushi 1%ni ham tashkil etmagani holda, o'rtacha miqdorda bolalarga ega oilalar soni 5% gachani tashkil etadi.⁸ SHuni ta'kidlash joizki, bizda ham ko'p farzandli oilalar soni yil sayin kamayib bormoqda.

Tarbiya va nazorat funksiyasi - ota-onalarni zurriyodlarini qobil va aqli, imon-e'tiqodli, sog'-salomat voyaga yetishini ta'minlashlariga bog'liq. Chunki, oila - nafaqat er va xotinni, ularning maqomlaridan kelib chiqib tarbiyalaydi, balki yosh avlodni ham oilasi, ota-onasiga munosib insonlar bo'lib yetishishlari, jamiyatga foydasi tegishi uchun qayg'uradi. O'zbek oilasida avlodlardan meros bo'lib qolgan tarbiya mezonlari va an'analari mavjudki, ularning hayotiyiligi va bardavomligi bois jamiyatda qadr topgan barchasida yosh avlod tarbiyasi masalasi yetakchi hisoblangan udumlar va urf-odatlar hamon saqlanmoqda.

Xususiy mulkka ega bolish va avlodga meros qilib qoldirish vazifasi ham muhim bo'lib, u har bir oilaning o'z jamg'armasi bo'lishini taqazo etadi, shuning uchun ham "Er-xotin - qo'sh ho'kiz" bo'lib, tinmay mehnat qiladi, orttirganiga to'y va oilaviy tadbirlar o'tkazadi, uy-joy, tomorqalarni farzandlariga meros sifatida qoldiradi. Bu ham oila mustahkamligiga, ota-onalarning obro'-martabasiga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi tashabbusi hamdahukumatimizning qo'llab-quvvatlashi bilan oilaviy biznes, xotin-qizlar kichik va o'rta biznesini rivojlantirish, ayollar tadbirkorligi uchun banklardan imtiyozli kreditlar berish siyosati izchil amalga oshirilishi tufayli ayollarning oila byudjetiga qo'shayotgan hissasi ham ortib bormoqda. Buning natijasida farzandlarda ham tadbirkorlik xislatlari o'sishiga real imkoniyatlar yaratilmoqda. O'tkazilgan tadqiqotlarning natijalariga ko'ra, onasi tadbirkor bo'lgan qizlarda ilk yoshlikdanoq boshqaruv va liderlik sifatleri, tadbirkorlik

⁸Социология семьи: Учебник / Под ред проф. А.И. Антонова. - 2-е изд., перераб. и доп. - М.: ИНФРА-М, 2005. - С. 59.

ko'nikmalari shakllanib borar ekan (V.M.Karimova, 2003).

Yuqorida ta'kidlangan vazifalar ijtimoiy-iqtisodiy tuzumning xarakteriga ko'ra o'zgarishi, biri dolzarb, biri esa kamroq ahamiyatli bo'lib qolishi mumkin. Lekin har bir oila a'zosining shu vazifalarga psixologik jihatdan tayyorligi - ularning inson sifatida o'zini baxtli his qilishini, oilasining mustahkam bo'lishi, farzandlarining komil bo'lib yetishishlarini ta'minlaydi.

Oilaning iqtisodiy vazifalari. Oilaning iqtisodiy vazifasi uning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Oila iqtisodi, byudjeti, daromadini rejali sarflash, kundalik xarajatga, zarur buyumlarga pul ajratish, bir necha yildan so'ng olinadigan narsalarga mablag' yig'ish, tejab ro'zg'or yuritish er-xotinning katta tajriba, malakaga ega bo'lishlariga bog'liq. Shuningdek oilada o'sayotgan bola ham mana shu malaka va ko'nikmalarga ega bo'lib borishi zarurligini unutmagan holda bolaga iqtisodiy masalalarni hal etishni o'rgata borish lozim. Keyingi yillarda oilalarda yuzaga kelayotgan iqtisodiy muammolar oiladagi shaxslararo munosabatlarga salbiy ta'sir etishi bilan birgalikda bolalar bilim saviyasining pasayishiga ham olib kelmoqda. Bunday noxush holatlarning oldini olish maqsadida moddiy qiyinchiliklar tufayli hosil bo'ladigan muammolarni bartaraf etishda odamlarga psixologik yordam ko'rsatish lozim.

Oilalarning o'zining shu vazifasi tufayli jamiyatga, davlatga katta iqtisodiy foyda keltiradi. Masalan, bola tarbiyasi, bolani iqtisodiy ta'minlash borasidayoq uning jamiyatga keltirgan foydasi katta miqdorni tashkil etadi. Buni davlat tomonidan, davlat muassasalarida (bolalar uylarida) bir bolani 16-18 yil tarbiyalab, ishchi kuchi sifatida yetishtirish uchun (uni boqish, kiyintirish, o'qitish, moddiy ta'minlash va sh.k.) davlat tomonidan har bir bolaga sarflanadigan mablag' va aynan shunday ishchi kuchini oilada tarbiyalash uchun beriladigan nafaqa pullari miqdorini solishtiradigan bo'lsak, o'rtadagi farq birinchilar foydasiga bir necha yuz ming so'mni tashkil qiladi.

Tasavvurga osonroq bo'lishi uchun aytish mumkinki, har bir bolani voyaga yetkazish uchun oila davlatga kamida o'n-o'n besh million so'mlardan ortiq miqdorida iqtisodiy foyda keltiradi. Bu boradagi, ya'ni har tomonlama kamol topgan ma'naviy-axloqiy yetuk, jismoniy-psixologik sog'lom shaxsni yetishtirishning ma'naviy-axloqiy jihatlarini xech qanday iqtisodiy me'zon bilan o'lchab bo'lmaydi.

Bu, oilani iqtisodiy vazifasining atigi birgina shaxsni shakllantirish borasidagi qiymatini ko'rsatadi xolos. Hozirgi zamon oilasida xo'jalik ishlarini yuritish, ishning yo'lga qo'yilishi, moddiy ne'matlar ishlab chiqarish, fermer xo'jaligi, shaxsiy ishlab chiqarish kabilarning o'sib borishi, uning jamiyat oldidagi iqtisodiy vazifasi ahamiyatini yanada ortib boraverishini ko'rsatadi.

OILANING IQTISODIY VAZIFASI

Oilaning iqtisodiy vazifasi: Oila iqtisodi va byudjeti. Oila daromadini rejali sarflash.

Oilaning kundalik xarajatlarga, zarur buyumlarga pul ajratish.

Bir necha yildan so'ng olinadigan narsalarga mablag' yig'ish, tejab ro'zg'or yuritish.

Er-xotinning katta tajriba, malakaga ega bo'lishlariga bog'liq.

Quyidagi mezonlar jamiyat oldida oilaning iqtisodiy vazifasi ahamiyatini tobora ortiraveradi:

1. Moddiy ne'matlar ishlab chiqarish;
2. Oila o'zinig iqtisodiy vazifasi orqali jamiyatga, davlatga katta foyda keltiradi;
3. Xo'jalik ishlarini yuritish;
4. Fermer xo'jaligi Shaxsiy ishlab chiqarish millari.

Oilaning xo'jalik ishlarini olib borishda, byudjet yuritishda, iste'molchilik faoliyatini tashkil etishdagi ishtiroki.

Oilaviy byudjet nima? Ko'p pul topish-jasorat, uni saqlash-

donolik, va uni mohirona sarflash-san'atdir. (Averbax Bertold).

Byudjet ma'lum vaqt (hafta, oy yoki yil) mobaynida daromad va xarajatlarning umumiy miqdorini ko'rsatib beradi. Byudjet davlatniki, kompaniyani, ma'lum bir inson yoki oilaniki bo'lishi mumkin.

Daromadlar o'z ichiga barcha mablag'lar manbaini oladi, jumladan: ish haqi, stipendiya, pensiya, ustamalar, lotoreya yutuqlari va h.k.

Odami ishlash yoki ishlamasligiga qaramasdan keladigan boshqa daromad manbalar ham mavjud. Misol uchun: qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalardan keladigan daromadlar, bankka qo'yilgan omonat foizlari, uyni ijaraga berishdan olinadigan daromadlar va boshqalar kiradi.

Oila byudjeti – bu oilaga bir oy davomida kelib tushadigan er va xotinning ish haqi pullari, shuningdek turli hil yordam pullari va boshqa daromadlarning umumiy yig'indisidir. Byudjetni rejalashtirish – bu oilaning **daromad va xarajatlari to'g'ri hisob-kitob qilishdir.**

Oilaning har bir a'zosi oila byudjetini tuzish jarayonida ishtirok etishi muhimdir. Bolalarni bunga o'rgatish orqali siz ularga kelajakda o'z shaxsiy byudjetlarini boshqarish uchun asos yaratib berasiz.

Oila byudjetini yuritishni nazorat qilib borish nima uchun kerak?


Byudjetni nazorat qilish pulni boshqarishdagi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Bu sizga pulingizni tejashga va o'z mablag'laringizdan maksimal darajada samarali foydalanishga ko'mak berib sizga ko'proq xarajat qilishingizga yordam beradi.

Byudjetni yuritishni ayrim ijobiy tomonlari:

1. Ortiqcha xarajatlarni qisqartirish

Statistikaga ko'ra daromad va xarajatlarning hisobini yuritmaydigan ko'pchilik odamlar ishlab topadigan pullariga qaraganda ko'proq xarajat qiladilar. Byudjetni yuritib borish

o'z mablag'laringizni nazorat qilishga va ortiqcha xarajatlarni sezilarli darajada kamaytirishga yordam beradi.




2. Maqsadlarga erishishdagi yordam

Byudjetni boshqarishingiz tufayli sizda tayyor moliyaviy rejangiz bo'ladi. Uni muntazam ravishda kuzatish orqali siz qo'yilgan maqsadlaringizga erishishingizni nazorat qilib borishingiz mumkin. Maqsadlarga (telefon, mashina, mebel va hokazolarni xarid qilish) erishish uchun har oyda ularga ma'lum miqdorda pul ajratib boring.

3. Moliyaviy savodxonlik va intizom darajasini oshirish

Vaqt o'tishi bilan siz rejaga to'liq amal qilishni va xarajatlarni keragidan oshirmaslikni o'rganib olasiz. Bu sizni sotuvchilar va reklamalar tomonidan jalb qilinadigan kutilmagan xaridlardan ajoyib tarzda ximoya qiladi. Shuning uchun nima xarid qilayotganingizni va u sizga haqiqatdan ham hozirgi vaqtda kerak ekanligini oldindan yaxshilab o'ylab ko'rasiz. Oila byudjetini rejalashtirgan va har bir ishlab topilgan pulni qayerga ketganligini ko'rgan odam biror narsani darhol sotib olish uchun qimmatbaho kreditlar va qarzlarni olmaydi. Bunga ehtiyoj sezilmaydi, chunki siz biron bir narsani sotib olishni rejaga kirg'izishingiz va uni bir oz kechroq (masalan, mavsum tugagandan so'ng va yaxshi chegirma bilan) qo'shimcha xarajatlarsiz sotib olishingiz mumkin.



4. Qarz girdobidan tezda chiqish yo'li. Agar oila katta qarzga botgan bo'lsa, rejalashtirish hozirgi vaqt uchun zarur va birinchi darajali bo'lgan maqsadlarga erishish uchun qaysi xarajatlarni qisqartirish mumkinligini aniqlashga yordam beradi. Bunday oila daromadlari oshganda bo'sh turgan mablag'larining katta qismini xaridlar yoki o'yin-kulgilarga emas, balki qarzlarni yopishga sarflaydi. Bularning barchasini hech kimdan qarzдор bo'lmaganingizdan so'ng tashkil qilish mumkin.

5. Moliyaviy xavfsizlik yostiqchasi

Sizning byudjetingiz kutilmagan holatlar uchun xavfsizlik yostig'i bo'lishi mumkin. Oddiy tilda aytganda, bu qora kun uchun ajratilgan ma'lum miqdordagi pul. Ya'ni, bu oldindan aytib bo'lmaydigan qiyin vaziyatlarni "yumshatadigan" kapitaldir.

Oila byudjetini to'g'ri yuritish ko'p pul ishlab topishni va kamroq xarajat qilishni anglatmaydi. Buning uchun oila byudjetini shunday to'g'ri shakllantirish kerakki, unda farovon hayot kechirish uchun oldindan daromad va xarajatlarni belgilab olish lozimdir.

Oilaning tarbiyaviy vazifalari. Oilaning muhim ahamiyatga ega bo'lgan yana bir vazifasi tarbiyalashdir. Bolalarning aqliy, jismoniy, ahloqiy, estetik tarbiyasiga oilada asos solinadi. Oila inson deb ataluvchi binoni faqat poydevorini

qo'yish bilan cheklanmasdan, balki uning so'nggi g'ishti qo'yilguncha javobgardir. Ota-ona -san'atkor, bola - san'at asari, tarbiya jarayoni esa san'atning o'zidir. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng milliy qadriyatlarimizning tiklanishi va xalqimiz azaldan saqlab kelayotgan milliy urf-odatlarimiz, an'analarimiz (bola tarbiyasida ota-onadan tashqari, buvi-buva, qarindosh-urug', mahallaning ham ta'siri) bu borada katta ahamiyatga ega. Lekin ba'zan oilaning tarbiyaviy vazifasining susayishi va targ'ibot-tashviqot ishlarining kamligi natijasida oila a'zolari xulqida yomon odatlarning (ichish, chekish, narkomaniya, turli diniy oqimlar ta'siriga berilish, ma'naviy buzulqilik yo'lga kirish) paydo bo'lishi tashvishlanarli hollardan biridir. Jamiyatning komil fuqarosini shakllantirish, tarbiyalash hozirgi zamon oilasining mazkur vazifasi darajasiga kiradi.

Chunki shaxsning ijtimoiylashuvi dastavval oilada amalga oshadi. Oiladagi tarbiya orqali shaxsga ma'lum bir siyosiy-g'oyaviy dunyoqarash, axloqiy me'yorlar va xulq namunalari, jismoniy sifatlar singdiriladi.

Xalqimizda «qush uyasida ko'rganini qiladi» deb bejiz aytilmagan. Oilada amalga oshadigan ijtimoiylashuv jarayoni natijasida shaxs ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlarni o'zlashtiradi, ijtimoiy hayotga kirib boradi.

Ijtimoiy tarbiyaning asl ma'nosi ham, vazifasi ham boladagi ijtimoiy faollikni oshirish orqali, undagi ijobiy fazilatlarni kamol toptirishdir. Odatda oilada ijtimoiy faollikni oshirish bola irodasini chiniqtirish orqali amalga oshiriladi. Chunki ko'pincha ota-onalar bolalarining aqlli, farosatli bo'lib yetishlariga e'tibor berib, uning ruhiyatini hamda jismoniy quvaatini oshirishga, irodasini mustahkamlashga bee'tibor qoladilar. Buning oqibatida bola turmush so'moqlarida tez qoqiladigan, turli ijtimoiy vaziyatlarda qiyinchiliklarni yenga olmaydigan, ruhiyati mo'rt bo'lib katta bo'ladi. Shuning uchun ham oilaviy ijtimoiylashuvda bolaning ijtimoiy bilimdonligi, ijtimoiy ko'nikmalar va ularni oshirishga qaratilgan chora-

tadbirlarga alohida urg'u beriladi.

Mutaxassislar oilaviy sotsializatsiyaning bosqichlari, funktsiyalarini tafovvtlash bilan birgalikda uning har birida o'ziga xos ijtimoiylashuv usullari ustivor bo'lishini ham ta'kidlaydilar. Masalan, rus sotsiologi *N.Andreenkova*⁹ ijtimoiylashuv jarayonini ikki katta bosqichda tasavvur qiladi. Uning **birinchi bosqichi** - individning ijtimoiy mavjudot sifatida shakllanishini ta'minlovchi hayot bo'lagini o'z ichiga olib, u inson hayotining qariyb uchdan bir qismini tashkil etadi. Bu davrda asosan bolaning:

- *dastlabki ilk sotsializatsiyasi (bolalik davri);*
- *normativ xulqning marginal jihatlarini o'zlashtirish davri (o'smirlik davriga to'g'ri keladi);*
- *o'spirinlikdan balog'atyoshiga o'tish davrini o'z ichiga olgan ijtimoiylashuv oqibatlari yaxlit namoyon bo'ladigan bosqich.*

Ikkinchi bosqich - shakllanib bo'lgan shaxsning jamiyatda faoliyat yuritishi davrlarini o'z ichiga olgan hayot bosqichi. Bunda shaxs dastlab mehnatga yaroqli jamiyat a'zosi sifatida, so'ngra naqaqa yoshiga yetgan inson sifaida o'z o'rniga ega bo'ladi.

Ijtimoiylashuvning dastlabki yillarida uning samaradorligi ko'proq yuqorida ta'kidlaganimizdek, oila, undagi ijtimoiy-psixologik muhit va ota-onaning tarbiyachilik burchini qanday ado etganligiga bog'liq bo'lsa, uning keyingi bosqichlarida ta'lim muassasalari va mehnat jamoalarining roli ortib boradi. Shunga mos ravishda ijtimoiylashuv usullari ham turlicha bo'ladi.

Ko'plab olimlar va oila masalalari bo'yicha mutaxassislarni xavotirga solgan jihat shuki, zamonaviy oila o'zining bola shaxsini ijtimoiylashtiruvchi vazifasini yaxshi va to'liq ado etmayapti. *A.Antonov*ning ta'kidlashicha, zamonaviy oila oilaviy turmush tarzini shakllantira olmayotganligi sababli ham o'zining

⁹ *Андреевкова Н. Роль семьи на разных этапах социализации индивида // Динамика изменения положения женщины и семья. - М.: 1972. - С.4.*

bola tarbiyasi borasidagi ijtimoiy bilimdonligini namoyon eta olmayapti.¹⁰ Bundan tashqari, G'arb mamlakatlarida o'tkazilgan tadqiqotlarda aksariyat ayollarda onalik ustanovkalarining yo'qligi, bola tarbiyalash xohishining yo'qligi, qo'ydi- chiqdining bemalol amalga oshirilishi, rasman FXDYO bo'limlarini nikohni qayd etmay yashash (fuqarolik nikohi), ajrimlardan keyingi erkak va ayolning o'zaro yomon munosabatlari bolalarning ijtimoiylashuviga nihoyatda salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday er-xotinlarning farzandlari bir tomondan umuman oila institutiga va nikohga nisbatan salbiy qarashlarga ega bo'lib, voyaga yetsalar, ikkinchi tomondan, ularning xarakterida asosan xudbinlik, egoizm, agressivlik kabi salbiy sifatlar egasi sifatida shakllanmoqda. Demak, jamiyatda o'z davriga munosib, sog'lom fikrlovchi yoshlarni tarbiyalab, voyaga yetkazishning muhim omili bu rasmiy nikohda bo'lgan er-xotinlar oilasining bahamjihatlikda yashashlaridir.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Oilaning ijtimoiy ahamiyatiga molik funksiyasini nimalar belgilaydi?
2. Hozirgi zamon oilasi "monogam" oilalardan iborat. Bu qanday oilalar?
3. Psixologik muhit – bu nima?
4. Oiladagi psixologik muhitga ta'rif bering.
5. Sotsialog-psixologlar o'z tadqiqotlarida nimalarni aniqlaganlar?
6. Muvofiqlik – bu nima
7. "Oila yili" yili deb nechanchi yil belgilangan?
8. O'zaginging ijtimoiy mazmuniga qarab, oila 3 ta guruhdan tashkil topadi. Ularni sanang va ta'rif bering.
9. Oilaning asosini nima tashkil etadi?
10. Hozirgi zamon oilalarining funktsiyalarini sanang va ta'riflab bering.

¹⁰ *Социология семьи / Под ред. А.И. Антонова. - М.: 2005. - С. 235.*

YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH

1. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash zarurati.
2. Oilaviy hayot tayyorlik jihatlari.
3. Yoshlarda psixologik yetuklikning hal qiluvchi ahamiyatga egaligi.
4. Psixologik yetuklikning shaxs hulqining turli yashash sharoitlariga moslashuvchanligida ifodalanishi.
5. Muloqot madaniyati oilaviy hayotga tayyorlikning bir yo'nalishi sifatida.
6. Oilaviy hayot haqidagi tasavvurlar.
7. Oila qurish haqidagi ustanovkalarni shakllanishi.

Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash zarurati. Vazirlar Mahkamasining 31.12.2020 yildagi «Oila institutini yanada rivojlantirish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi 820-son qarori qabul qilindi. Hujjat Prezidentning 18.02.2020 yildagi «Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida» PF-5938-son Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida qabul qilindi.

Qaror bilan Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash markazlari faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi nizom tasdiqlandi. Markazlar tuman (shahar) mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limlari huzurida tashkil etiladi, ularga quyidagi vazifalar yuklatiladi:

- zamonaviy oilaning namunali shaklini hamda «Oila - muqaddas», «Sog'lom oila - sog'lom jamiyat», «Oila - jamiyat va davlat himoyasida» va «Farovon oila - jamiyat ravnaqining asosi» konseptual g'oyalarini nikohlanuvchilarning ongiga singdirib borish;

- nikohlanuvchi shaxslarni oilaviy-huquqiy munosabatlar, oilaviy hayot psixologiyasi, oila iqtisodi va byudjeti,

reproduktiv salomatlik asoslari, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash masalalari bo'yicha tizimli tayyorlash;

- oilalar mustahkamligini ta'minlash, oilaviy ajralishlarning oldini olish, nikohlanuvchi shaxslarda oilaviy qadriyatlarni hurmat qilish, oilalarda sog'lom ma'naviy-axloqiy muhitni yaratish hamda ibratli ota-ona bo'lish ko'nikmalarini shakllantirish.

Bugungi kunda O'zbekiston aholisining 62 foizini bolalar o'smirlar, xullas 30 yoshgacha bo'lgan yigit qizlar, ularning ma'lum qismini esa yosh oilalar tashkil etadi. Yosh oilalar jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy yangilanishi va yuksalishini muhim sub'ektlaridan bo'lib, ijtimoiy hayotda ro'y berayotgan murakkab jarayonlarga o'z ta'sirini o'tkazishda va taraqqiyotni harakatda keltirishida muhim ro'l o'ynaydi. Shuning uchun hozirgivaqtda yosh oilalarning ma'naviy-axloqiy va ruhiy olamini shakllantirish varivojlantirishni chuqur va atroflicha tahlil etish ilmiy - amaliy jihatdan katta ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan mustahkam oilalarni shakllantirish, onalik va bolalikni ijtimoiy jihatdan muxofaza qilish, oilalarda jismonan sog'lom, ruhan baquvvat bo'lgan farzandlarning dunyoga kelishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, samaraliravishda oila tarbiyasini tashkil etish jarayonida oilalar bilan jamoatchilik o'rtasida mustahkam hamkorlikni yuzaga keltirish masalalarini davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. 1993-yilning fevral oyida "Sog'lom avlod" ordenining ta'sis etilishi hamda "Sog'lom avlod" Davlat dasturi" ning qabul qilinganligi fikrimizning yorqin dalilidir.

Yoshlarni psixologik jihatdan oilaviy hayotga tayyorlash va faoliyatning samarali tashkil etilishi bir qancha ijtimoiy muammolarning ijobiy hal etilishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi:

- Jamiyatning ijtimoiy ma'naviy jihatdan rivojlanishini ta'minlaydi;

- jamiyatning ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotining yuqori

bosqichga ko'tarilishida muhim ahamiyat kasb etadi; mustahkam oilalarni shakllantirish, ularda sog'lom psixologik muhitni qaror toptirish, oila tarbiyasini samarali tashkil etish, farzandlar tarbiyasida muayyan muvaffaqiyatlarga erishish, oilaviy mojaro, ajrimlarning oldini olish uchun zamin hozirlaydi.

Sharqda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashga qadimdan jiddiy ahamiyat berilgan. Jumladan Abu Nasr Farobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Xos Xojib, Kaykovus, Alisher Navoiy, Rizouddin Ibn Faxriddin kabi allomalar bu masala yuzasidan o'zlarining durdona fikrlarini tarixda qoldirib ketganlarki, ular hozirgacha o'z ahamiyatini yuqotmagan. Ular «Nasixatnoma», «Pandnoma», «Xikmatnoma» tarzida bizgacha yetib kelgan. Bu manbaalarda qizlarni hayotga tayyorlashda, ularda birinchi navbatda insoniy fazilatlar shakllangan bo'lishi, oila muqaddas, uni avaylab asrash aynan uy bekalariga bog'liq ekanligi xaqida turli tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan xodisalar hikoya qilinadi. «Kaykovus Unsurulmaoni» – 63 yoshida o'g'liga atab «Qobusnoma» yozib, unda o'zining bola tarbiyasi, oilaviy hayot, shaxs kamoloti masalalarini bayon etdi. Mamlaktimizning yetakchi psixolog olimlaridan biri Vasila Karimova "Oila ma'rifati" ushbu risola muallifining "Oila ma'rifati" ruknida chop etilayotgan risolalarining dastlabkisi bo'lib, bu bevosita oilaviy hayot bo'sag'asida turgan yoshlar hamda endigina nikox qurib, yaxshi niyatlar bilan turmush qurgan kuyov va kelinchaklarga mo'ljallangan. Unda asosiy e'tibor oila ilmining mazmun mohiyati, oila ma'rifatini tashkil etuvchi omillar va baxtli hayot kechirishni aslida hammaga ma'lum bo'lgan, lekin amalda har doim ham egallash oson bo'lmagan jihatlarga

"Oila ma'rifati"ga erishish, ya'ni kelin-kuyovlar, yoshlar hamda ularning ota-onalar savodxonligini oshirish orqali, oilaviy muhitda ma'naviy qadriyatlarni barqarorlashtirishga erishishni ko'zda tutgan. A.Avloniy "Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir", degan fikri

o'zbekning kun tartibidan tushmasligi lozim. Chunki avvalgiga o'xshab qariyalar keksalar yoshlarni odob axloqqa chaqirib yoshlar esa ularni hurmatlab, ularning o'gitiga amal qilish udumi yo'qolib bormoqda. Har kim o'zi bilan ovora birovning gapi birovga yoqmaydi. S.V.Kovolyov o'smir va qizlarda oila va nikoh tushunchalari haqidagi tasavvurlarga ega bo'lishlari juda muhimdir, deydi. Nikoh va sevgi tushunchalari 13-15 yoshli bolalarda qarama-qarshi tushunchalar ekanligi bilan ko'zatiladi, ya'ni ular sevgi va nikoh bir-biriga teskari tushunchalar ekan deb tushunadilar. Talabalarda umr yo'ldosh tanlashda sevgi tushunchasi faqat 4 o'rinda, ya'ni hurmat qilish, ishonch, bir-birini tushunish kabi hislatlardan keyin turadi. Yoshlaro ilani jiddiy qabul qilmaydilar. Natijada juda ko'p xatoliklarga yo'l qo'yib, keyinchalik oilaning muhimligini psixologik tan oladilar. Bizning asosiy vazifamiz shuki, o'smirlarda oilaning qadrini, sevgi, nikoh oiladagi sevgini ro'li muhimligini va u uzoq va baxtli hayot garovi ekanligini o'qitishdir.

Oila deb atalmish muqaddas makon, «oila qasri»ning mustahkamligi shu qasrning poydevori bo'lmish nikoh oldi omillari xususiyatlariga, ularning qaydarajada to'g'ri va mustahkam qo'yilishiga bog'liq. Agar shu poydevor yetuk, mustahkam bo'lsa, uning ustida qurilgan imorat ham ko'rkam, yorug', unda istiqomat qiluvchilarga qulaylik, xotirjamlik, tinchlik, huzur-halovat bag'ishlaydigan bo'ladi. Oilangizning ham o'ziga xos poydevorlari bor. Ular shu oilaning yuzaga kelishiga, qurilishiga asos bo'lgan nikoh oldi omillaridir. Agar shu nikoh oldi omillarining oilani yuzaga kelishiga ta'siri noo'rin bo'lsa, u shoshilinch, bo'sh, qiyshiq qurilsa, uning ustiga o'rnatilgan oila imoratining devori ham qiyshiq va omonat bo'lib boraveradi va u shu imoratning bir kuni kelib qulashi, bo'zilib ketishi xavfini tug'diradi. Bunday poydevor ustiga qurilgan imorat qulab tushmagani, buzilib ketmagani taqdirda ham, unda istiqomat qiluvchilarga xotirjamlik, tinchlik, quvonch baxsh eta olmaydi. Ulard oimo qandaydir bir xavotirda, hadikda, noqulaylikda,

xijolatda yashashlariga to'g'ri keladi. Xo'sh, shu poydevorlar ya'ni nikoh oldi omillari nimalardan iborat? Gap nikoh oldi omillari haqida borar ekan, shuni ta'kidlab o'tish joizki, nikoh oldi omillari u yoki bu nikohning yuzaga kelishiga asos bo'lgan ko'plab ijtimoiy, iqtisodiy, biologik, fiziologik, ma'naviy, axloqiy va bugungi kunlarimiz uchun eng muhim bo'lmish psixologik omillarni o'zida mujassamlashtirgan, ko'pqirrali omillar kompleksidan iborat bo'lib, oila qurayotgan yoshlarning, shu o'zlari qurayotgan oilaviy hayotlariga qaydarajada «yetilgan»liklarini belgilab beradi. Buyerda eng muhimi shu yoshlarning oilaviy hayotga, nikoh talablariga qay darajada javob bera olishi nazarda tutiladi.

Nikohga yetuklik tushunchasi ham o'z navbatida o'ta murakkab va nisbiy tushunchadir. Chunki odam doimo rivojlanib, takomillashib boruvchi, kasb-hunarfaoliyatida yoki ma'naviy va axloqiy rivojlanishida muntazam yangidan-yangi cho'qqilarga erishib boruvchi mavjudoddir. Agar odamning u yoki bu faoliyatga «to'la yetukligi» haqida gapiradigan bo'linsa, demak bu uning ma'lum bir chegaraga erishgani va undan ortiq rivojlanish mumkin emasligini bildiradi. Shuning uchun ham odamning nikohga yoki biron-bir faoliyatga yetukligi haqida gapirilganda, «yetuklik» tushunchasi tor ma'noda o'rinli bo'la olmaydi. Shuning uchun ham odamning «yetukligi», ayniqsa, nikohga, oilaviy hayotga «yetukligi» haqida gapirilganda, bu tushunchadan ma'lum bir umum qabul qilingan standart, o'rtacha me'yor, ma'lum bir shartli «o'lchov birligi», ko'rsatkichlar va shu kabilar sifatidagina foydalaniladi. Masalan, barcha o'quv yurtlari (maktab, lisey, kollej, institutlar) uchun bitirish imtixonlari (davlat imtixonlari tizimi, diplom ishlari himoyasi tizimlari kabilar) mavjud bo'ladi va ular yordamida bitiruvchilar tomonidan o'zlashtirilgan o'rtacha bilimlar va malaka yig'indisini aniqlash mumkin bo'ladi. Bu esa ularga keyinchalik yana o'qishni davom ettirish yoki ma'lum bir mutaxassislik bo'yicha ishlashi mumkinligi haqida ma'lum

bir huquq beradi. Shu nuqtai nazardan olinganda, «yetuklik» —rivojlanishning ma'lum bir bosqichi, fazasi, chegarasiga yetilganlikning sifatii va miqdoriy karakteristikasini ma'lum bir aniqlikda belgilab beruvchi ko'rsatkich bo'lib xizmat qiladi. Odamning nikohga, oilaviy hayotga yetukligi masalasi esa o'ta murakkab, biron-bir qat'iy me'yor bilan o'lchab bo'linmaydigan individual harakterga ega bo'lgan ko'rsatkichdir. Shu keltirib o'tilganlarning o'zi yoq nikoh oldi omillari qaydarajada murakkab harakterga ega bo'lgan muammolardan ekanligini ko'rsatib turibdi. Hozirgi zamon oilasining ijtimoiy psixologik muammolarini yoritishga bag'ishlangan psixologik adabiyotlarda nikoh oldi omillarining turlicha shakllari, ko'rinishlari farqlanadi. Quyida sizning e'tiboringizga ularning ayrimlari haqidagi ma'lumotlarni havola etamiz:

1. Nikoh oldi omillari qatoriga shu oila qurayotgan yoshlarning: oilaviy havotga yetukligi;
2. Ularning oila qurish motivlari;
3. Uarning oila qurishgunlariga qadar bir-birlarini tanish muddati (qancha vaqt bir-birini tanishi) shartlari va sharoitlari;
4. Ularning o'zlarining bo'lg'usi oilaviy hayotlari haqidagi tasavvurlari kabilarni kiritish mumkin.

Albatta, bu omillarning har bir turli yoshlarda turlicha harakterda bo'lishi mumkin, shu bilan birga ularning har biri o'z navbatida yana bir necha turlarga farqlanadi. Masalan, nikohga yetuklik deyilganda oila quruvchi yoshlarning: jismoniy (fiziologik), jinsiy, huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy, psixologik kabi yetuklik jihatlarini farqlash mumkin. Bularning orasida huquqiy, jinsi yetuklik ko'rsatkichlari yetarlicha aniq alomatlariga, belgilarga ega bo'lgan va bular haqida tegishli huquqiy, tibbiy, psixologik adabiyotlarda ko'plab ma'lumotlar berilgan jihatlar bo'lsa, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy, psixologik jihatlar biroz murakkabroq, qat'iy bir ko'rsatkich, chegaraga ega emasligi bilan harakterlanadi. Masalan, odamning

jinsiy yetukligi o'ziga xos omillarga ega. Klinik kuzatishlar ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi zamon qizlarida jinsiy yetuklik (balog'atga yetish) 12-14 yoshgacha, o'g'ilbolalarda esa 14-16 yoshga to'g'ri keladi. Albatta, bu yetuklik ba'zi bir bolalarda ertaroq, boshqa birlarida kechroq ro'y berishi mumkin. Bu ko'rsatkichlar ± 2 yoshga farq qilishi mumkin. Ayrim tibbiyot olimlari bolalarning to'la jinsiy yetilishlari uchun yana 2-3 yil kerak bo'ladi, deb hisoblaydilar. Jinsiy yetilish qat'iy jinsiy ehtiyojlarning shakllanishiga olib keladi. Bu davrga kelib bolalarda ikkilamchi jinsiy alomatlar namoyon bo'la boshlaydi. Jinsiy sekresiya bezlarining faolligi ortadi. Qiz bolalarda oylik sikllari (menstruasiya), o'g'il bolalarda pollyusiyalar ro'y bera boshlaydi. Boshqacha qilib aytganda, ularda pubertat davr boshlanadi. Demak, bu davrga kelib bolalarning moddiy va ma'naviy qiziqishlarining o'sib borishi bilan bir qatorda jinsiy ehtiyojlar shaxs faolligining kuchli manbalaridan hisoblanib, u turli psixologik va ijtimoiy shakllarda namoyon bo'la boshlaydi. Jinsiy maylning, jinsiy ehtiyojning yuzaga kelishi odamning biologik rivojlana boshlashining o'ziga xos bosqichidir. Ular bola ruhiyatining rivojlanishiga, shaxsining shakllanishiga, hayot faoliyatining boshqa jihatlariga katta ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlarga, ularning ilm olish va kasb-xunar egasi bo'lishiga katta e'tibor berilmoqda. Lekin bularning o'zi yoshlarning kelgusi hayotlarining farovon bo'lishligi uchun yetarli emas, balki ularga oilaviy hayot saboqlaridan psixologik bilim va tushunchalardan keng va yetarlicha ma'lumot berish davr talabiga aylanib bormoqda. Chunki sog'lom psixologik muhit qaror topgan oiladagina barkamol va yurt koriga yaraydigan kelajak avlodni voyaga yetkazish mumkin. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, bu masalaga e'tibor qaratishimiz davr talabiga aylanib o'z dolzarbligini amaliy hayot tajribasida namoyon etmoqda. 2019 yil statistik ma'lumotlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak 11 oyda 30000 ming oilani ajrashishi bu millat taqdir va davlat

kelajagiga katta xafv ekanligini xar bir sog'lom fikir egasi anglab turibdi. Ajaralgan har bir oilaning 2 nafar farzandi bor deb oladigan bo'lsak, 60000 ming nafar bolalar noto'liq oilada voyaga yetadi. Bu holat bolaning psixikasiga juda yomon ta'sir qilishi tabiiy hol. Biz bugungi kunda maktab va jamiyat hayotida tarbiyasi og'ir bolalarni sonini keskin kam paytirish borasida sa'y harakatlarni olib borishimiz samarasiz bo'lib qolishiga olib kelmoqda.

Oila "inson" deb atalguvchi binoning faqat poydevorini qo'yish bilan cheklanmasdan, balki uning so'nggi g'ishti qo'yilgunga qadar unga naqsh berib, so'nggi bo'yoq o'z joyini topgunga qadar mutlaqo javobgardir.

Ota-ona – san'atkor, bola – san'at asari, tarbiya jarayoni esa san'atning o'zidir.

Oila a'zolarining o'zaro aloqasi ko'p qirraligi bilan xarakterlanadi. Bunga iqtisodiy, g'oyaviy, aqliy, hissiy, psixologik, axloqiy qarindoshlik munosabatlar kiradi.

Oiladagi o'zaro aloqaning xususiyatlariga tabiiylik, barqarorlik, qarindoshlik, yagona manfaatni ko'zlash kiradi.

Oilaviy munosabatlar nihoyatda murakkab va bir-biriga bog'liq bo'lib, qadim zamonlardan bashariyat ahlining diqqat markazida bo'lgan.

Birgalikdagi oilaviy hayot barcha turli yoshdagi odamlar uchun, qaysi jins, irq, fe'l-atvor, ma'lumot, kasb-u koridan qat'iy nazar, katta bir sinash maydonidir. Bu masala o'tmish ajdodlarimizni qay darajada tashvishga solgan bo'lsa, bugungi kun avlodlarini ham tinch qo'ygani yo'q. To insoniyat yashar ekan, insoniy munosabatlar muammosi tugamaydi. Oilaviy munosabatlar masalasi juda keng ilmlarni o'z ichiga oladi.

Qadim tarixdan ma'lumki, olimlar shaxs va jamiyat aloqalari tizimida insonning tub mohiyatini anglash, uning rivojlanishi va kamol topishi qonuniyatlarini izlaganlar. Abu Nasr Forobiy, Alisher Navoiy, Ibn Sino, Beruniy kabi yuzlab Sharq allomalari ham asarlarida bu o'zaro bog'liqlikning

falsafiy va ijtimoiy sirlarini ochishga harakat qilganlar. Barcha qarashlar uchun umumiy bo'lgan narsa – bu odamni, uning mohiyatini anglash uchun avvalo uning shu jamiyatda tutgan o'rne va mavqeyini aniqlash zaruratidir. Shundan kelib chiqqan holda, shaxsni o'rganishning birlamchi mezoni ham uning ijtimoiy mavqeyi, ijtimoiy munosabatlar tizimidagi o'rni bilan belgilanishi kerak.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan "Dunyoning eng baxtli mamlakatlari – 2018" mavzusida tadqiqot o'tkazildi. Har qaysi mamlakatning o'z fuqarolarini baxtli hayot bilan ta'minlash qobiliyatini ifodalaydigan ushbu indeks bo'yicha, O'zbekiston 156 davlat orasida 44, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligida esa 1-o'rinni egalladi.

Buyuk allomalarimizning inson kamoloti borasidagi qimmatli fikrlari hozirgacha yuksak ahamiyat kasb etib kelmoqda. Shuning uchun hozirgi davr talabi va dolzarb muammo yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, ma'naviy yuksak e'tiqodga ega bo'lgan umuminsoniy fazilatlar ruhida shakllantirish, yuqori malakali mutaxassislar qilib yetishtirish nafaqat psixologlar, pedagoglar, murabbiylar, shu soha mutaxassislari, balki barchamizning muhim vazifamiz bo'lmog'i kerak.

Oilaviy turmush masalalarini o'rgangan uzoq va yaqin chet el psixologiyasi aynan oila barqarorligiga shaxslararo munosabatlar ta'sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari haqida, uning barqarorligini saqlovchi yoxud buzilishlariga olib keluvchi iqtisodiy, ijtimoiy-biologik, ijtimoiy-psixologik, ma'naviy-madaniy, hissiy-emosional, tarbiyaviy-pedagogik omillar ta'sirini o'rganganlar va oilaviy turmush muammolarini yechish bilan bog'liq qimmatli ma'lumotlar, ilmiy xulosa va tavsiyalarni ilgari surganlar.

J. J. Russo "Farzandlaringizni tolesiz qilishning eng sinalgan usuli qandayligini ya'ni - u nima desa hammasiga xo'p deyaverish ekanligini bilasizmi", deb o'rinli ogohlantirgan.

Axloq - odobga oid hadislarining birida "Har bir ota o'z farzandlariga xulqi odobdan buyukroq meros berolmaydi", deyilgan. Shuning uchun bu masalada ota-ona birday mas'uliyatli hisoblanadi.

Oilaviy hayotga tayyorlik jihatlar. Butun dunyoda oila instituti inqirozining salbiy ko'rinishlari, nikohlarning barqaror emasligi, oilaviy ajrimlar sonining ortishi, nikohsiz bolalar tug'ilishining ko'payishi, farzand tarbiyasiga e'tiborsizlik hamda keksalarga nisbatan bepisand munosabatda bo'lish avj olmoqda. Bunday vaziyatda bu kabi noxush holatlarning oldini olish borasida zaruriy chora tadbirlarni ko'rish muhimdir. Shuning uchun ham oila institutini mustahkamlash va yanada rivojlantirish, "Oila-muqaddas", "Sog'lom oila – sog'lom jamiyat", "Oila – jamiyat va davlat himoyasida", "Farovon oila – jamiyat ravnaqining asosi" konseptual g'oyalarini nikohlanuvchilarning ongiga singdirish va tatbiq etish davlatlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib kelmoqda. Zero, davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoev tomonidan ilgari surilgan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ham oila salomatligini mustahkamlash, kam ta'minlangan oilalar sonini kamaytirish, jamiyatda oila asoslarini yanada mustahkamlash, shuningdek, yosh oilalar uchun munosib uy-joy va ijtimoiymaishiy sharoitlarni yaratish kabi vazifalar belgilab berilgan¹. Buning uchun jamiyat va oilada sog'lom hamda barqaror ijtimoiy-ma'naviy muhit hamda tinchlik, totuvlik va osoyishtalikni ta'minlashning tashkiliy huquqiy mexanizmlarini tubdan isloh qilish, notinch va muammoli oilalarga manzilli ko'maklashishni tashkil etish, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlash kabi qator ustuvor vazifalar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur vazifalar qatorida, avvalo, huquqiy asoslar va normativ huquqiy bazani takomillashtirib borish muhimdir. So'nggi 2 yil ichida oila institutini mustahkamlash,

ayollar, va yoshlarga oid muammolarni eng quyi pog'onada, ya'ni mahalladan boshlab manzilli aniqlash hamda hal etish nuqtai nazaridan bir qator Prezident va hukumat qarorlari e'lon qilinib hayotga joriy etilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 18 fevraldagi "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5938-sonli Farmoni, "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyiliga asoslangan tizimni samarali joriy etish yuzasidan tasdiqlangan Yo'l xaritasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 15 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tartibga solish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 228-sonli, 2020 yil 10 iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi huzuridagi "Mahalla va oila" ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 367-sonli qarorlar shular jumlasidandir. Ushbu qabul qilingan qarorlarda ham mahalla va oila institutini mustahkamlash va rivojlantirish, zamonaviy namunali oila mezonlarini hayotga joriy etish, mahallalar va oilalarda sog'lom va barqaror ijtimoiy-ma'naviy muhit hamda tinchlik, totuvlik va osoyishtalikni ta'minlash, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash choralari ko'rish, shu jumladan, oilalarda umuminsoniy va milliy qadriyatlarni mustahkamlashning ilmiy asoslarini ishlab chiqish kabi vazifalar belgilangan. Bu borada Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan 2020 yil 31 dekabrda "Oila institutini yanada rivojlantirish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 820-sonli Qarori yuqoridagi choratadbirlarning mantiqiy va uzviy davomidir. Ushbu qaror nafaqat yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning huquqiy asosi bo'libgina qolmay balki, jamiyatimizda oila munosabatlarida yangi bir davr uchun debochadir. Xo'sh, yoshlarni nikohga tayyorlashning biror

mezonlari mavjudmi? Agar kurslar tashkil etilsa ular qanday bo'lishi kerak? Ilmiy adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, yosh avlodni oilaviy hayotga tayyorlash quyidagi asosiy jihatlarni o'z ichiga olishi kerak:

1. Nikoh va oilaviy munosabatlar hamda demografiya sohasidagi davlat siyosatini ochib beruvchi ijtimoiy, shuningdek, nikoh va oilaviy munosabatlarning ijtimoiy tabiati, oilaning maqsadi, oilaviy qadriyatlar va er-xotin hamda ota-onalarning ijtimoiy rollari to'g'risidagi ma'lumotlarni qamrab olishi kerak.

2. Axloqiy fazilatlarini tarbiyalash: boshqa jins vakillariga nisbatan hurmat; onaga, otaga, keksalarga va o'smirlarga hurmat; bolalarni tarbiyalash zarurati; mas'uliyat, sadoqat, halollik, dadillik, mehribonlik, turmush o'rtog'i, oilasi, bolalari uchun majburiyat hissi; samimiy tuyg'ular madaniyati.

3. Huquqiy bilimlar ya'ni nikoh va oilaga oid qonunchilik asoslari bilan tanishishga qaratilgan bo'lishi; oila huquqining eng muhim qoidalari bilan; er-xotinning bir-biriga, bolalarga, jamiyatga nisbatan majburiyatlari bilan tanishgan bo'lishi zarur.

4. Psixologik, shaxsiy rivojlanish haqidagi tushunchalarni shakllantirish; yoshlarning o'zaro munosabatlari psixologiyasining o'ziga xos hususiyatlari haqida; nikoh va oilaviy hayotning psixologik asoslari, boshqa odamlarning psixologiyasini tushunish qobiliyati haqida; oilaviy va oilaviy hayot uchun zarur bo'lgan his-tuyg'ularni rivojlantirish; muomala qilish qobiliyatlari.

5. Fiziologik va gigienik, jumladan, erkak va ayol organizmlarning fiziologik hususiyatlarini bilish; jinsiy hayot hususiyatlari, shaxsiy gigiena masalalari va boshqalar.

6. Pedagogik, jumladan, farzand tarbiyasida oilaning o'rni, uning pedagogik salohiyati, oila tarbiyasining o'ziga xos hususiyatlari, ota-onaning tarbiyaviy vazifalari va ota-onalarning pedagogik madaniyatini oshirish yo'llari haqidagi g'oyalarni shakllantirish.

7. Iqtisodiy va moliyaviy: oila byudjeti, kundalik turmush

madaniyati, ro'zg'or yuritish qobiliyati va boshqalar haqidagi bilimlar bilan qurollantirish. Shu jihatdan Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash markazlarida 6 ta yo'nalish bo'yicha nikohlanuvchilarni tayyorlash mazmuni tanlangan. Bular:

- oilaviy huquqiy munosabatlar;
- oilaviy turmush psixologiyasi;
- reproduktiv salomatlik asoslari;
- iqtisod va oila byudjeti;
- ota-onalik ijobiy ko'nikmalari;
- ma'naviy-ahloqiy qadriyatlar.

Nikohlanuvchi shaxslarni oilaviy huquqiy munosabatlar bo'yicha tizimli tayyorlash hamda ularning huquqiy savodxonligini oshirish borasida birinchi yo'nalish sifatida "Oilaviy huquqiy munosabatlar" bo'yicha o'qitish joriy qilinmoqda. Nima uchun oilaviy huquqiy munosabatlar birinchi o'rinda? Chunki nikohlanuvchilar yangi huquqiy maqom ostonasida turganliklarini, ular er yoki xotin degan maqomni olgach zimmalarida Qonun tomonidan yuklanayotgan huquq va majburiyatlarini anglab yetishlari lozim. Agar nikohlanuvchilar ma'suliyatni his qilib qonun yuklayotgan maqomni qabul qilsalar oilaviy psixologiya, salomatlik, iqtisod va oila byudjeti, ma'naviy ahloqiy qadriyatlar ham kutilayotgan darajada o'z samarasini berib, Qarorda ko'zlangan farovon oila konsepsiyasiga erishsak bo'ladi. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning huquqiy asoslari bo'lib, asosiy qonunimiz hisoblangan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4 oilaga bag'ishlangan XIV bobining 63-66-moddalarini barcha oilaviy huquqiy munosabatlarning asosi sifatida qayd etish lozim bo'ladi. Jumladan, 63- moddada, oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega. Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanadi. 64-moddada, ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburlar.

Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining

vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi, bolalarga bag'ishlangan xayriya faoliyatlarni rag'batlantiradi. 65-moddada, farzandlar ota-onalarning nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi. 66-modda bo'yicha esa, voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z otaonalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburlar. Bu qoidalarini nikohlanuvchi shaxslar uzluksiz ta'lim tizimida maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan boshlab oliy ta'lim muassasalarida ham bilib kelmoqdalar. Jumladan, "Konstitutsiya alifbosi", "Konstitutsiya saboqlari", "Konstitutsiya asoslari", "Davlat va huquq asoslari", "Konstitutsiyaviy huquq", "Huquqshunoslik" kabi fanlar va o'quv kurslari o'qitilib kelinadi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2001 yil 4 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida"gi F-1322-sonli farmoyish asosida joriy qilingan tizim bugungi kunda ham davom ettirilmoqda. Ushbu tizimning yosh nikohlanuvchilar bilan aloqadorligi shundaki, nikohlanuvchilar maktabda va oliy ta'lim tizimida olgan bilimlari bazasiga asoslanib oilaviy huquqiy munosabatlarning konkret, muhim jihatlari bilan boyitadi. O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksi nikohlanuvchilarni oilaviy hayotga tayyorlashning huquqiy asoslaridan biri hisoblanadi. Oila kodeksi bilan tartibga solingan nikoh, er-xotinning huquq va majburiyatlari, nikohni tugatilishi, ota-ona va voyaga yetmagan bolalarning huquq va majburiyatlari, aliment majburiyatlari kabi oilaviy huquqiy institutlar yosh oila qurayotgan nikohlanuvchilarning huquqiy ong va madaniyatini oshirishda ahamiyatlidir. Zero, Oila Kodeksining 1-moddasida Oila to'g'risidagi qonun hujjatlarining vazifalari oilani mustahkamlashdan, oilaviy munosabatlarni o'zaro muhabbat, ishonch va hurmat, hamjihatlik, bir-biriga yordam berish hamda oila oldida uning barcha a'zolarining mas'ulligi hissi asosida qurishdan, biron-bir shaxsning oila masalalariga

qaratilgan. Bu esa ularda tengdoshlari va yaqinlari bilan o'zaro munosabatlari, shu bilan birga, kelgusida oilaviy hayotda faol pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu kabi chora tadbirlar Rossiya Federatsiyasida ham amalga oshirilib kelinmoqda. Lekin tahlillar shuni ko'rsatadiki, mazkur davlatlarning ajralishlar va oiladagi zo'ravonliklar, farzandlar huquqlarining buzulishi bo'yicha yuqori pog'onalarni egallamoqda. Rivojlangan mamlakatlar AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniyada ham maxsus kurslar, maktablarda fanlar ham joriy qilingan. Bu borada Singapurda ijobiy natijalar qayd etilgan. Mamlakatda so'nggi 5 yillik statistika natijalari 1,8 shkalasida ajralishlarning "Ijtimoiy munosabatlarda va oilani rivojlantirish Vazirligi" veb tarmog'i orqali nikohlannuvchilarga nikoh ta'limi dasturlarini tashkil etib ularni oilaviy hayotlari davomida ham qo'llab-quvvatlab keladi. Ushbu ta'lim dasturlari quyidagilar: - munosabatlarni mustahkamlash dasturi; - fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlarida nikohga tayyorlash dasturlari; - Singapur fuqarolari uchun nikoh dasturlari va chet elliklar bilan oila qurayotgan juftlar uchun dasturlar; - musulmon bo'lgan juftliklar uchun nikohga tayyorlash dasturlari; - voyaga yetmaganlar uchun majburiy nikoh dasturlari; - nikohgacha maslahat xizmatlari kiritilgan. Ushbu davlat tajribasiga ko'ra, qisqa kurslar bilan cheklanmasdan, talabgorlar uchun uzluksiz tarzda davom ettiriladi.

Demak, o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, xorijiy tajribada uzluksiz tashkil etilgan oilaviy hayotga tayyor bo'lish va oilaviy hayot davrida ham zaruriy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish muhim. Xulosa o'rinda, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashni kompleksligi va uzviyligini ta'minlash muhimdir. Bunda sertifikat olgan oilalarning 3 yillik, 5 yillik, 7 yillik oilaviy turmushlaridagi o'zgarishlarni mahallabay tarzda monitoring va kuzatuvini davom ettirish maqsadga muvofiq. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash markazlarining haqiqiy

o'zboshimchalik bilan aralashishiga yo'l qo'ymaslikdan, oila a'zolari o'z huquqlarini to'sqinliksiz amalga oshirishini hamda bu huquqlarning himoya qilinishini ta'minlashdan iboratdir. Nikohlannuvchilar uchun bu kabi 5 tushunchalarni anglash va yangi hayot arafasida turganlaridayoq huquq va majburiyatlardan qanday foydalanish va to'g'ri qanday o'z huquqlarini himoya qila olishlari muhim.

Masalaning boshqa jihatiga ahamiyat qaratadigan bo'lsak, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash bo'yicha tashkil etilayotgan mazkur kurslar o'z samarasini beradimi? Yoki haqiqiy samara berishi uchun yana qanday ishlar amalga oshirilishi lozim? So'nggi yillardagi dunyo statistikasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, 0 - 5 shkalasi bo'yicha har 1000 kishi boshiga 2020 yilda ajralish darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlar gatorida Latviya - 4,3, Ukraina - 3,1, Belarusiya - 3,4, Moldova - 3,7, Rossiya - 4,7 ko'rsatkichlari bilan qayd etilgan. Ajralish darajasi past bo'lgan mamlakatlar Qatar - 0,4, Gvatemala - 0,4, Peru - 0,5, Irlandiya - 0,6, Makedoniy - 1,0 hamda O'zbekiston - 1,0 ko'rsatkichi bilan sakkizinch o'rinda kelmogda. Vaholanki, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash tajribasi bo'yicha Latviyada 2017 yilda hukumat tomonidan nikohga kiruvchi yoshlarga bepul kurslarni tashkil etish uchun sakkiz ming yevro ajratilgan. Mazkur kurslar ariza bergan nikohlannuvchilarga FHDYO tomonidan taklif etilgan. Unda 4 ta modul asosida oilada iqtisodiy savodxonlik, nikohning huquqiy jihatlari, axloqiy va psixologik masalalar, shuningdek, ota-onaning huquq va majburiyatlari o'qitiladi. Har bir modul 6 soatga mo'ljallangan bo'lib, umumiy kurs 24 soatni tashkil etadi. Hukumat tomonidan yo'lga qo'yilgan bepul kurslar oilani mustahkamlashga, shuningdek, oila bilan bog'liq salbiy holatlarni bartaraf etishga xizmat qilishga qaratilgan. Belarusiyada esa 10-11 sinf o'quvchilari uchun "O'quvchilarni oilaviy hayotga tayyorlash" fakultativ mashg'ulotlar o'quv dasturi faoliyati yo'lga qo'yilib, o'quvchilarda oila va nikoh institutlariga nisbatan oliy munosabatlarni shakllantirishga

samara berishi, kelajakda oilaviy ajralishlarning oldi olinishida muhimdir.

Yoshlarda psixologik yetuklikning hal qiluvchi ahamiyatga egaligi.

«Yetuklik» — rivojlanishning ma'lum bir bosqichi, fazasi, chegarasiga yetilganlikning sifatii va miqdoriy xarakteristikasini ma'lum bir aniqlikda belgilab beruvchi ko'rsatkich bo'lib xizmatqiladi. Odamning nikohga, oilaviy hayotga yetukligi masalasi esa o'ta murakkab biron-bir qat'iy me'yor bilan o'lchab bo'linmaydigan individual xarakterga ega bo'lgan ko'rsatkichdir. Shu keltirib o'tilganlarning o'ziyoq nikoh oldi omillari qay darajada murakkab xarakterga yega bo'lgan muammolardan ekanligini ko'rsatib turibdi. Hozirgi zamon oilasining ijtimoiy psixologik muammolarini yoritishga bag'ishlangan psixologik adabiyotlarda nikoh oldi omillarining turlicha shakllari, ko'rinishlari farqlanadi. Quyida Sizning e'tiboringizga ularning ayrimlari haqidagi ma'lumotlarni havola etamiz.

Nikoh oldi omillari qatoriga shu oila qurayotgan yoshlarning: oilaviy hayotga yetukligi; ularning oila qurish motivlari; ularning oila qurishgunlariga qadar bir-birlarini tanishlik muddati (qancha vaqt bir-birini tanishligi) shartlari va sharoitlari; ularni o'zlarining bo'lg'usi oilaviy hayotlari haqidagi tasavvurlari kabilarni kiritish mumkin. Albatta, bu omillarning har biri turli yoshlarda turlicha xarakterda bo'lishi mumkin, shu bilan birga ularning har biri o'z navbatida yana bir necha turlarga farqlanadi. Masalan, nikohga yetuklik deyilganda oila quruvchi yoshlarning: jismoniy (fiziologik), jinsiy, huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy, psixologik kabi yetuklik jihatlarini farqlash mumkin. Bularning orasida huquqiy, jinsiy yetuklik ko'rsatkichlari yetarlicha aniqalomatlarga, belgilarga ega bo'lgan va bular haqida tegishli huquqiy, tibbiy, psixologik adabiyotlarda ko'plab ma'lumotlar berilgan jihatlar bo'lsa, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy, psixologik jihatlar biroz murakkabroq, qat'iy bir

ko'rsatkich, chegaraga ega emasligi bilan xarakterlanadi. Jinsiy yetilish qat'iy jinsiy ehtiyojlarning shakllanishiga olib keladi. Bu davrga kelib bolalarda ikkilamchi jinsiy alomatlar namoyon bo'la boshlaydi. Jinsiy sekresiya bezlarining faolligi ortadi. Qiz bolalarda oylik sikllari (menstruatsiya), o'g'il bolalarda pollyusiyalar ro'y bera boshlaydi. Boshqacha qilib aytganda, ularda pubertat davr boshlanadi. (Bu davr haqida va uning xususiyatlari haqida 4-mavzuda batafsil ma'lumotlar berilgan). Demak bu davrga kelib bolalarning moddiy va ma'naviy qiziqishlarining o'sib borishi bilan bir qatorda jinsiy ehtiyojlar shaxs faolligining kuchli manbalaridan hisoblanib, u turli psixologik va ijtimoiy shakllarda namoyon bo'la boshlaydi. Jinsiy maylning, jinsiy ehtiyojning yuzaga kelishi odamni biologik rivojlana boshlashining o'ziga xos bosqichidir. Ular bola ruhiyatining rivojlanishiga, uni shaxsining shakllanishiga, hayot faoliyatining boshqa jihatlariga katta ta'sir ko'rsatadi. Jinsiy hayotning ko'plab muammolarini nafaqat yoshlarga, balki uzoq vaqt oila qurgan, farzandli bo'lgan katta yoshlilarga ham tushuntirib o'tish lozim bo'ladi, chunki ularda ham shu asosda ko'plab jiddiy nizolar yuzaga kelishi mumkin. Jinsiy munosabatlar masalasi o'ta nozik masaladir, bu borada ko'pincha «yolg'on, bachkanalarcha uyatchanlik»ka duch kelinadi. Ba'zi bir ota-onalar va o'qituvchilar hatto maorif rahbarlari ham maktabda jinsiy tarbiya berish masalasiga e'tiroz bildiradilar va «Jinsiy tarbiya, jins masalasiga oid barcha zarur ma'lumotlar biologiya kurslarida berilgan, buning ustiga «ota-bobolarimiz bunday jinsiy savodxonliksiz ham binoyidek yashaganlar», — qabilida mulohaza yuritadilar. Albatta, bunday nuqtayi nazar o'ta qoloq, bugungi kun nikoh-oila munosabatlari talablarini, hozirgi zamon oilasi vazifalarini hisobga olmay chiqarilgan xulosalardir. Aynan shunaqa yo'llar bilan yoshlarga jinsiy tarbiyadek o'ta nozik va zarur masalalar yuzasidan beradigan har qanday sanitar-gigiyenik oqartuv ma'lumotlarning ahamiyati butunlay kamsitib kelinmoqda. Bu esa millionlab

o'smirlarning jinsiy balog'atga yetishish vaqtida g'aflatda qolishlariga va buning oqibatida ayrim hollarda hayotda tuzatib bo'lmaydigan xatolarga yo'l qo'yishiga olib kelishiga sabab bo'lmoqda. Hech nima bilan asoslanmaydigan xavotir, hadik, gohida esa haqiqiy vahima zaminida o'smir xulqida turli xil og'ishlar, nerv-fiziologik buzilishlar yuzaga kelishi mumkin. Bularning barchasi sanitar-gigiyenik tarbiyaning yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi va jinsiy tarbiyani berilmaganligining natijasidir. Bu masala ayniqsa bizning etnosimizda o'ta jiddiy mohiyat kasb etadigan masaladir.

Jinsiy tarbiya masalasiga ko'pincha yo alohida e'tibor talab qilinmaydigan va hech qanday qiyinchilikni yuzaga keltirmaydigan, har bir yosh guruhi uchun osongina o'zlashtirish mumkin bo'lgan, yoki o'ta shaxsiy, intim, ko'pchilik orasida, ayniqsa bolalar orasida muhokama qilib bo'lmaydigan masalatarzida qaraladi. Shu kabi mulohazalar qator mamlakatlarda, ayniqsa sobiq ittifoqda jinsiy tarbiyaga oid materiallarni, bunga taalluqli tadbirlarni maktab dasturidan chiqarib tashlanishiga asos bo'lgan. Bu o'rinda jinsiy tarbiyani, organizmning faoliyatihaqidagi bugungi kunda har bir odam o'zlashtirishi, bilishi zarur bo'lgan sanitar-gigiyenik, psixogigiyenik ma'lumotlar bilan uzviy bog'liq tarzda qaralishi maqsadga muvofiqdir. Oilaviy hayotda esa jinsiy hayot psixologiyasi haqidagi bilimlarga ega bo'lish o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lgan masaladir. Turli mutaxassislar tomonidan berilgan ma'lumotlarni kompleks tahlil qilgan holda aytish mumkinki, har bir to'rtinchi ajralishgan er-xotinlarda (ajralishlarning 29%ida) jinsiy mutanosiblikning u yoki bu tarzda buzilishi (er-xotinning jinsiy nomutanosibligi) sabab bo'lmoqda. Albatta, o'zaro sevgi, ishonch va hurmat hislari, qiziqishlar va niyatlarning umumiyliigi hislari qisqa vaqt oralig'ida yuzaga kelgan va shunga ko'ra shoshilinch oila qurgan juftlarga jinsiy hayot psixologiyasi borasidagi bilimlar o'z-o'zidan yordam bera olmasligi mumkin. Bunday

tezlikda, qisqa vaqtda (sovchilar, qarindoshlar orqali bir-ikki haftadayoq) yuzaga kelgan oilalar miqdori, ayniqsa, so'nggi yillarda bizning millat vakillari o'rtasida ortib bormoqda. Yoshlarning bir-birlariga nisbatan bo'lgan yoqtirishi va ijobiy emotsional hislari kompleksiz bu bilimlarning samarasi past bo'ladi. Ular faqat er-xotinlar birbirlarini yoqtirganlari, bir-birlari uchun jozibali bo'lgan holatlardagina, er-xotinlarining intim hayotini muvofiqlashtiradi. Boshqa tomondan nikohdagi jinsiy hayot psixogigiyenasi muammolaridan qandaydir «bo'lmag'ur, uyat narsa» sifatida voz kechish ham kerak emas. Chunki, ko'pchilik hollarda jinsiy hayot psixogigiyenasi sohasidagi ilmiy bilimlar yosh er-xotinlar ga yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan ayanchli xatolardan qutulishga va shu bilan o'z nikohlarini saqlab qolishlariga yordam berishi mumkin. Shunday qilib, jinsiy yetuklik odam anatomiyasi va fiziologiyasi nuqtayi nazaridan yetarlicha aniq va ravshan bo'lgan hodisadir. Biroq uning psixologik, axloqiy jihatlari o'ta murakkab. Shuning uchun ham odamning nikohga jinsiy yetukligi deyilganda uning fiziologik nuqtayi nazardagina yetilishini nazarda tutish jinsiy yetuklikning to'liq mohiyatini bildirmaydi, bundan tashqari odam jinsiy hayot psixogigiyenasi borasida ham zarur ilmiy psixologik bilimlarga, to'g'ri tasavvurlarga ham ega bo'lmog'i zarur. Bu esa shubhasiz alohida e'tibor, maxsus tayyorgarlik, o'qitishni talab qiladigan jarayondir. Yoshlarni nikohga jinsiy yetuklik masalasidan tashqari yuqorida keltirib o'tilganidek yana bir nechta ijtimoiy yetuklik turlarini farqlash mumkin. Bular: jinsiy, fuqarolik, kasb-hunar, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy, axloqiy va psixologik yetukliklardir. Bularning orasida yoshlarning jinsiy (fiziologik) yetukligi boshqalariga qaraganda ancha erta amalga oshadi, quyida bu masalalarga bog'liq ravishda yana qanday muammolar majmuyining yuzaga kelishi mumkinligi haqida to'xtalib o'tamiz. Fuqarolik, huquqiy yetuklik — bu odamning huquqiy jihatdan balog'atga yetish yoshi bilan, u huquqiy jihatdan oila qurish, farzand ko'rish huquqiga yega

bo'lgan shaxs bo'lib hisoblanishi bilan belgilanadi. Bizning mamlakatimizda bu 18 yosh deb ko'rsatilgan. Bu vaqtda u Konstitutsiyada belgilangan barcha huquq va majburiyatlardan foydalana oladigan bo'ladi. 18 yoshni shaxsning huquqiy **yetuklik yoshi** deb hisoblash mumkin.

Kasb-hunar yetukligi — bu ham ancha murakkab tushunchadir. Uning murakkabligi shundaki, bir tomondan u qandaydir bilim yurtini, o'quv kurslarini bitirish, ya'ni ma'lum bir ish turini bajarish uchun zarur bo'lgan maxsus bilimlarga ega bo'lish bilan belgilanadi. Biroq odam u yoki bu bilim yurtini (kollej, litsey, texnikum, institutni) bitirganidan keyin o'zi tanlagan kasbi bo'yicha bir necha yil ishlab ko'rishi kerak bo'ladi va shundan keyingina uning kasb-hunar yetukligi haqida gapirish mumkin. Shu bilan birga ba'zi bir kasblar bo'yicha 19—20 yoshlardayoq kasb-hunar yetukligiga erishish mumkin bo'lsa, boshqalarda masalan xirurg-vrachlikda kechroq 29—30 yoshga yetganda bunga erishish mumkin. Shaxsni yetukligining yana bir jihat iqtisodiy yetuklikdir. Bunda odamning o'zini va o'z oilasini moddiy jihatdan mustaqil ta'minlay ola bilishligi nazarda tutiladi. Yoshlarni oila qurishlarida, ularning iqtisodiy mustaqilligi alohida ahamiyatga ega. Bu o'rinda ham turlicha yosh chegaralari mavjud, yoshlarning ayrimlari 18—19 yoshidayoq ota-onasi oilasidan iqtisodiy mustaqillikka erishishi mumkin, boshqalari esa 25—30 yoshlarida ham ota-onalarining moddiy yordamidan foydalanadilar. Bu yetuklik jihatlari orasida shaxsning ma'naviy va axloqiy yetukligi haqida gapirish eng murakkabidir. Chunki bu jihat haqida aniq bir mezon va tavsif hozircha ishlab chiqilmagan. Shunday qilib, «yetuklik» tushunchasi o'zicha ko'plab jihatlarni mujassamlashtiradi. Shuni aytib o'tish joizki «yetuklik» tushunchasi, albatta ma'lum bir hayotiy tajriba bilan, ya'ni «hayotiy bilimlar» bilan uzviy bog'liqdir. «Hayotiy bilimlarni o'zlashtirish», «Hayot universitetlaridan» o'tishning ham o'ziga xos individual xususiyatlari mavjud. Kimdir 20

yoshidayoq «hayotni yaxshi bilib oladi», kimdir 30 yoshida ham bolaligicha qolaveradi. Bunga mavjud ijtimoiy sharoit, jamoatchilik va ijtimoiy tartibning ta'siri katta. Ma'lumki oldingi vaqtlarda, ayniqsa urush yillari bolalar kattalar ham hamma vaqt uddalay olavermagan hayotiy qiyinchiliklarni boshidan kechirganlar. U vaqtlarda 12—14 yoshdanoq bolalar onalariga oilani ta'minlashda yordam berganlar. Shuningdek shahar va qishloq joylarda istiqomat qiladigan, kam farzandli va ko'p farzandli oilalarda, nuklear yoki ko'p tabaqali oilalarda o'sayotgan bolalarning ham oilani moddiy, ijtimoiy ta'minotiga hissa qo'shish, bu ishlar bilan shug'ullanish muddatlari va miqdori turlichadir. Hayotni bilish, hayotiy tajribalar turli individlarda turlicha jadallikda amalga oshishi mumkin va bu o'rinda qandaydir bir yosh, vaqt oralig'ini ko'rsatishi mutlaqo mumkin emas. Buning ustiga hayotni, bizni o'rab turgan atrof olamni bilish o'z navbatida cheksizdir. Shunga qaramay ijtimoiy va iqtisodiy yetuklikning ma'lum bir minimum chegaralarini belgilab olish mumkin, ya'ni shunday hayotiy tajriba, bilimlar «minimumi» mavjudki, ularsiz biron-bir yoshni, yigit-qizni tom ma'noda yetuk deb hisoblab bo'lmaydi.

Mana yuqorida keltirib o'tilganlarning o'ziyoq «yetuklik» tushunchasi naqadar keng tushuncha ekanligini ko'rsatib turibdi. Shunga qaramay biz undan foydalanishga majburmiz. Chunki u nikohning mustahkamligini belgilab beruvchi muhim shart-sharoitlarni, vaziyatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Gap shaxsning psixologik yetukligi haqida borgudek bo'lsa, bunda dastavval uning turli hayotiy vaziyatlar va sharoitlarni hushyor baholay olishi nazarda tutiladi. Bu hushyorlik amaliylik, voqelikni to'g'ri baholay olish shaxsda o'zining yutuq va kamchiliklarini, bilim, malaka va qobiliyatlarini yetarlicha ob'ektiv baholay olishda ham namoyon bo'lishi kerak. Afsuski, ko'pincha yoshlar o'z qobiliyatlarini orttirib baholab, o'z oldilariga yerishib bo'lmaydigan maqsadlarni qo'yib olishi hollariga duch kelinadi. Ayniqsa, oilaviy hayotni tasavvur qilish,

unda o'z o'rnini baholash masalasida yoshlarimiz ko'proq xatoga, o'zlarini orttirib baholashga, oilaviy hayotdan mumkin bo'lganidan ko'proq narsani kutish hollari ko'proq kuzatiladi. Natijada muvaffaqiyatsizliklar, pushaymon bo'lishlar, asab buzilishlar yuzaga keladi. Psixologik yetuk shaxs esa aksincha, o'z oldiga erishishi muqarrar bo'lgan, bunga imkoniyatlari yetarli bo'lgan maqsadlarni qo'yadi, o'z hayot yo'lini va unga erishish vositalari va usullarini to'g'ri belgilaydi. Bunday shaxs o'z hissiyoti, kechinmalarini yetarlicha yaxshi nazorat qila bilishligi, ya'ni ichki intizomining yuqori rivojlanganligi bilan xarakterlanib turadi. Psixologik yetuklik boshqa odamlarning xohish, istaklari, kechinmalarini tushunish bilan ma'lum darajada bog'liq. Bu o'z navbatida muloqotning, hamkorlikning yaxshi yo'lga qo'yilishiga, oilada, turli guruhlarda garmonik munosabatlarning o'rganilishiga imkon beradi. Turli yoshdagi, mansab, lavozim, toifadagi odamlar bilan, qiziqishi, odati, ta'bi, turmush tarzi mutlaqo boshqacha bo'lgan odamlar bilan o'rinli munosabatda bo'la olish — shaxsning psixologik yetukligining asosiy xususiyatlaridan biridir. Yoshlar oila qurayotganlarida bu xususiyatlar hal qiluvchi bo'lib hisoblanadi. Albatta, bunday qobiliyatlar bir kunda shakllanmaydi. Ular oldingi hayoti davomida unga berilgan tarbiya ta'sirida asta-sekinlik bilan shakllanadi.

Psixologik yetuklikning shaxs hulqining turli yashash sharoitlariga moslashuvchanligida ifodalanishi.

Psixologik yetuklik, shaxs xulqini turli yashash sharoitlariga moslashuvchanligida ifodalanadi. Psixologik yetuklik shaxsning boshqa odamlarga nisbatan bo'lgan ijobiy munosabatlari: hamdardlik, hamfikrlik, g'am-tashvishga sherik bo'la olish, o'zaro yordam kabilar tarzida namoyon bo'la oladigan ma'naviy sifatlarning tarkibiy jihatlarini o'zida biriktiradi. Psixologik yetuklikning muhim mezonlaridan biri shaxsda oilaviy muammolarni adolatli hal etishga xizmat qiluvchi o'z mustaqil fikri, qarashi, pozitsiyasi bo'lishi, zarur bo'lganda

oila manfaatida o'z qarashlarini ota-onalari oldida himoya qila olishidir.

Gap shaxsning psixologik yetukligi haqida borgudek bo'lsa, bunda dastavval uning turli hayotiy vaziyatlar va sharoitlarni hushyor baholay olishi nazarda tutiladi. Bu hushyorlik amaliylik, voqelikni to'g'ri aholay olish shaxsda o'zining yutuq va kamchiliklarini, bilim, malaka va qobiliyatlarini yetarlicha ob'ektiv baholay olishda ham namoyon bo'lishi kerak. Afsuski, ko'pincha yoshlar o'z qobiliyatlarini orttirib baholab, o'z oldilariga erishib bo'lmaydigan maqsadlarni qo'yib olishi hollariga duch kelinadi. Ayniqsa, oilaviy hayotni tasavvur qilish, unda o'z o'rnini baholash masalasida yoshlarimiz ko'proq xatoga, o'zlarini orttirib baholashga, oilaviy hayotdan mumkin bo'lganidan ko'proq narsani kutish hollari ko'proq kuzatiladi. Natijada muvaffaqiyatsizliklar, pushaymon bo'lishlar, asab buzilishlar yuzaga keladi. Psixologik yetuk shaxs esa aksincha, o'z oldiga erishishi muqarrar bo'lgan, bunga imkoniyatlari yetarli bo'lgan maqsadlarni qo'yadi, o'z hayot yo'lini va unga erishish vositalari va usullarini to'g'ri belgilaydi. Bunday shaxs o'z hissiyoti, kechinmalarini yetarlicha yaxshi nazorat qila bilishligi, ya'ni ichki intizomining yuqori rivojlanganligi bilan xarakterlanib turadi. Psixologik yetuklik boshqa odamlarning xohish, istaklari, kechinmalarini tushunish bilan ma'lum darajada bog'liq. Bu o'z navbatida muloqotning, hamkorlikning yaxshi yo'lga qo'yilishiga, oilada, turli guruhlarda garmonik munosabatlarning o'rganilishiga imkon beradi.

Turli yoshdagi, mansab, lavozim, toifadagi odamlar bilan, qiziqishi, odati, ta'bi, turmush tarzi mutlaqo boshqacha bo'lgan odamlar bilan o'rinli munosabatda bo'la olish - shaxsning psixologik yetukligining asosiy xususiyatlaridan biridir.

Yoshlar oila qurayotganlarida bu xususiyatlar hal qiluvchi bo'lib hisoblanadi. Albatta bunday qobiliyatlar bir kunda shakllanmaydi. Ular oldingi hayoti davomida unga berilgan tarbiya ta'sirida asta-sekinlik bilan shakllanadi.

Psixologik yetuklik, shaxs xulqini turli yashash sharoitlariga moslashuvchanligida ifodalanadi. Psixologik yetuklik shaxsning boshqa odamlarga nisbatan bo'lgan ijobiy munosabatlari: hamdardlik, hamfikrlik, g'am-tashvishga sherik bo'la olish, o'zaro yordam kabilar tarzida namoyon bo'la oladigan ma'naviy sifatlarning tarkibiy jihatlarini o'zida biriktiradi. Psixologik yetuklikning muhim mezonlaridan biri shaxsda oilaviy muammolarni adolatli xal etishga xizmat qiluvchi o'z mustaqil fikri, qarashi, pozitsiyasini bo'lishi, zarur bo'lganda oila manfaatida o'z qarashlarini ota-onalari oldida ximoya qila olishidir.

Nikoh oldi omillari orasida eng xarakterlilaridan yana biri oila qurayotgan yoshlarning yosh xususiyatlaridir. Chunki bu ko'rsatkichlar ham nikoh mustahkamligida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Quyida shular haqida to'xtalib o'tamiz.

Muloqot madaniyati oilaviy hayotga tayyorlikning bir yo'nalishi sifatida. Odamlar o'rtasidagi muloqot va uning umumiy qonuniyatlari odam turmush tarzining barcha jabhalarida boshqa odamlar bilan bo'ladigan o'zaro munosabatining eng muhim shartlaridan hisoblanadi. Odamning aqli, irodasi, hissiy madaniyati, tarbiyalanganligi, nazokatligi va shu kabilarning barchasi muloqot tufayli shakllangan xislatlardir. Shu bilan birga uyqusizlik, bosh og'rig'i, nevrozlar, insultlar, infarktlar va boshqa turli kasalliklar, shuningdek ichkilikka, giyohvand moddalarga ruju qo'yish, hatto o'z joniga qasd qilish kabilar ham shu muloqotning natijasidir. Rivoyatlarda aytilishicha, dono Ezop o'z xo'jayinining «Menga avval, dunyodagi eng mazali, shirin taomni keltir va undan so'ng aksincha eng bemaza, yaramas taomni keltir», - deb buyurganida, u har ikkala safar ham qaynatilgan tilni keltirgan ekan. Demak, til, muloqot inson hayotida ndan qanday foydalanish, uni qanday ishlatish, qanday tashkil qilishga qarab, uning uchun eng aziz, eng qadrli bo'lishi yoki aksincha eng fojiali bo'lishi ham mumkin.

Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida odamlar kundalik muloqotining tezlashuvi, aholi zichligining ortib borishi, odamlar turmush tarzining jadallashuvi, ularning ruhiy zo'riqish va ta'sirlanuvchanligining kuchayib borishi kabi holatlar bugungi kunda odamlarning muloqot madaniyatining yuqori darajada bo'lishini taqazo etadi.

Muloqot madaniyati. Muloqot madaniyatiga birinchidan, o'z-o'zini bilish va boshqa odamlarni tushuna olish qobiliyati, ya'ni ularning psixologik xususiyatlarini to'g'ri baholay olish, ikkinchidan, ularning xulqi va holatlariga nisbatan mos (adekvat) munosabat bildirga olish, uchinchidan, har bir odamga nisbatan uning shaxsining individual xususiyatlariga eng ma'qul keladigan muloqot shakli, usuli va stillarini tanlay bilish kiradi. Muloqot madaniyatini oshirish uchun odamda ilk yoshlikdan boshlab boshqa odamlarga hurmat va samimiyat bilan munosabatda bo'lishni, ularga hamdardlik, insonparvarlik, mehribonlik qilish qobiliyatlarini shakllantirib borish kerak bo'ladi.

Muloqot eng avvalo odamni odam tomonidan idrok qilishidan boshlanadi, unda dastlabki o'zaro baholash amalga oshadi, dastlabki hissiy-intellektual munosabatlar shakllanadi va shundan so'ng tegishli muloqot shakli amalga oshiriladi. Bu jarayonda odam haqidagi ma'lumot, idrok etilayotgan odamning hayotiy tajribasi, u yoki bu munosabat shaklini yoqtirishi yoki yoqtirmasligini yuzaga keltiradigan bevosita emotsional munosabatlar muhim rol o'ynaydi.

Muloqotda buyruq ohangining ustunligi, do'q-po'pisa ohangida keskin shaklda muomalada bo'lish, suhbatdosh nomiga tez-tez bildirilib turiladigan e'tirozlar, uning hatti-harakati va fikrlaridan norozilikni ifodalash, yo'l bermaslik va tajovuzkorlikni namoyon qilish, oilada o'zaro raqobat (yoki hukmronlik-bo'ysinuvchanlik) munosabatlarini yuzagakeltiradi. Befarqlik, e'tiborsizlik, qo'pollik, bemehrlilik, behurmatlik kabilar oiladagi samimiy muloqotga putur yetkazadi. Agar aksariyat

hollarda iltimoslardan, maslahatlardan, o'zaro kelishuvli savol-javoblardan, o'z niyat-istaklarini, hatti-harakatlarini xotirjamlik bilan bayon qilish usulidan foydalanilsa, agar oilada o'zaro yordam, o'zaro tushunish, bir-birlariga yon berish odat bo'lsa, unda bunday oilalarda do'stona munosabatlar o'rnatiladi, oilaviy hayot uchun eng maqbul bo'lgan psixologik muhit yuzaga keladi.

Odamlar o'rtasida bir-birlarini tushunishning yetishmasligi ko'pincha muloqotdagi to'siq, shaxslararo munosabatlarni buzilishining sababi bo'lib hisoblanadi. Bizlar boshqa odamlar bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlarimizda nima uchundir, o'zimizning fikr-o'ylarimiz, niyatlarimiz suhbatdoshimizga ayon deb hisoblaymiz. Bundan tashqari hamma odamlar ham bolaligidan boshqa odamlarning emotsional holatlarini his qilish, ularni ko'rish, ular bilan hisoblashish, ularni tushunishga intilishga o'rgatilavermaydi. Shuning uchun ham ko'pchilik holatlarda hatto bir-biriga eng yaqin, bir-biriga zid manfaatlarga ega bo'lmagan odamlar ham hayotda bir-biriga noxushliklarni yetkazishi mumkin. Albatta, bu ishlarni ular bir-birlariga yomonlik, yovuzlik qilish niyatida, yoki o'zlari yovuz odamlar bo'lganliklari uchun emas, balki, shunchaki bir-birini tushunmaganliklari «nima qilayotganliklarini bilmaganliklari» uchun sodir etadilar. Shunga o'xshash holatlar odamlarning o'zaro munosabatlari, muloqotlarida o'ziga xos to'siq vazifasini bajaradi.

Muloqot jarayonida yuzaga keladigan to'siqlar. Ijtimoiy psixologlar muloqot jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan to'siqlarning quyidagilarini farqlaydilar: psixologik, vaziyatli, mazmuniy va motivatsion to'siqlardir.

Psixologik to'siq - bu sherigiga ma'qul tushmay qolish, tushunilmay qolishdan qo'rqish, u tomondan inkor etilish va kalaka qilinishdan yoki keskinlikdan qo'rqish, eng ezgu hislarini va niyatlarini samimiy izhor etishiga javoban qo'pollik bilan javob berilishi mumkinligidan xavotirlanish kabilar

tufayli intellektga oid, mehribonlikka oid, kuchga oid shaxsiy imkoniyatlarini namoyon qilish va amalga oshirishga halaqit beruvchi, o'ziga hos ichki psixik tormozdir.

Vaziyatli to'siqlar - bu suhbatdoshlarning bir xil vaziyatni turlicha tushunishlari, unga turlicha yondashishlari bilan bog'liq.

Mazmuniy to'siqlar - odatda suhbatdoshini tushunmaganlik tufayli, uning mazkur jumlasini qanday ma'noda aytilgani, u qanday fikrni ilgari surayapti, nimani nazarda tutayapti, nimaga olib boradi va shu kabi mulohazalarga borish tufayli yuzaga keladi.

Motivatsion to'siqlar - shunday vaziyatlarda yuzaga keladiki, bunda gapirayotgan odam yo o'zi bayon qilayotgan fikrning motivini yetarlicha anglay olmaydi yoki u atayin ularni (asosiy motivni) yashirishga harakat qilayotgan bo'lishi mumkin.

Bulardan tashqari muloqotga to'siq bo'lib, suhbatdoshlarni psixologik madaniyatlilik nuqsonlaridan biri, ya'ni ularning na eshitishni va na tinglashni bilmasligi, «teskari aloqaning» yo'qligi xizmat qilishi mumkin. Odamlar o'rtasidagi suhbat ko'pincha ularda aqlning yetishmasligi tufayli emas, balki ularning xudbinligi tufayli: har biri o'zi haqida yoki o'zini qiziqtiradigan masalalar haqida gapirishga intilishligi tufayli kutilganidek amalga oshmay qolishi mumkin. Oqibatda bitta «aqli» dialog o'rniga, ikkita behuda, hatto zararli monolog amalga oshadi. Shuning uchun ham muloqotga, suhbatlashish san'atiga o'rganish, ijtimoiy-psixologik madaniyatni egallash, o'zi, o'z kayfiyati va hissiyotlarini boshqara olish, bilim va malakalarini ishlab chiqish, o'z gapini bilan suhbatdoshini qiziqтира olish qobiliyatini rivojlantirishga erishish kerak. Biroq, buning uchun birinchi navbatda har qanday muloqotning umumiy qoidasi: boshqa odamlarning, o'z suhbatdoshlarining ehtiyojlari, xohishlarini qondira oladigan odamgina hurmatga erisha olishligini yodda tutishi lozim.

Oilaviy hayot haqidagi tasavvurlar.

Oila mustahkamligiga hal qiluvchi ta'sir yetuvchi nikoh oldi omillaridan yana biri — yoshlarning o'z oilaviy hayoti haqidagi tasavvurlaridir. Ularning qanchalik reallikka yaqin bo'lishi, shu oila mustahkamligining bosh garovi hisoblanadi. Afsuski, hamma vaqt ham yoshlarimizning oilaviy hayot haqidagi tasavvurlari reallikka mos kelavermaydi, balki u aksariyat hollarda reallikdan tubdan farq qiladi. Hind afsonalaridan birida yoshlarning oilaviy hayot haqidagi tasavvurlari va ularning reallikka nisbatini qiyoslashga mos keladigan ajoyib bir rivoyat mavjud. Rivoyatda aytilishicha, tug'ilganidan ko'zi ojiz bo'lgan to'rt nafar ko'rga «Qarshinglarda fil turibdi, sizlar uni umuman ko'rmagansizlar, lekin uni borib ushlab, paypaslab o'rganib chiqinglarda, so'ng fil qanday maxluq ekanligini aytib beringlar», — deyilgan. Ko'rlar borib filni «o'rganib» qaytishganlaridan so'ng ulardan fil qanday hayvon ekanligi so'ralganda, ulardan biri: «Fil — badani dag'al, daraxtga o'xshagan hayvon» — debdi, ikkinchisi uni inkor etib: «Yo'q, fil yerdek yumaloq, odamning qulochi yetmaydigan bir hayvon» — debdi.

Uchinchisi esa, ularni ikkovlarini ham inkor qilib: «Fil ichi teshik uzun, yo'g'on ichakka o'xshaydigan hayvon» — debdi. To'rtinchisi esa: «Fil yoyiq yapaloq katta bargga o'xshagan hayvon» — deb javob bergan ekanlar va ularning har biri o'z fikrini ma'qullayman, o'tkazaman deb bir-birlari bilan janjallashib qolgan ekanlar. Chunki ularning biri filning oyog'iga, ikkinchisi — qorniga, uchinchisi — xartumiga va to'rtinchisi — qulog'iga to'g'ri kelib qolib o'zlarining imkoniyatlari doirasida filni tasavvur qilgan ekanlar. Xuddi shu to'rtta ko'zi ojizdek yoshlarimiz ham oilaviy hayotni butun borlig'icha, to'la, yaxlit tasavvur qila olmaydilar, buning imkoni ham yo'q. Oqibatda oilaviy hayot haqida turli tasavvurlarga ega bo'lgan yoshlarimiz oila qurgudek bo'lsalar, o'z tasavvurlarini reallikka aylantirish, ya'ni juftiga ham shunday ekanligini uqtirishga harakat qiladilar. Va ular ham yuqoridagi ko'zi ojizlardek har

biri «o'zicha haq» bo'la turib, bir-birlari bilan janjallashib, kelisha olmay qolishlari mumkin. Yoshini tanigandan boshlab ertaklar ruhida, badiiy filmlar, romanlar, afsona, rivoyatlar ruhida tarbiyalangan yoshlarimizda hamma vaqt ham oilaviy hayot haqida to'g'ri tasavvurlar shakllanaverishi mumkin emas. Ommaviy axborot vositalari orqali, teleko'rsatuvlar, radioeshittirishlar orqali yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash borasida berilayotgan materiallarda, oilaviy hayotni bir yoqlama, faqat ijobiy tomondan talqin qilish hollari ham ko'p kuzatiladi. Bu kabi holatlar ham yoshlarda oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarning noto'g'ri shakllanishiga sabab bo'lishi mumkin. Ko'pchilik yoshlarimiz, ayniqsa muvaffaqiyatli oilalarda tarbiya topgan yoshlar, oila qurish arafasida bo'lar ekanlar aksariyat hollarda o'zlarining bo'lajak oilaviy hayotlari uchun o'z ota-onasi oilasini ideal qilib oladilar. Chunki ular shu oilada tarbiyalanar ekanlar, «eslarini taniganlaridan buyon» otaonasining nizolashib tortishganlarini, bir-birlarini hurmatsiz qilganlarini eslay olmaydilar. Bunday oilalarda ota-onalar ham o'zlarining o'zaro munosabatlaridagi noxush jihatlarini farzandlariga sezdirmaslikka harakat qiladilar. Yoki ularning o'zaro munosabatlarida ro'y berishi mumkin bo'lgan nizoli damlar, bir-birlariga moslashish jarayonlari nikohning boshida, hali farzandlari dunyoga kelmaslaridan oldin bo'lib o'tib ketgan. Bolalar esa ular turmushining faqat yaxshi, tinch-totuv, ahil-inoqlik, bir-birlariga nisbatan mehr-oqibatli, ibratli jihatlaridagina xabardor bo'ladilar. Shunday oila qurishni tasavvur qilgan yoshlarimiz, oila qurganlaridan so'ng o'zlari kutgandek turmush kechira olmasalar, nikohning dastlabki eng nozik, murakkab, qiyin, yangi ijtimoiy vaziyatlar, sharoitlar, bir-birlariga moslashish jarayonlarida yuzaga kelgan qiyinchiliklar, to'siqlar, muammolar oldida esankirab qolib, oila qurishda «adashganliklari»dan nolib qolishlari mumkin. Shuning uchun ham yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda oilaviy hayot, er-xotinmunosabatlarini faqat bir yoqlama va faqat yaxshi

tomondangina ko'rsataverish ham maqsadga muvofiq emas. Uni imkon qadar butun borligicha: baland-pastiyu shirin-achchig'i, rohat-farog'atiyu azob-uqubati, qorong'i kechalariyu yorug' kunduzlari bilan ko'rsatgan ma'qul. Shundagina yoshlarimizda oilaviy hayot haqida nisbatan adekvatroq tasavvur shakllanishi mumkin. Bu borada oiladagi katta yoshli oqil kishilar yoshlarga hayotda ko'prik bo'lmog'i, ularning bosib o'tgan ko'p qirrali hayot yo'li farzandlariga saboq bo'lishi kerak. Ular yoshlarimizni mustaqil, yetuk bir shaxs sifatida qabul qilib, oilaviy hayotning pastbalandlari haqida to'la-to'kis ma'lumotlar berishi maqsadga muvofiqdir. Toki yoshlarimizning oilaviy hayotlari poydevoriga qo'yayotgan ilk g'ishtlari to'g'ri va mustahkam qo'yilsin.

Oila qurish haqidagi ustanovkalarini shakllanishi.

Yoshlarning o'z oilaviy hayotlariga oid tasavvurlari muhim bo'lib, ularning qanchalik reallikka yaqin bo'lishi oilaning mustahkamligiga xizmat qiladi. Afsuski, yoshlarning hamma vaqt ham oilaviy hayot haqidagi tasavvurlari reallikkka mos kelavermaydi, balki aksariyat holda haqiqiy hayotdan tubdan farq qiladi. Shuning uchun yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ularni imkon qadar hayotda kuzatiladigan past va baland, shirin va achchiq, rohat va tashvish, qorong'u va yorug' tomonlari bo'lishi muqarrarligiga o'rgatib borishimiz va bu tomonlar haqida adekvat (to'g'ri) tasavvurlarni shakllantira olishimiz kerak bo'ladi. Psixologik va hayotiy kuzatuvlardan ko'rinadiki, nikohga kiruvchilarning 20 yoshdan kichikroq bo'lishi ularda hayotiy tajriba 20-24 yoshdagilarga qaraganda kamligi, ijtimoiy-iqtisodiy yetuklik darajalarining yetarli emasligi tufayli oilalarda ajralish yoki tushunmaslik, oilada turli darajada nizolarga olib kelishi mumkin ekan. Shuning uchun biz tadqiqot ishimizda maxsus tuzilgan ijtimoiy-psixologik so'rovnomamizga kiritilgan savollar orasida qizlarning turmush qurish yoshi va yigitlarning turmush qurish yoshiga oid fikrlarini aniqlashga harakat qildik. Buning uchun biz ularga «Turmush qurish yoshi qiz bola uchun qanday bo'lishi kerak?»

degan savol bilan murojaat qildik.

1-jadval. «Turmush qurish yoshi qiz bola uchun qanday bo'lishi kerak?» savoli bo'yicha yoshlarning fikrlari (foizda)

Oila qurish "qizlar" uchun	Yigitlar javoblari	Qizlar javoblari
16-17 yosh	14,5%	4,0%
18-19 yosh	70,5%	65,5%
20-21 yosh	12,5%	18,5%
22-23 yosh	2,0%	12,0%
24-25 yosh	0,5%	-
25 dan katta	-	-

2-jadval. «Turmush qurish yoshi yigit uchun qanday bo'lishi kerak?» savoli bo'yicha yoshlarning fikrlari (foizda)

Oila qurish «yigitlar» uchun	Yigitlar javoblari	Qizlar javoblari
16-17 yosh	-	-
18-19 yosh	3,5%	-
20-21 yosh	10,5%	8,5%
22-23 yosh	22,0%	12,0%
24-25 yosh	50,5%	64,5%
25 dan katta	13,5%	15,0%

E'tibor qiladigan bo'lsak, qizlar uchun 25 yoshdan keyin oila qurishni hech qaysi respondent tanlamagan. Bu o'z navbatida oila qurishga nisbatan ustanovkalar, o'zbek millatiga xos bo'lgan yondashuv shakllanganligini bildiradi. Olingan natijalarni (1-jadval) tahlil etadigan bo'lsak, shu narsa ko'rinadiki, oila qurmagan yigitlar qiz bolaning turmush qurish yoshi 16-17 yosh bo'lishini ma'qul deb, bu javobni 14,5 foiz

yigitlar belgilagan. Ikkinchi yosh ko'rsatkichi 18-19 yoshlar bo'lib, olingan natijalarning xarakterli tomoni shundaki, bu yoshni oila qurish uchun ma'qul yosh sifatida aksariyat yigit-qizlar tanlashgan (70,5% yigitlar va 65,5% qizlar). Ular bu yoshda sinfdoshlari, tanishlari, qo'shnilari shu yoshda, ayniqsa oila qurayotganliklarini kuzatadilar va natijada bu yosh nikoh qurish uchun eng maqbul yosh degan fikrga keladilar. Demak, oilaviy hayot qurish uchun 20-21 yoshni tanlash asosida bir qator sabablar bo'lishi mumkin: birinchidan, oila qurganlar oilada bajariladigan turli vazifalarni yaxshi anglaydilar: bu vazifalarga tarbiyaviy, iqtisodiy, kommunikativ, jinsiy, psixologik, reproduktiv va boshqalar kiradi. Har bir funksiyaning oila sharoitida bajarilishida ma'lum bir shart kerak. Masalan, iqtisodiy vazifa to'g'ri bajarilishi uchun oila qurgan kishi ma'lum bir sohani egallagan, mehnat qilib oilani pul bilan ta'minlaydigan darajaga erishgan bo'lishi kerak. Kommunikativ vazifa to'g'ri bajarilishi uchun oiladagilar bir-birlari bilan muomala o'rnatish olish malakalariga ega bo'lmoqlari talab etiladi. Reproktiv vazifa bajarilishida yoshlarning salomatlik ko'rsatkichlari me'yorda rivojlangan bo'lishi lozim. Bu jihatlar qiz bolaning oila qurishi uchun eng optimal yosh sifatida 20-21 yoshni tanlash ma'qulligini bildiradi. Jadvaldagi ahamiyatli jihat shundaki, qiz bolaning oila qurish yoshi uchun 24-25 yoshdan keyingi ko'rsatkichlar ma'qul emasligi bo'lib, bunda yoshlarning yakka fikrliligi ko'rinadi. Ammo bilamizki, yosh kattalashgan sari qizlarning oila qurish imkoniyatlari pasayib boradi, tanlash darajalari kamayadi, muammolar ortadi.

Biz oila qurish yoshi masalasida «Yigit uchun qaysi yosh ma'qul bo'ladi?» degan masalani ham qo'ydik.

2-jadvaldagi e'tiborli jihat shunda-ki, yigitlar uchun oila qurish yoshining 16-17 yosh bo'lishini birorta ham respondent belgilamaganligidir. Haqiqatan ham erkak kishining oila qurishi uchun mas'ul ekanligi va buning uchun ma'lum bir yoshga va y e t uklik mezonlariga mos kelishi kerakligini hammamiz

anglaymiz, albatta.

Yigitlarning oila qurishlari uchun eng maqbul yosh sifatida barcha ishtirokchilar tomonidan 24-25 yosh tanlangan. Haqiqatan bu yoshda yigitlar biror mutaxassislik yokihunarga ega bo'ladilar, o'zlarini iqtisodiy jihatdan, qisman bo'lsa-da oilani ta'minlashga qodir, fiziologik jihatdan y e tuklik ka erishgan pallada bo'ladilar. Bu esa bu yoshning ularning oila qurishi uchun eng optimal yoshga ega davr sifatida tanlashga olib keladi. Gohida oila qurmagan yoshlarning fikrlarida oila qurishni vaqti boshlasa ham bo'ladi, degan fikr kuzatiladi va yigit uchun 22-23 yoshni oila qurish uchun yaxshi deb o'ylaydilar. Aslida yigitlarning yoshi kattalashgan sari oila qurish imkoniyatlari pasaymaydi, aksincha ortadi, oilada ularning ijtimoiy, iqtisodiy mavqelari oshishi, natijada kelin tomonidan ularning turmush o'rtoq sifatida idrok etilishi, hurmati saqlanishi kuzatiladi.

Demak, turmush qurish yoshining nikoh barqarorligiga ta'sir etuvchi omil sifatida ko'rilishi bu ayni haqiqat ekan, bu yoshning qizlar uchun ham, yigitlar uchun ham qaralganda alohida o'z optimal muddatlari mavjud ekanki, oila qurayotgan har bir shaxs bu muddatni bilib, oila qurishi uning nikohi barqarorligiga olib kelar ekan.

Biz o'z tadqiqot ishimizda yoshlarning nikohga nisbatan ma'naviy tayyorlik hislarini aniqlamoqchi bo'ldik. Buning uchun psixologiyada ma'lum bo'lgan «Nikohga ma'naviy tayyorlik» testidan foydalandik¹. Test 16 ta savol-tasdiqdan iborat bo'lib, natijalarni qayta ishlash orqali 3-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga ega bo'ldik. Bu test savolnomada ishtirok etgan 60 nafar talabada o'tkazildi.

3-jadval. Yoshlarning nikohga ma'naviy tayyorlik darajalari (foizda)

Ob'ekt	Past daraja	O'rtacha daraja
Yigitlar	23,5%	76,5%
Qizlar	5,5%	94,5%

Ko'rib turganimizdek, test natijalariga ko'ra oila qurmagan yoshlarning nikohga ma'naviy tayyorlik darajalarida jinsiy tafovutlar ko'rinadi. Ma'naviy tayyorlikning past ko'rsatkichi ko'proq yigitlarda kuzatiladi, o'rtacha ko'rsatkich esa qizlarning deyarli barchalarida ko'p. Bu o'z navbatida qizlarning bu yosh davrlarida oila qurishlari ular uchun eng muhim qadriyat sifatida qaralishi, ularning uylariga sovchilar kela boshlagani, ularning oila vazifalariga butkul berilganliklari, ularning tanishlari allaqachon oila qurganliklari, yaqinlari tomonidan bu yoshdagi qizning oila qurishiga oid fikrlar ko'plab aytilayotgani va ularda bu qadriyatga nisbatan ko'nikish va bo'lishi zarur bo'lgan haqiqat sifatida qarash tarkib topganligini bildiradi. Yigitlar esa o'zlarini avval iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan mustaqil ko'rishlari kerakligi, oila qurish uchun o'zlarini anglab olishlari, mutaxassis sifatida shakllanishlari muhimligini his etishlari ustunligi ko'rinadi.

Yoshlarda olib borilgan so'rovnoma va psixologik testdan olingan natijalar yoshlarda kelajak oilaviy hayotlari haqida etnik, jinsiy, psixologik xususiyatlar mavjudligini tasdiqlaydi.

Yoshlarning oilaviy hayot haqidagi tasavvurlari ularning yosh ko'rsatkichlari, ma'naviy yetuklik darajalari, oilada olgan turli darajadagi ijtimoiy ta'sirlariga bog'liq ekanligi ko'rindi. Mazkur tadqiqot ishida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Yoshlar tomonidan qiz bolaning turmush qurish yoshi masalasida eng optimal yosh sifatida 20-21 yosh tanlangan bo'lib, bu o'z navbatida oila quruvchining oilada bajaradigan turli vazifalarni yaxshi anglagan bo'lishini taqozo etadi. Bu vazifalarga tarbiyaviy, iqtisodiy, kommunikativ, ma'naviy, ijtimoiy, psixologik, reproduktiv va boshqa vazifalar kiradi. Yoshlar fikricha, har bir funksioning oila sharoitida bajarilishida ma'lum bir yetuklik

sharti zarur ekan.

2. Yigitlarning oila qurishlari uchun eng maqbul yosh sifatida 24-25 yosh eng maqbul yosh sifatida tanlangan. Ayrim yoshlar fikriga ko'ra, yigit kishining oila qurishi uchun eng maqbul yosh sifatida 22-23 yoshni olish mumkin.

3. Yigitlarning aksariyat qismi uchun sevgi asosida oila qurish holati ma'qul ekan. Aksariyat qizlar otasi talabiga ko'ra oila qurishni ma'qullar ekanlar. Ular bu orqali otalarining fikri bilan hisoblashishlari, otalarining ularning oilaviy hayotiga nisbatan aniq va to'g'ri fikr bildirishlarini his etishlarini namoyon etar ekanlar.

4. Nikohga ma'naviy tayyorlikning past ko'rsatkichi yigitlarda oz bo'lsada kuzatilar ekan.

5. Nikohga ma'naviy tayyorlikning o'rtacha ko'rsatkichi qizlarning deyarli barchalari uchun xos ekan.

6. Yoshlar uchun ularni oilaviy hayotga tayyorlashga qaratilgan pedagogik-psixologik usullarni qo'llash zarurligi ko'rindi, chunki yoshlik davri ayrim yoshlarning oila qurishi uchun muqarrar yosh davri ekanligi kuzatildi. Olingan natijalar, xulosalar asosida ushbu tavsiyalarni berishni zarur deb hisoblaymiz:

- Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda ularning ma'naviy, kasb jihatidan, ya'ni professional, ijtimoiy, huquqiy, psixologik yetuk bo'lishlariga erishish. Buning uchun yoshlarga pedagog-o'qituvchilar, ota-onalar, kattalar tomonidan shu jihatlarining muhim ekanligini o'rgatib borish va tushuntirish;

- akademik litseylar va kasb-hunar kol-lejlari qoshida tashkil etilgan «Oila – baxt qasri» maktablarida shu soha mutaxassislari: psixolog, pedagoglar ishtirokida oila muhim qadriyat ekanligiga oid turli davra suhbatlari olib borish;

- mahalla fuqarolari yig'inlarida tashkil etilgan «Ota-onalar universitetlari» orqali yoshlarga qay yo'sinda suhbatlar tashkil etish yo'l-yo'riqlarini o'rgatish, yoshlarga «Oila – muqaddas maskan» rukni orqalitamajribali, namunali oilalar

ishtirokida ibratli davra suhbatlarini o'tkazishni tashkil etish;

- yoshlarga oila mustahkamligini ta'minlovchi omillarga oid maxsus suhbat va munozaralarni tashkil etish, malakali mutaxassislar bilan uchrashuvlar o'tkazish;

- ommaviy axborot vositalarida muntazam ravishda shu mavzuda muloqotlar olib borish;

- yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash ishini muhim deb qarab, oilaga doir suhbatlar uyushtirish;

- hayotiy misollar vositasida nikoh qurish omillarining nikoh barqarorligiga ta'sirining ibratli jihatlarini ko'rsatish orqali bu muammoga doir ijobiy tasavvur shakllantira olish.

Demak, ta'lim muassasalarida ta'lim- tarbiya samaradorligini oshirishda nafaqatmutaxassislik fanlariga, balki shaxsning o'z-o'zini yaxshi his etishi, atrofdagi odamlar bilan bo'ladigan shaxslararo munosabatlarda zo'riqmay, o'zini erkin his qilishiga yordam beradigan psixologik bilimlarni berish, qolaversa, yigit-qizlarga «tabiatning shoh asari bo'lmish – oila»ning o'ziga xos qonun-qoida, sir-sinoatlarini o'rgatish zarur.

Mavzu yuzasidan savollar:

1. Nikoh oldi omillari deyilganda nimani tushunasiz?
2. Nikohga, oilaviy hayotga yetuklik nima? Uni qanday jihatlarini farqlanadi?
3. Nikoh yoshi nima? U qanday belgilanadi?
4. Nikoh motivlari nima? Uning qanday turlari farqlanadi?
5. Nikohgacha tanishish shartlari va muddatining nikoh mustahkamligiga qanday ta'siri bor?
6. Bo'lajak er-xotinning tanishish shartlari va ularning nikoh mustahkamligidagi ahamiyati nimalardan iborat?
7. Yoshlarning oilaviy hayot haqidagi tasavvurlari nikoh mustahkamligiga qanday ta'sir qiladi?

OILANING HAYOTIY SIKLI

1. Oilaning hayotiy sikli. Oilaning hayotiy siklini davrlashtirish muammosi. Turli mualliflar nuqtayi - nazaridan oila bosqichlari tahlili.

2. Yosh va yetuk oilada oilaviy munosabatlarning rivojlanishidagi asosiy vazifalar.

3. Oila dinamikasi hayotiy sikli doirasida yuzaga keluvchi asosiy oilaviy hodisalarning o'ziga xosligi.

4. Oila rivojlanishining normativ inqirozlari.

Oilaning hayotiy tarzi uning hayotiy sikli, tutimi bilan bog'liq. Ayrim olimlar, masalan, V.Satir zamonaviy oilaning bola tarbiyasi va uning manfaatlariga bog'liq ekanligidan kelib chiqib, bu maskandagi hayot maromi va tutimini bola rivojlanishining bosqichlari bilan bog'laydi. Shunga ko'ra, quyidagi bosqichlar farqlanadi:

1-bosqich. Aksariyat olimlar oiladagi hayot sikli ikki yoshning uzoq muddatga ahdu-paymon qilib nikohga kirishga qaror qilgan onlaridanoq boshlanishini ta'kidlaydilar. Boshqa mualliflarning fikricha, oilaning boshlang'ich nuqtasi ikki shaxs rasman nikohga kirgan vaqt, ko'pchilikning guvohligida o'tkazilgan tantanalar bilan izohlanadi.

2-bosqich. Ikki yoshning intim qovushishi oqibatida zurriyodning paydo bo'lishi.

Satirning fikricha, zurriyodning paydo bo'lishi, tug'ilishi er va xotinning asl munosabatlarini sinovdan o'tkazadi va ular o'ziga xos yangicha munosabatlar davrini boshdan kechira boshlaydilar. Bu davrga asosiy mazmun va ma'no beruvchi voqea – bu er va xotonga yangi rollarning berilishi, anchagina katta ijtimoiy mas'uliyatni o'ziga qamrab olgan ota-onalik rollarining boshlanishidir.

Ko'plab xalqlarda, ayniqsa, o'zbeklarda bolaning dunyoga kelishi juda katta quvonchli marosimlar bilan boshlanib, ular

qadriyat sifatida asrlar osha saqlab kelinmoqda. Masalan, bola tug'ilishi bilan bog'liq suyunchi marosimlari, aqiqa, beshik soldi, sunnat va beshik to'ylari kabilar shular jumlasidandir. Shunga qaramay, ayrim xalqlarda, masalan, Yevropa xalqlarida oilada farzandning tug'ilishi muayyan tashvishlar, ruhiy tarangliklar, ayniqsa, ona boshidan kechiradigan emotsional hayajonlar, yaqinlariga ijtimoiy va moliyaviy tashvishlarni keltirib chiqaradiki, bu ham ba'zan oilaviy munosabatlardagi tarangliklarda aks etadi.

Oila va farzand oldidagi bunday mas'uliyatlar ayrim hollarda er-xotin munosabatlarining darz ketishiga, ba'zan ajrimlarga, bizning sharoitimizda quda-andachilik munosabatlaridagi kelishmovchiliklarga ham sabab bo'ladi.

3-bosqich. Bola oiladan tashqaridagi ijtimoiy institutlar – maktabgacha ta'lim muassasalari, ayniqsa, uzluksiz ta'limning boshlang'ich o'chog'i hisoblangan maktabga bora boshlaydi. Maktab shunday maskanki, u yerda har bir bolaning qay darajada va qanday ijtimoiylashgani sinovdan o'tadi. Chunki u endi nafaqat o'zi tengqur bolalar bilan, balki kattalar, begonalar, ko'chadagi turli toifali insonlar bilan muomalaga kirisha boshlaydi. Bu muomala jarayonida uning qanchalik hayotga tayyorligi, oilasida qanday ahloqiy va ma'naviy o'g'itlarni olganligi, kimning bolasi ekanligi, oilaviy muhiti qandayligi bilina boshlaydi. Eng muhimi – maktabga kelgach, bolaning aqliy va intellektual salohiyati, intizomi tekshiruvdan o'tadi. Ya'ni, bolasini maktabga berar ekanlar, ota-onalar ham jamoatchilik oldida o'ziga xos sinov va tekshiruvdan o'tayotganday his qiladilar o'zlarini. Yaxshi yoki yomon ota-onalik rollari maktab yillarining dastlabki oy va yillarida bilingani sababli, ko'pgina ota-onalar ayni shu davrlarda kuchli stressni boshidan kechiradilar.

4-bosqich. Bola o'smirlik davriga qadam bosganda, u ota-onasidan mustaqillikni, hadeb ta'qib qilavermaslikni da'vo qila boshlaydi. Ota-onaning farzand oldidagi obro'si, kerakligi

darajasi pastlay boshlaydi. Bu davrga kelib ota ham, ona ham o'zining farzandiga nisbatan munosabatlarini o'zgartirishga majbur bo'ladi, chunki bolada yangicha talab va istaklar, yangicha fikrlash, urf-odatlar, musiqaga havas, turli xil guruhlar bilan muloqotda bo'lishga intilishlar paydo bo'ladi. Bu davr ota-onaning bolasida paydo bo'layotgan o'zgarishlarga, yoshga oid yangiliklarga qanchalik fahm va farosat bilan, sabr-qanoat bilan turib berishlarini sinovdan o'tkazadi. Sinovdan yaxshi o'tgan ota-onaning bolasi keyingi bosqichga eson-omon yaxshilik bilan, ochiq ziddiyatlarsiz o'tib oladi, aks holda o'smirlik davrining o'ziga xos ziddiyatlari girdobida ota-ona – bola munosabatlari jiddiy yomonlashadi, ayrim bolalar uydan ketib qolish holatlarigacha boradi.

5-bosqich. Bolalar katta bo'lib, balog'at yoshiga yetadilar, o'qishlarni tugatib, mustaqil kasb-hunar egallash bosqichiga qadam bosganda, ayrim yoshlar mustaqil oilaviy hayot qurishga ham ulguradilar. Shu davrga kelib, "Bola – ota-ona" munosabatlari deyarli tugaydi. Ayniqsa, bu holat yevropa xalqlariga mos, balog'at yoshiga yetgach, deyarli barcha hayotiy masalalarni yoshlar o'zlaricha, o'z bilganlaricha xal qila boshlaydilar.

Ota-onalar ularning xato qilib qo'yishlaridan xavotir olmay qo'yadi. Bizda, Sharq xalqlarida bu holat biroz boshqacha: ota-ona farzandi kasb-hunarli bo'lib, mustaqil professional yo'ldan ketayotgan bo'lsa ham, ularning kelajagi, oilasi, moliyaviy ahvoli borasida xavotirga tushaveradi, o'g'il uylanishi, qizlarning turmush chiqishlarida ota-ona va ularning ota-onalari – momolar va buvalar bosh-qosh bo'ladilar.

Turmush o'rtog'i tanlash masalasi ham bizda juda kam holatlarda bo'yiga yetgan qiz yoki yigit ixtiyoriga havola etiladi. Ya'ni, ko'chadan birdan notanish qizni "Tanishing, bu mening bo'lg'usi qallig'im, turmush o'rtog'im" deyishlar bizda deyarli uchramaydi, chunki bunga bizning asriy urf-odatlarimiz, oilaviy tarbiya mezonlarimiz yo'l qo'ymaydi.

Ayrim bo'linmagan oilalarda o'g'il uylangandan keyin ham, qiz farzandli bo'lganda ham ota-onalar ularning g'amini yeb, hayotda qoqilmasliklari uchun harakat qilaveradi. Hattoki, mamlakatimizning deyarli barcha hududlarida shunday odatlar borki, ona ko'zi yorigan qizining oziq-ovqati, yemishi uchun to'la o'zini javobgar, deb hisoblaydi. Chunki bunga ikki sabab bor: birinchisi – yangi ko'zi yorigan ayol organizmida shunday yangilanish ro'y beradiki, uni o'ziga keltirish uchun aynan yillar mobaynida o'z oilasida yegan-ichganlari adaptasiya jarayonlarini tezlashtiradi;

Ikkinchidan – o'z onasining mehribonlik ko'rsatayotganligi yosh onaning yaqinda boshidan kechirgan – qiyinchiliklarini unutish, o'zini chinakam ona sifatida onasiday his qilishini ta'minlaydi. Ushbu psixologik holat o'ta muhim bo'lib, aynan o'zbeklarda bu oila mustahkamligining omillaridan hisoblanadi.

Qaynona ham ona, u ham keliniga achinadi, tug'ruqning azoblarini unutishi uchun qo'lidan kelganini qiladi, lekin o'z tuqqan onasining xabar olishi, yonida bo'lishi ko'plab kuzatishlarda yosh onaning onalik rolga tezroq kirib ketishiga, ko'kraksutibolan bolasini emizib katta qilishidak kattaroq y'naydi. Shuni ham ta'kidlash joizki, ayrim hollarda ota-onaning yoshlar hayotiga aralashuvi shu qadar bevosita xarakterli bo'ladiki, bu yoshlar bilan ota-onalarning o'rtasidagi nizolarga ham sabab bo'ladi, qaynona va kelin, qaynola va kuyov o'rtasida nizolar ham ana shunday aralashuvning ko'pligidan kelib chiqadi. Ya'ni, ota-onaning farzandi balog'at yoshiga yetib, mustaqil hayotga qadam qo'ygandagi aralashuvlari, g'amxo'rliklari ham ijobiy, ham salbiy oqibatlarini olib kelishi mumkin.

Farzandlarning mustaqil iqtisodiy maqomga ega bo'lishlari, o'z oilasiga ega bo'lishi ota va onaga boshqa yana qo'shimcha rollarni bajarishni taqozo etadi – kelin, kuyov, qaynona, qaynola va boshqalar Bundan tashqari, yangi paydo bo'lgan yosh oilaning qarindosh-urug'lari o'rtasidagi munosabatlar, masalan, quda-andachilik munosabatlari ham

yosh oila va uning ota-onalari maqomlarining o'zgarishiga olib keladi. Masalan, "endi qudalikmiz", "kuyovim bor", "buvi yoki buva bo'ldim" kabi e'tiroflar shaxs ongida va xulqida jiddiy o'zgarishlarni keltirib chiqaradi.

Ayrim ayollar ayni shu daqiqalardan boshlab, tashqi ko'rinishidan tortib, hayot tarzida ham jiddiy o'zgarishlarni boshlaydi, masalan, tez-tez ichadigan ota bu salbiy qilg'ini tashlaydi, chunki kelindan uyaladi; namoz o'qimaydigan ona quda-andalar oldida uyalaman deb, namoz o'qishga kirishadi, mahalla-kuyga ko'proq aralashadigan bo'lib qoladi.

6-bosqich. Keksalikning dastlabki belgilari – tanada keksalik alomatlari, klimakterik holatlarning kelib chiqishi bosqichida inson qalbi qarimasada, ayrim jismoniy quvvatsizliklar paydo bo'ladi. Odam nafaqaga chiqadi, suygan kasbi, mashg'ulotidan uzoqlashadi, do'stlari davrasi torayadi va h.k.z. Lekin keksalikni tan olish va unga ruhan tayyor bo'lish, etnik madaniyat va uning qadriyatlariga bog'liq.

Xalq ma'naviyati va madaniyati qanchalik yuqori bo'lsa, keksalikka munosabat ham shunchalik yuqori bo'ladi. Masalan, bizning etnik-madaniy muhitimizda keksalik va qariyalik hamisha e'zozlanib kelingan, masalan, birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan 2002 yil "Qariyalarni qadrlash yili" deb e'lon qilindi, barcha keksalar bizda qarilik gashtini surish uchun belgilangan tartibda nafaqalar oladi, bayram, to'y-hashamlar va tadbirlarda keksalarni davralarning to'riga o'tqazish, ularga izzat-ehtirom qilish xalqimizning odatiy an'analaridandir. Shu bois bo'lsa kerak, O'zbekistonliklar keksalikni ham hayotning o'ziga xos davri sifatida mamnuniyat bilan kutib oladigan xalqdir. Ruslardagi "Starost ne radost" iborasining tagida ham o'ziga xos ma'no borki, ayrim yevropa xalqlarida keksalar nafaqaga chiqqanlaridan keyin o'zlarini hech kimga kerak emasday his eta boshlaydigan, ular uchun umrning oxirgi davrlari keskin salbiy o'zgarishlarni keltirib chiqaradi, farzandlari esa o'z hayot tashvishlari bilan ba'zan ota-onalarni

asoratlarsiz, yengillik bilan o'tib ketadi. Muammoli oilalarda esa oilaning kattalari ularni yengish malakasi va tajribasiga ega bo'lmay, boshqalarга sezdirib qo'yadi, ba'zan oilaning ichidagi gap-so'zlar mahallaga, uzozq va yaqin qarindoshlarгacha yetib boradi.

Tashqaridan bo'lgan aralashtirishlar ba'zan oilaning maromini tildasa, ba'zan, aksincha, uning xalovatini buzadi, muammolar chalkashib ketadi. Bu vertical ziddiyatlar, ya'ni, oilaviy nizolarga tashqaridan ota-ona va boshqa qarindoshlarning aralashtirishlarida kechadi.

Ba'zan, kattalarning orzu-havaslari deb, yoshlar o'zlariga ma'qul bo'lmagan hayot tarzini boshdan kechirishga majbur qilinadilar ham. Masalan, yosh oila alohida uyda mustaqil yashashni xohlaydi, lekin qaynona ularni yonida, uning taziyqi ostida yashashga majbur qiladi, yoki er-xotin farzandlari bilan birga alohida yashashni istaydi, kattalar esa ularning farzandlaridan birini shaharning boshqa bir chetida yoki boshqa shaharda yashashni talab qiladi. Momolar tarbiya tarzidan norozi bo'lmagan kelin-kuyov va ularning ota-onalari o'rtasida nizo kelib chiqishi mumkin.

Bundan tashqari, ota-onalardan biri nogiron yoki uzozq muddatli xastalikka chalingan paytlarda ham yosh oiladagilarning ayrimlarida surunkali taranglik tufayli ichki va ochiq nizolar paydo bo'lishi mumkin. Bu kabi mayda-chuyda muammolar har bir oilada bo'ladi, bu tabiiy, ularni yengishga ruhan tayyorlik va oila a'zolarining bir-birlariga muruvvatliliklari oilaning baxtli bo'lishini ta'minlaydi.

R.Kappenberg degan olimning ta'kidlashicha, ba'zan oilaviy munosabatlarda favqulotda paydo bo'ladigan hodisalar ta'sirida ziddiyatlar paydo bo'ladi. Bu odatda kutilmaganda

ro'y beradigan holatlarining oqibati bo'lib, oila a'zolari buni kutmaydilar. Masalan, er-xotinlardan birining xiyonati va uning oshkor bo'lib qolishi, o'g'ilning noqobil bo'lib qilyohand moddalar iste'mol qilishini kattalar bilib qolishlari,

ham unutilib qo'yadilar. Qariyalarning uyining paydo bo'lishi ham ko'p holatlarda aynan shunday o'zaro munosabatlarning oqibatidir.

7-bosqich. Oilaviy siklining tugashi odatda turmush o'rtog'lardan birining o'limi bilan boshlanadi. Er-xotinlarning tirik qolgan beva bo'lib qolishi munosabati bilan u ham yangicha rolarni tizimiga kiradi. Musulmonchilikda chol yoki kampir beva qolsa, uni ikkinchi nikohga davat qilish, taklif etish an'ana, farzandlar uchun farz hisoblanadi.

Ayniqsa, erkak kishi beva bo'lib qolganda, farzandlarning biror kampirga yoki o'rta yoshli juvonga uylandirishini taklif etishi farz sanaladi. Bu Islom dini qadriyatlariga ham mos keladi.

Xugorida sanab o'tilgan hayotiy tutimlar oila a'zolari har birining xulq-atvorida, dunyoqarashi va odatlarida muayyan o'zgarishlarning kuzatirishiga, yangicha rol o'zlashtirishiga olib keladi. Har bir yangi bosqich shaxs ongida muayyan krizislar, ziddiyatlar bilan kechadiki, ularni yengish, qiyinchiliklardan yaxshilik bilan o'tish insondagi yaxshi fazilatlarга, tarbiyalanganlik darajasiga, sabr-qanoatiga bog'liqdir. Har bir bosqichda ota, ona va farzandlar, kuyov-kelinlar bilan o'zгacha munosabatlar tizimi shakllanadi. Masalan, bo'linmagan katta oilada oila boshlig'i - otaning qazo qilishi to'ng'ich farzandlar yelkasiga katta mas'uliyatni yuklaydi. Uning oilaviy o'zaro munosabatlar tizimida o'rni keskin ravishda o'zgaradi.

Agar turli hayot bosqichlarida oilaviy turmush tarzining o'zgarishini inobatga olsak, oilaviy nizolar yoki ziddiyatlar shu muayyan ma'noda tabiiy bo'lib, uni har bir normal oila boshdan kechiradi. Shu bois ham o'zbekchilikda "ro'zgor", "turmush" deyilib, momolarimiz "g'or tub qo'yibdi", "mush deb qo'yibdi", deya oilaviy hayotning o'ziga xos murakkabliklari borigiga ishora qiladilar. Bunday ziddiyatlar oilaviy rollar ko'payganda, farzand tug'ilganda, qudalar bilan munosabatlar boshlanganda, ayrtiq ro'y bergan bosqichlarda ayniqsa sezilarli bo'ladi. Lekin ahli va mustahkam oilada bu ziddiyatlar deyarli

oila a'zolaridan birining boshqa jinoyat yo'liga kirib qolishi, falokatlar va shunga o'xshashlar oilaviy munosabatlarning to'satdan o'zgarishi, munosabatlarni qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Bunda ham oiladagi kattalarning oqilligi, mahallaning hamjihatligi ijobiy rol o'ynashi mumkin.

Nazorat uchun savollar

1. Oilaning hayotiy sikli nimalardan iborat?
2. Oilada ijtimoiy tarbiyaning bosqich va vositalari.

ER-XOTIN JUFTLIGINING SHAKLLANISHI

1. Umr yo'ldosh tanlash nazariyalari. Oila qurishdan avvalgi davming o'ziga xos xususiyatlari. Nikohning yuzaga kelishiga asos bo'ladigan omillar kompleksi.

2. Tanishish shartlari va sharoitlari. Nikoh yoshi xususiyatlari. Nikoh motivlari va er-xotin munosabatlari. Oila butun bir tizim sifatida.

3. Munosabatlar harakteri. Sevgi - er-xotin munosabatlarini qurishda asos sifatida.

4. Muhabbat borasidagi nazariyalar. Sevgining xissiyot sifatida rivojlanishi.

5. Muhabbat turlari, bosqichlari, belgilari.

Oilaviy munosabatlar attraksiyasi. Oila a'zolari o'rtasida sodir bo'ladigan murakkab va serqirrali o'zaro munosabatlar ko'plab olimlar, shu jumladan, o'zbekistonlik olimlar (*M.Davletshin, G.Shoumarov, E.G'oziev, B.Qodirov, X.Karimov, N.Sog'inov, F.Akramova, G.YAdgarova, M.Salaeva, D.Xoliqov* va boshqalar) tomonidan o'rganilgan. Ularda ko'proq o'zbek oilasiga xos urf-odatlar, udumlar, an'analar nuqtai nazaridan oilaviy munosabatlarning etnopsixologik qirralari tadqiq etilgan. Lekin oila institutini ijtimoiy voqelik sifatida uning qonuniyatlarini tahlil etar ekanmiz, bu o'rinda biz oilaviy o'zaro munosabatlarga xos bo'lgan munosabatlarning psixologik tabiatiga, kelib chiqishi va dinamikasiga e'tiborni qaratgan ko'plab tadqiqotlarda ilgari surilgan ma'lumotlarni keltirishni joiz deb bildik. Shu nuqtai nazardan oilaviy munosabatlar fenomenologiyasi ijtimoiy-psixologik izlanishlar obyekti sifatida o'rganilgan bir qator tadqiqotlar natijalariga murojaat qilamiz.

Oiladagi ijtimoiy munosabatlar va ularning kelib chiqish qonuniyatlarini batafsil monografik tarzda o'rganganlardan biri rus olimi *L.YA. Gozman* (1987) hisoblanadi. U bu qonuniyatlarni

Romantik sevgida munosabatlarning rivojlanishi

Romantik sevgi – ikki kishi o'rtasidagi munosabatlarning eng ko'p tarqalgan turi hisoblanadi. Olimlarning fikricha, romantik sevgi – eng kam anglanadigan, odamning biologik ehtiyojlari bilan bog'liq munosabatlardir. Bunday munosabatlarning eng muhim jihati shundaki, ikkala tomon ham bir-birlaridan o'zlari ko'rishni xohlagan sifatlarni qidiradi va ko'radi. Shu bois ham ko'pincha romantik his-tuyg'ularga asoslangan munosabatlarning umri qisqa bo'ladi, chunki real xulq-atvor bilan ideal tasavvurlar o'rtasida ziddiyat, nomutanosiblik paydo bo'lishi mumkin. Ayni shu munosabatlarning salbiy oqibatlari odamni qiynaydi, hayotdan umidsizlikni, boshdan kechirgan hissiyotlari yolg'onligini anglash unda juda qattiq aziyatlarni keltirib chiqaradi. Lekin bir yomonning bir yaxshisi bo'ladi, deganlariday, boshdan kechirilgan azoblar odamni shaxs sifatida takomillashuviga, ichki hissiyotlarning ko'p qirrali bo'lishiga olib keladi. Masalan, tashqi ko'rinishiga bee'tibor bo'lgan qiz bir yigit bilan romantik hissiyotlarga berilib qolib, toshoyna oldidan ketmaydigan, toza, orasta yurishga odatlanadigan, kiyimlarni ham hamisha bejirim kiyishga o'rganib boradi. Sevgilisiga yoqishni astoydil xohlagan yigit esa ayrim zararli odatlaridan, masalan, dangasalik, ko'p uxlash, tamaki chekish kabilardan voz kechib, yangidan turmush tarzini boshlashga azmu-qaror qilishi tabiiy. Yoki institutda o'qishni o'ziga ep ko'rmagan yigit talaba qizni sevib qolib, u o'qiydigan oliygohga ne-ne mashaqqatlar bilan kirib o'qigani bilan bog'liq misollar ham hayotda talaygina uchraydi.

L. Kameron-Benjler (1993) ning fikricha, romantik sevgi hissi rivojlanishining 7 bosqichi bo'lib, unga quyidagilar kiradi

1. O'ziga jalb etish – yangi tanishlarning bir-birlariga noverbal belgilar orqali qiziqishi borligini bildirish. Bu davrda sheriklar dilidagi istak va xohishlarini yangi tanishgan odamida mavjudligini tahlil etadi. Bunga odatda asosan odamdagi aql-zakovat, samimiyat, qo'li ochiqlik, yumor hissi, ishonchlilik,

dadillik, qizlardagi ibo kabi sifatlari sababchi bo'ladi. Bu sifatlari hammaga yoqadigan sifatlari bo'lgani uchun ham yangi tanishlari o'zlarida aynan sherigiga yoqadigan shu sifatlarni namoyon etishga intiladilar.

2. Mashg'ullik yoki rom bo'lib qolish. Bu bosqichda tanishib ulgurgan yoshlari davomli uchrashuvlari natijasida bir-birlaridagi ijobiy sifatlarni anglab, bir-birlariga ko'nika boshlaydi. Faqat e'tibor ijobiy, yaxshi sifatlarga qaratilgani bois sheriklari adashishlari ham mumkin, qolaversa, yangi tanishlari o'zlarini biroz sun'iy tutib, asl qiyofalarini ataylab niqoblashga ham uringanliklari uchun mabodo salbiy sifatlari ham namoyon bo'lib qolgan taqdirda ayrimlari ajrashib ketadilar, ayrimlari esa uchrashuvlarni davom ettiraveradilar

3. Ko'nikish – munosabatlardagi o'ziga xos yangilikning kamayib borishidir. Endi boshida o'zgacha joziba kasb etgan tashqi ko'rinish, xusn, qaddi-qomat kabilari odatiydek idrok etilib, hissiyotlari tobora kamayib boradi.

4. Kutish – munosabatlarning muayyan bosqichida xayol-fantaziyadagi ideal obraz bilan real, kundalik hayotda tobora namoyon bo'lib borayotgan asl nusxa o'rtasida ayrim ziddiyatlar, qarama-qarshiliklari ko'zga tashlanishi bilan boshlanadi. Endi tobora kutishlari tizimida ko'ngil qolish, afsuslanish kabi holatlar ham paydo bo'lib, ong sherikdagi ayrim salbiy, yoqimsiz sifatlarni ham idrok qila boshlaydi. Bunga ayni shu davr ichida boshqalar bilan tanishish tajribasi ham sabab bo'lishi mumkin. Masalan, talaba yigitning boshqa bir shaharga olimpiadaga yoki xizmat safariga borishi, u erda o'zgacha nafosatli bir qiz bilan tanishib qolishi unda solishtirish imkoniyatini yaratadi, va qaytib kelgach, uchrashib yurgan qizidan ayni o'sha sifatlarni kutadi, lekin topolmasa, undan ranjiy boshlaydi.

5. Ko'ngil qolish – bu shunday bosqichki, unda xayajonli ishq-muhabbat hislari o'rnini alam, g'azab, aldanganlikni anglash egallay boshlaydi, sherik to'g'risidagi ijobiy obraz salbiy obraz bilan almashib boradi. Ko'pchilik yoshlari ayni shu

bosqichda bir-birlaridan ajralib qoladilar.

6. Haddan oshish yoki munosabatlar chegarasining darz ketishi – bosqichida sheriklardan biri (ba'zan ikkalasi bir vaqtda) munosabatlarga chek-chegara qo'yish vaqti kelganligini anglab qoladi. Shu fikr paydo bo'lgan ondan boshlab, ular yana bir karra qabul qilingan qarorning nechog'li to'g'ri ekanligini o'ylab ko'rishadi. Odatda bu noo'rin talablarni bir-biriga qo'yish orqali hissiyotlarni tekshirish orqali ro'y beradi. Masalan, "bu va yana bu takliflarimga ko'nsaang, senga uylanaman, bo'lmasa, o'ramiz ochiq" qabilida.

7. Munosabatlarning tugashi – bir-birlari bilan boshqa sira yuz ko'rishmaslik bilan bog'liq qaror chiqarishdan boshlanadi. Ayrimlar sherigining aybdor emasligini bilib tursada, munosabatlarni tugatgisi kelaveradi, ayrimlar esa bir-biridan ko'ngilsiz bo'lib qolgan bo'lsalarda, birgada yashayveradi. Bundaylar o'zaro muomalani keskin kamaytirib, deyarli gaplashmay ham yashayveradi, bunday arazlashlar ko'pincha u yoki bu tomonning depressiv holatini, asabbuzarlikni keltirib chiqaradi. Chunki odatda bunday holatda qolgan shaxs boshqa sevgilisi yo'qligidan yoki yangi tanishlar ham shunday aldab ketishidan, bolasi taqdirini ijobiy xal qila olmasligidan juda qayg'uradi va hatto kasalga ham chalinib qoladi.

Er va xotin o'rtasidagi romantik munosabatlar yoki ishq-muhabbat aslida bir insonning boshqasi ustidan doimiy hukmronligi, bu hislardan o'z manfaati nuqtai nazaridan foydalanishi demakdir. Bunday harakatlarning tipik misoli adabiyotda o'z aksini topgan bo'lib, bu – *Don Juan* obrazidir. U o'z jinsiy mayllarini qondirish maqsadida yangidan-yangi qurbonlarni topadi va o'z xohishi yo'lida ularning his-tuyg'ularini toptab ketaveradi. Yoki go'zal va kelishgan ayol o'z maftunkorligi bilan erkaklarni rom etish yo'li bilan ularning xislarini jilovlab olishi mumkin. Ya'ni, *Shostrom* degan olimning fikricha, har qanday ishq-muhabbatda ana shunday manipulyativ holatlar mavjud bo'ladi.

Romantik munosabatlarga asoslangan munosabatlarning turlari

Psixologik manbalarda sevgiga asoslangan munosabatlarning bir qator turlari va tipologiyasi keltirilgan. Biz bu o'rinda *J. Lining* 6 tipli munosabatlar nazariyasini keltirishni joiz deb bildik. Ularning dastlabkisi – **Eros**, bu romantizm va xissiy mayllarga asoslangan muhabbat bo'lib, undan ko'zlangan asosiy maqsad – sevgilisining visoliga erishish va u bilan yaqin, jinsiy munosabatda bo'lishdir. **Mania** – bir tomonning ikkinchi tomon mehri va muhabbatiga erishishi uchun hamisha xavotir va intiqlik bilan bog'liq bo'lgan talabchan, intiq hissiyotidir. **Ludis** – o'ziga qaratilgan, xudbinlarcha muhabbat, bunda sevgiga erishmoqchi bo'lgan shaxs nima qilib bo'lsa ham suyuklisining visoliga erishmoqni ko'zlaydi. **Storge** – do'stona, mustahkam va samimiy hisga asoslangan bir-biriga yaqin, anchadan buyon tanish bo'lgan odamlar o'rtasidagi sevgi. **Agape** – biror obyektga nisbatan intiqlik, sabr-qanoat bilan boshdan kechirilayotgan ilohiy sevgidir. Nihoyat, **Pragma** faqat shu inson bilan yashagandagina hayotdagi barcha maqsad-muddaolariga erishish mumkinligini anglagan, hayotiy, aniq mo'ljalli, shaxsiy xudbinlikdan xoli bo'lgan toza sevgidir (*E.Xetfild*, 2003).

Shu kabi sevgini tipologiyalarga ajratishga uringan olimlar soni ko'p (masalan, *Maslou*, *Gozman*, *Shostrom* va boshqalar), lekin barchasida ham aql-idrokka, hayotiy mo'ljallar xususiyatlariga, o'zaro hamkorlikka, tayyorlikka tayangan sevgi ancha baquvvat va umriboqiydir.

Nikoh modeli va er-xotin munosabatlari

Er bilan xotin o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning o'ziga xosligi shundaki, u uzoq muddatga mo'ljallangan doimiy muloqot sirasiga kiradi;

- bu munosabatlarning aksariyati diada shaklida ro'y beradi;

- muomala va muloqotdan qoniqish bevosita nikohdan qoniqish uchun omil hisoblanadi.

Rus olimi A.I. Antonovning ta'kidlashicha, eng mustahkam nikohga sabab bo'lgan munosabatlarda ikkala tomon ham shaxs sifatida tobora takomillashib, sayqal topib, ularda o'zaro mehrga, bir-biriga yordam berishga ishtiyoq ortib boraveradi. Ko'plab o'tkazilgan tadqiqotlar bo'yicha olimlarning ta'kidlashlaricha, er-xotinlik aloqalari yetuk inson uchun eng ahamiyatli va hayotiy zarur bo'lgan munosabatlardir. Olimlarni qiziqtirgan muhim masala – mustahkam, baxtli nikohni tashkil etuvchi vosita nima ekanligini aniqlashdir. Shunisi xarakterliki, har bir inson o'z oldiga oila qurish, nikohga kirishni maqsad qilib qo'yar ekan, u avvalo, oila va nikoh borasida xalq orasida shakllangan tasavvurlarga tayanadi. Nikohga kirgan juftlik doimo nikoh tushunchasiga aloqador bo'lgan qat'iy doiralar va normalar dunyosida yashaydi, lekin har bir juftlikning hayoti o'zlarigagina aloqador bo'lgan o'ziga xos xufiyona, sirli olamdir. Zero, ikki individuallikning birlashuviga sabab bo'lgan his-tuyg'ular bir qarashda o'sha "xufiyonalik" sababli zarar ko'rayotganga o'hshaydi, ba'zan er va xotin bir-biriga nafaqat xarakter nuqtayi nazaridan, balki tashqi ko'rinish bo'yicha ham o'xshab ketadi, deyishadi. Ikkinchidan, ayni shu birlik, o'xshashlik, "kirib ketishlik" erni ham ayolni ham jamiyatda o'ziga xos bir avtonomiyaga, jozibadorlikka erishib borayotganligining namoyon bo'lishiga turtki bo'ladi. Shu bois bo'lsa kerak, ijobiy hislar tufayli tashkil bo'lgan oilada sevish-sevilishning nafrat-agressiyaga almashinib ketishi ham oson kechadi. Arzimagan narsalar ham ba'zan ikkalasini urishtirib qo'yishi mumkin. Bunday polyar, bir-biriga zid hissiyotlarning namoyon bo'lishi ayrim davrlarda unisi yoki bunisining kuchayib ketishiga ham sabab bo'ladi. Masalan, ayol farzand ko'rgan vaqtida, ko'proq chaqaloq bilan ovora bo'lib, eriga befarq qoladi, o'z navbatida unda ham ayoliga nisbatan befarqlik (hattoki, rashk, nafrat) hissi uyg'onishi, aksincha, muayan davrlarda esa ikkalasi Layli va Majnun bo'lishib, faqat bir-birining ishqida yonib yashashi ham kuzatilgan.

E.Shostrom (1994) er bilan xotin o'rtasidagi "ishqiy" pozitiv munosabatlarning quyidagi ko'rinishlarini bayon etadi:

- *bir-biriga bog'lanib qolish* yoki *o'zaro g'amxo'rlik qilish hissi*. Bu shu qadar kuchli bo'lishi mumkinki, er-xotin boshqa bir insonga shunga o'xshash yaqin munosabatni his etmay qoladi. Natijada ba'zan o'g'lini qizg'angan qaynona kelini bilan turli narsalarni bahona qilib, nizo chiqaraveradi.

- *do'stlik* – er va xotinning bir-birlarida eng nodir sifatlarni, jumladan, o'ziga xoslik va individuallikni tan olishni nazarda tutadigan hissiyot;

- *eros* – sevgining romantik ko'rinishi bo'lib, er-xotinning bir-biriga nisbatan xissiy-jinsiy mayllarining kuchini belgilaydi;

- *empatiya* esa, erning yoki xotinning o'z turmush o'rtog'iga doimiy g'amxo'rliqi, uni tushunishi va kerak bo'lsa, altruistik fidoiyligini baholovchi hisdir;

- *o'zligini sevish, qadrlash* – bir tomondan er-xotinning har qanday sharoitda o'zida eng afzal jihatlarni anglay olish va boshqa tomondan, kerak bo'lsa, yori tufayli o'z xohish-istaklarini jilovlay olish, fidoiylikni namoyon qilishga imkon beruvchi hissiyot.

E.Shostromning fikricha, "er va xotin vaqti-vaqti bilan bir-birlariga zug'um qilish, xafa qilishga ma'nan haqlidirlar", lekin bunday munosabatlarning yakuni yaxshilik bilan tugashi, shu bahona bir-birlarini yanada yaxshi va yaqindan bilishlariga turtki bo'lishi kerak.

Er va xotin o'rtasidagi salbiy munosabatlarga asos bo'luvchi hissiyotlarga olimlar quyidagilarni kiritadilar:

- *achchiqlanish* – oilaviy hayotda ko'p uchraydi, chunki u o'zaro g'amxo'rlik va bog'liqlik kamaygan sharoitlarda o'z-o'zidan paydo bo'ladi; F.Perlzning yozishicha, "Vaqti-vaqti bilan bir-biridan achchiqlanib turish – demak, bir-birini sevish va o'zaro muomalaga bo'lgan intiqlikdir".

- *aybdorlik* – o'zining qilmishi uchun o'ch olishday gap, ko'pincha bu hissiyot ataylab namoyon etiladi;

• *arazlash* – turmush o'rtog'idan o'ch olish maqsadida namoyon etiladigan his-tuyg'u;

• *nafrat* – turmush o'rtog'iga go'yoki dushmaniga qaraganday muomala qilish va bu yo'lda ba'zan uzoq vaqt gaplashmay qo'yish yoki ataylab o'zini yomonday ko'rsatishdir. Afsuski, bu hissiyot oilaviy hayotda tez-tez bo'lib turadi. Lekin u odamni ichidan zil ketishiga, ich-etini eb qo'yishiga olib keladi;

• *tanqid qilish* – qo'rqqoqlikka o'xshaydi, aniq munosabatlarning xarakterini namoyon etishga imkon bermaydi, Shostromning fikricha, bu hissiyot achchiqlanishga o'tgani ma'qul;

• *turmush o'rtog'idan yiroqlashish, ketib qolish* – bu ham ma'lum ma'noda bir-birini nazoratda ushlashning bir ko'rinishi, lekin vaziyatni aniq oydinlashtirib olishga xalaqit beradi;

• *befarqlik* – umuman munosabatlarni yashiruvchi xis bo'lgani uchun u aloqalarning yomonlashib ketishini tezlashtiradi, hattoki, bunda psixoterapevtik yordam berish ham mushkul bo'lib qoladi.

Shu kabi munosabatlar mohiyatan shaxslararo munosabatlarning ko'rinishlarini ifoda etadi

Yosh oila deb, avvalo, er va xotinning ikkalasi ham 30 yoshdan oshmagan yoki oilaviy turmush qurish tajribasi 10 yildan oshmagan yoshlar oilasi nazarda tutiladi. Birinchi yondashuv, ya'ni, er va xotinning pasport yoshini inobatga olib, oilaga maqom berish to'g'riroq bo'lib, qachon turmush qurganligidan qat'iy nazar, albatta, shu muddat orasida xali yigit ham qiz ham tom ma'noda katta mehnat stajiga ega bo'lmaydi, va ko'p hollarda ayol-ona aynan shu davrda farzandli bo'lib, uy bekasi bo'lib o'tirib qolishi ehtimoli katta. Agar ikkinchi yondashuv bo'yicha yosh oilani oilada yashash muddatiga ko'ra tabaqalashtirilsa, unda u yoki bu jamiyatda nikoh yoshining o'rtacha ko'rsatgichi ortib yoki kamayib borishini nazarda tutish lozim. Chunki ayrim davlatda va ayrim milliy-madaniy muhitda yoshlarni juda erta turmush qurishi rag'batlantirilsa,

boshqalarida, ayniqsa, oxirgi yillarda aksincha, yigit va qizlarning kasb-hunar o'rttirish bo'yicha professional malakaga erishish asosiy qadriyat hisoblangan sharoitlarda 30 yoshdan oshgan odam endi oila qurgan yoki xali ham turmush qurmagan bo'lishi ham mumkin. Ma'lumotlarga qaraganda, Amerika Qo'shma Shtatlari, Germaniya kabi rivojlangan Evropa va Amerika davlatlarida, Sharqiy Osiyoning rivojlangan mamlakatlarida (Yaponiya, Koreya kabi) nikoh yoshi yil sayin ortib, ayrim mamlakatlarda bu raqam 30 yoshdan ham o'tib ketmoqda. Juda erta turmush qurish qanchalik oila va uning barqarorligi bilan ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklar bilan bog'liq bo'lsa, kech turmush qurish ham qator salbiy asoratlar va moddiy-ma'naviy qiyinchiliklar bilan, eng muhim er va xotinning salomatligi holati, tug'ilajak zurriyodning sog'lom tug'ilishi bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqaradi.

Umuman, fanda yosh oilani tavsiflaganda quyidagi mezonlar inobatga olinadi:

- *juda yosh oila* – nikohga kirgan vaqtdan toki 4 yilgacha;
- *yosh oila* – 5 yildan 9 yilgacha;
- *o'rta oilaviy hayot muddati* – 10 yildan 19 yilgacha;
- *katta oilaviy hayot muddati* – 20 yil va undan ortiq muddat turmush kechirganlar oilasi.

Ko'plab olimlarning ta'kidlashlaricha, yosh oilaning mustahkamlanib, oyoqqa turib ketishi, turli maishiy muammolarni o'zi mustaqil xal qilishi uchun zarur bo'lgan muddat aslida turmush qurgan ikki shaxsning bir-biriga bo'lgan samimiy munosabatiga, oila va uning atrofidagi turli qadriyatlarga nisbatan uyg'un qarashlariga, ota-ona oilasida ibrat sifatida ko'rgan-kechirganlarini uchun o'z oilasida qo'llay bilish mahoratiga bevosita bog'liqdir. Lekin baribir har bir oila aynan yoshlik davrida muayyan qiyinchiliklarni boshdan kechiradiki, bu muammolar quyidagi holatlarga bog'liq tarzda namoyon bo'ladi:

- *oilaviy hayotni bir maromda kechishini ta'minlash*,

ishlash, o'qish yoki boshqa masalalarni xal qilish uchun vaqtning etishmasligi;

- *vaqtni yaxshi o'tkazish, ko'ngilxushliklarning cheklanganligi;*

- *yangi sharoitda erkakning ham ayolning jismonan toliqishi, asablarning charchashi;*

- *iqtisodiy qiyinchiliklar.*

Oxirgi holat bir tomondan, ayni paytda yoshlardagi orzu-havasning ko'payib ketishi bilan izohlansa, boshqa tomondan, ota-onalarning orzu-qavaslarayu, bordi-keldi bilan bog'liq sarf-xarajatlarning ortib borishi bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbekistonda kundan-kunga hayot va yashash sharoitimiz yaxshilanib, oila farovonligi uchun etarli shart-sharoitlarning bo'lishiga qaramay, tashqaridan barcha maishiy muammolari xal bo'lgan yosh oilada ham nimalardir yetishmayotganday tuyulaveradi. Bu – o'sha orzu-havaslar, ijtimoiy ehtiyojlarning tobora ortib borayotganligi bilan izohlanadi. Shu bois ham yurtimizda yosh oila manfaatlarini ijtimoiy jihatdan muxofaza qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Buning yorqin isboti 2007 yilning "Ijtimoiy himoya yili" deb e'lon qilinganligi, ushbu yilda qabul qilingan davlat dasturida yosh oila manfaatini himoya qilish alohida bandeda aks etganligi va nihoyat, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 18 may kuni imzolagan "Yosh oilalarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashna doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonidir. Farmonning ijtimoiy hamda tarixiy ahamiyati shundaki, unda yosh oila mustahkam va unda tarbiyalanayotgan farzandlarning sog'-salomat uylag'ishlariga oid barcha eng muhim vazifalar belgilab berilgan. Xususan, ko'p bo'g'inli va ko'p farznadli oilalar soni nisbatan ko'p bo'lgan bizning sharoitimizda Prezident Farmoni bo'yicha yosh oilalarning maishiy turmush sharoitini yaxshilash, kam ta'minlangan oila farzandlarining nikohdan o'tishi va to'y marosimlarini o'tkazishda qo'shimcha moddiy yordam ko'rsatish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bilan

shug'ullanishni xohlaganlar uchun, uy-joy qurilishi, ta'mirlash va sotib olish uchun, uy ho'jaligini yo'lga qo'yish, mebel va boshqa uzoq muddat foydalaniladigan hayotiy zarur tovarlar uchun ipoteka, iste'mol kreditlarining imtiyozli tarzda berilishi kabi tadbirlar oila mustahkam va baxtli hayot kechirishini kafolatlovchi muo'im masalalardir. Oxiri statistik ma'lumotlarga qaraganda, O'zbekistonda yiliga o'rtacha 175-180 mingdan ortiq nikohlar qayd etiladi. Umumiy oilalar miqdoriga nisbatan qaralganda yosh oilalar salkam 40 foizni tashkil etadi. Demak, oila sonining ko'pligi ular orasida moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlashga muhtojlari ham bo'lishi tabiiy ekanligini ko'ratstadi va xukumatimiz va shaxsan Prezidentimizning bu boradagi siyosati aynan yosh oilaning manfaatlarini himoya qilish yo'lidagi say'i-harakatlardan biridir.

Albatta, yosh oila borasidagi eng muhim masalalardan biri – yoshlarning o'zaro munosabatlari va ularning yangicha munosabatlar tizimiga ko'nikishi masalasidir. Chunki romantik sevgi, bir-birini yoqtirish bosqichidan o'tgan yoshlarning endi yangi oilaviy hayot tamoyillari asosida kundalik hayotni boshdan kechirishiga muayyan qiyinchiliklar bo'lishi tabiiy. Yigit-ku o'z uyida, ota-onasi yaratib bergan sharoitda yashaydi. Moslashuv jarayonidagi qiyinchiliklarning eng og'iri kelinchakning bo'yniga tushadi. U boshdan kechiradigan muammolardan biri esa – yangi oila a'zolari bilan muomala maromlarini to'g'ri o'rnatishdir. To'g'ri, to'ydan keyin turkona, o'zbekona urq-odatga ko'ra qizning onasi va uning yaqin qarindoshlari kelinchakni "o'qlaydi", ya'ni, pishir-kuydir qilib, qiz o'z xonadonida suygan taomini pishirib, yangi kelin tushgan xonadonda dasturxon yuboriladi. Albatta, bu kabi azaliy urf-odatni asosida yotgan muhim sabablar bo'lib, birinchisi, yangi muhitga tushib qolgan qiz bu yerdagi issiq-sovuqqa tez ko'nikib ketolmasligi, taom tanavvul qilishda keskin o'zgarish bo'lmasligi uchun to ko'nikkuncha, bir necha kun o'z xonadonidan ovqat yuborish va shu orqali uni "yupatish" bo'lsa, ikkinchi ma'nosi –

ota-ona qizini unutmaganligi, hanuz unga mehrli munosabatda ekanliklarini izhor qilishdir. Bu kabi munosabatlarning saqlanishi qisman bizning hozirgi sharoitimizda ham o'zini oqlaydi, lekin yo'qlov bahonasida tog'oralarda ovqat-oziqning xadeb kuyov uyiga jo'natilishi, ortiqcha dabdabalarga yo'l qo'yilishida umuman mantiq yo'q. Chunki hozir ko'pchilik onalar oila yumushidan tashqari davlat va jamoat muassasalarida xizmat qiladilar. Ular uchun bunday tashvishlar ortiqcha, ikkinchidan, qizlar ilgarigiday juda erta turmush qurmaydigan va o'qish, ish bahonasida turli taomlarni eyishga yoshlikdan o'rgangan sharoitda ularning oshqozonlari yangi xonadonda ham birday ishlayveradi. Ya'ni, yosh oilaning mustahkam bo'lishiga rahna soluvchi omillardan biri hisoblanmish ortiqcha ovoragarchiliklar, dabdabali tushliklarning ikkinchi xonadonga yuborilishi bugungi taraqqiyot bosqichida biroz erish tuyulishi tabiiy.

O'tkazilgan tadqiqotlardan yana shu narsa ma'lum bo'lmoqdaki, yosh oilaning tinchlik-totuvchilikda yashashiga halaqit berayotgan sabablardan biri – qaynonalar bilan yangi kelinchakning tez kirishib, til topishib keta olmayotganligi. Bu ham oilaviy munosabatlar borasidagi muammolardir. Chunki ayniqsa, shahar sharoitida bitta yoki ikkitagina o'g'il o'stirgan ona ko'pincha yangicha munosabatlar tizimiga o'zi ko'nika olmaydi va kelinchakni ham tezroq ko'nikib ketishiga yordam berish choralarini bilmaydi. Ya'ni, qaynona bilan kelin o'rtasida o'ziga xos rashkka o'xshash munosabatlar paydo bo'ladiki, bu holat qaynonaning kelinga nisbatan adolatli, bag'rikeng inson sifatida ish tutishiga halaqit beradi. Toshkent shahrida sodir bo'layotgan nikoh ajrimlarining sabablari orasida aynan qaynona bilan kelin o'rtasidagi nizolarning qayd etilishi yuqoridagi fikrlarning dalilidir. Shuning uchun bunday holatlarning oldini olishning yo'llaridan birinchisi – bu yoshlarni (yigit va qizlarni) oilaviy munosabatlarga psixologik jihatdan tayyorlash bo'lsa, ikkinchi yo'li – jamoatchilikni keng jalb qilgan holda

mahallalarda "Oila saboqlari", "Ota-onalar universiteti" kabi ma'rifiy institutlarni joriy etish orqali ota-onalarni ham kelin va kuyov bilan munosabatga, muloqotga o'rgatishdir. Bunda OAV va ommabop nashr etilgan risolalarning ham ahamiyati katta.

Yosh oilalarning ijtimoiy va psixologik muammolari

Yosh oila: munosabatlar modeli va xususiyatlari.

Yosh oila va sog'lom turmush tarzini barqarorlashtirish.

Yoshlarni nikoh oldi tibbiy ko'rikdan o'tkazish va nikohning mustahkamligi

Yosh oila: munosabatlar modeli va xususiyatlari. **Yosh oila** deb, avvalo, er va xotinning ikkalasi ham 30 yoshdan oshmagan yoki oilaviy turmush qurish tajribasi 10 yildan oshmagan yoshlar oilasi nazarda tutiladi. Birinchi yondashuv, ya'ni, er va xotinning pasport yoshini inobatga olib, oilaga maqom berish to'g'riroq bo'lib, qachon turmush qurganligidan qat'iy nazar, albatta, shu muddat orasida xali yigit ham qiz ham tom ma'noda katta mehnat stajiga ega bo'lmaydi, va ko'p hollarda ayol-ona aynan shu davrda farzandli bo'lib, uy bekasi bo'lib o'tirib qolishi ehtimoli katta. Agar ikkinchi yondashuv bo'yicha yosh oilani oilada yashash muddatiga ko'ra tabaqalashtirilsa, unda u yoki bu jamiyatda nikoh yoshining o'rtacha ko'rsatgichi ortib yoki kamayib borishini nazarda tutish lozim. Chunki ayrim davlatda va ayrim milliy-madaniy muhitda yoshlarni juda erta turmush qurishi rag'batlantirilsa, boshqalarida, ayniqsa, oxirgi yillarda aksincha, yigit va qizlarning kasb-hunar orttirish bo'yicha professional malakaga erishish asosiy qadriyat hisoblangan sharoitlarda 30 yoshdan oshgan odam endi oila qurgan yoki xali ham turmush qurmagan bo'lishi ham mumkin. Ma'lumotlarga qaraganda, Amerika Qo'shma Shtatlari, Germaniya kabi rivojlangan Yevropa va Amerika davlatlarida, Sharqiy Osiyoning rivojlangan mamlakatlarida (Yaponiya, Koreya kabi) nikoh yoshi yil sayin ortib, ayrim mamlakatlarda bu raqam 30 yoshdan ham o'tib ketmoqda. Juda erta turmush qurish qanchalik oila va uning barqarorligi bilan ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklar bilan

O'zbekistonda kundan-kunga hayot va yashash sharoitimiz yaxshilanib, oila farovonligi uchun yetarli shart-sharoitlarning bo'lishiga qaramay, tashqaridan barcha maishiy muammolari xal bo'lgan yosh oilada ham nimalaridir yetishmayotganday tuyulaveradi. Bu - o'sha orzu-havaslari, ijtimoiy ehtiyojlarning tobora ortib borayotganligi bilan izohlanadi. Shu bois ham yurtimizda yosh oila manfaatlarini ijtimoiy jihatdan muxofaza qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Buning yorqin isboti 2007 yilning "Ijtimoiy himoya yili" deb e'lon qilinganligi, ushbu yilda qabul qilingan davlat dasturida yosh oila manfaatini himoya qilish alohida badda aks etganligi va nihoyat, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 18 may kuni imzolagan "Yosh oilalarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonidir. Farmonning ijtimoiy hamda tarixiy ahamiyati shundaki, unda yosh oila mustahkam va unda tarbiyalanayotgan farzandlarning sog'-salomat uylag'ishlariga oid barcha eng muhim vazifalar belgilab berilgan. Xususan, ko'p bo'lg'inli va ko'p farzadli oilalar soni nisbatan ko'p bo'lg'inli biznes sharoitimizda Prezident Farmoni bo'yicha yosh oilalarning maishiy turmush sharoitini yaxshilash, kam ta'minlangan oila farzandlarining nikohdan o'tishi va to'y marosimlarini o'tkazishda qo'shimcha moddiy yordam ko'rsatish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanishni xohlaganlar uchun, uy-joy qurilishi, ta'mirlash va sotib olish uchun, uy ho'jaligini yo'lga qo'yish, mebel va boshqa uzok muddat foydalaniladigan hayotiy zarur tovarlar uchun ipoteka, iste'mol kreditlarining imtiyozli tarzda berilishi kabi tadbirlar oila mustahkam va baxtli hayot kechirishini kafolatlovchi muo'm masalalardir. Oxiri statistik ma'lumotlarga qaraganda, O'zbekistonda yiliga o'rtacha 175-180 mingdan ortiq nikohlar qayd etiladi. Umumiy oilalar miqdoriga nisbatan qaralganda yosh oilalar salkam 40 foizni tashkil etadi. Demak, oila sonining ko'pligi ular orasida moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlashga muhtojlari ham bo'lishi tabiiy ekanligini

Oxirgi holat bir tomondan, ayni paytda yoshlardagi orzu-havaslarning ko'payib ketishi bilan izohlansa, boshqa tomondan, ota-onalarning orzu-qavaslarini, bordi - keldi bilan bogliq sari-xarajatlarning ortib borishi bilan chambarchas bog'liqdir.

• iqtisodiy qiyinchiliklar.
toliqishi, asablarning charchashi;
• yangi sharoitda erkaning ham ayolning jismonan cheklanganligi;
• vaqtni yaxshi o'tkazish, ko'ngilxushliklarning yetishmasligi;
ishlash, o'qish yoki boshqa masalalarni xal qilish uchun vaqtning
• oila hayotini bir maromda kechishini ta'minlash,
namoyon bo'ladi:
kechiradiki, bu muammolar quyidagi holatlarga bog'liq tarzda oila aynan yoshlik davrida muayyan qiyinchiliklarni boshdan bilish mahoratiga bevosita bog'liqdir. Lekin baribir har bir ibrat sifatida ko'rgan-kechirganlarini uchun o'z oilasida qo'llay qadriyatlariga nisbatan uyg'un qarashlariga, ota-ona oilasida bo'lgan samimiy munosabatiga, oila va uning atrofidagi turli muddat aslida turmush qurgan ikki shaxsning bir-biriga muammolarni o'zi mustaqil xal qilishi uchun zarur bo'lgan mustahkamlanib, oyoqqa turib ketishi, turli maishiy Ko'plab oilalarning ta'kidlashlaricha, yosh oilaning muddat turmush kechirganlar oilasi.

• katta oila hayot muddati - 20 yil va undan ortiq
• o'rta oila hayot muddati - 10 yildan 19 yilgacha;
• yosh oila - 5 yildan 9 yilgacha;
• juda yosh oila - nikohga kirgan vaqtdan toki 4 yilgacha;
mezonlar inobatga olinadi:

Umunan, fanda yosh oilani tavsiflaganda quyidagi tug'ilishi bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqaradi.
xotining salomatligi holati, tug'ilajak zurriyodning sog'lom va moddiy-ma'naviy qiyinchiliklar bilan, eng muhim er va bog'liq bo'lsa, kech turmush qurish ham gator salbiy asoratlar

ko'ratstadi va xukumatimiz va shaxsan Prezidentimizning bu boradagi siyosati aynan yosh oilaning manfaatlarini himoya qilish yo'lidagi say'i-harakatlardan biridir.

Albatta, yosh oila borasidagi eng muhim masalalardan biri - yoshlarning o'zaro munosabatlari va ularning yangicha munosabatlar tizimiga ko'nikishi masalasidir. Chunki romantik sevgi, bir-birini yoqtirish bosqichidan o'tgan yoshlarning endi yangi oilaviy hayot tamoyillari asosida kundalik hayotni boshdan kechirishiga muayyan qiyinchiliklar bo'lishi tabiiy. Yigit-ku o'z uyida, ota-onasi yaratib bergan sharoitda yashaydi. Moslashuv jarayonidagi qiyinchiliklarning eng og'iri kelinchakning bo'yniga tushadi. U boshdan kechiradigan muammolardan biri esa - yangi oila a'zolari bilan muomala maromlarini to'g'ri o'rnatishdir. To'g'ri, to'ydan keyin turkona, o'zbekoana urq-odatga ko'ra qizning onasi va uning yaqin qarindoshlari kelinchakni "yo'qlaydi", ya'ni, pishir-kuydir qilib, qiz o'z xonadonida suygan taomini pishirib, yangi kelin tushgan xonadonda dasturxon yuboriladi. Albatta, bu kabi azaliy urf-odatni asosida yotgan muhim sabablar bo'lib, birinchisi, yangi muhitga tushib qolgan qiz bu yerdagi issiq-sovuqqa tez ko'nikib ketolmasligi, taom tanavvul qilishda keskin o'zgarish bo'lmasligi uchun to ko'nikkuncha, bir necha kun o'z xonadonidan ovqat yuborish va shu orqali uni "yupatish" bo'lsa, ikkinchi ma'nosi - ota-ona qizini unutmaganligi, hanuz unga mehrli munosabatda ekanliklarini izhor qilishdir. Bu kabi munosabatlarning saqlanishi qisman bizning hozirgi sharoitimizda ham o'zini oqlaydi, lekin yo'qlov bahonasida tog'oralarda ovqat-oziqning xadeb kuyov uyiga jo'natilishi, ortiqcha dabdabalarga yo'l qo'yilishida umuman mantiq yo'q. Chunki hozir ko'pchilik onalar oila yumushidan tashqari davlat va jamoat muassasalarida xizmat qiladilar. Ular uchun bunday tashvishlar ortiqcha, ikkinchidan, qizlar ilgarigiday juda erta turmush qurmaydigan va o'qish, ish bahonasida turli taomlarni yeyishga yoshlikdan o'rgangan sharoitda ularning oshqozonlari yangi xonadonda

ham birday ishlayveradi. Ya'ni, yosh oilaning mustahkam bo'lishiga rahna soluvchi omillardan biri hisoblanmish ortiqcha ovoragarchiliklar, dabdabali tushliklarning ikkinchi xonadonga yuborilishi bugshungi taraqqiyot bosqichida biroz erish tuyulishi tabiiy.

O'tkazilgan tadqiqotlardan yana shu narsa ma'lum bo'lmoqdaki, yosh oilaning tinchlik-totuvchilikda yashashiga halaqit berayotgan sabablardan biri - qaynonalar bilan yangi kelinchakning tez kirishib, til topishib keta olmayotganligi. Bu ham oilaviy munosabatlar borasidagi muammolardir. Chunki ayniqsa, shahar sharoitida bitta yoki ikkitagina o'g'il o'stirgan ona ko'pincha yangicha munosabatlar tizimiga o'zi ko'nika olmaydi va kelinchakni ham tezroq ko'nikib ketishiga yordam berish choralari bilmaydi. Ya'ni, qaynona bilan kelin o'rtasida o'ziga xos rashkka o'xshash munosabatlar paydo bo'ladiki, bu holat qaynonaning kelinga nisbatan adolatli, bag'rikeng inson sifatida ish tutishiga halaqit beradi. Toshkent shahrida sodir bo'layotgan nikoh ajrimlarining sabablari orasida aynan qaynona bilan kelin o'rtasidagi nizolarning qayd etilishi yuqoridagi fikrlarning dalilidir. Shuning uchun bunday holatlarning oldini olishning yo'llaridan birinchisi - bu yoshlarni (yigit va qizlarni) oilaviy munosabatlarga psixologik jihatdan tayyorlash bo'lsa, ikkinchi yo'li - jamoatchilikni keng jalb qilgan holda mahallalarda "Oila saboqlari", "Ota-onalar universiteti" kabi ma'rifiy institutlarni joriy etish orqali ota-onalarni ham kelin va kuyov bilan munosabatga, muloqotga o'rgatishdir. Bunda OAV va ommabop nashr etilgan risolalarning ham ahamiyati katta.

Yosh oila va sog'lom turmush tarzini barqarorlashtirish. Yosh oilaning mustahkamligi, undagi ma'naviy muhitning barqarorligi yoshlarning salomatligiga, sog'lom turmush tarzi malakalariga ega ekanligiga ham bog'liq. Bunda ota-onaning, yaqin qarindosh-urug'larning umuman sog'lom turmush tarzi haqidagi tasavvurlari qanchalik aniq va ularning kundalik

turmushda salomatlikni asrash ko'rikmalariga ega ekanliklari katta ahamiyat kasb etadi.

Gap eng katta boyligimiz - salomatlik haqida borar ekan, qulog'imizga tez- tez chalinayotgan "sog'lom turmush tarzi" tushunchasining o'zi xususida olimlar fikrlarini tahlil etish lozim. Olimlar hamda mutaxassislarning ta'kidlashlaricha, sog'lom turmush tarzining beshta asosiy sharti bo'lib, bular eng avvalo to'g'ri ovqatlanish, jismoniy faollik, zararli odatlardan saqlanish, mehnat qilish va faol dam olishni to'g'ri tashkillashtirish hamda gigienik ko'nikmalarga amal qilishdir.

Mana shu shartlarga rioya qilgan kishining salomatligi shubhasiz o'z qo'lida bo'ladi. Lekin ko'pincha bu shartlarga amal qilish yoshlarga ko'pincha erish tuyuladi. Hozirgi kunda ko'pchilik o'rtasida uchrayotgan kasalliklar va bevaqt o'limning asosiy sabablaridan biri oila a'zolarining sog'lom bo'lish uchun o'zlari harakat qilmayotganliklari, hali ham biron bir mo'jizaviy hayot baxsh etuvchi dori yoki shifokor bo'lishiga ishonib, yashayotganliklaridir. Albatta, zamonaviy tibbiyot fani O'zbekistonda ham rivojlanish ketdi, tibbiyot xodimlari orasida o'z kasbining ustasi bo'lgan oliyjanob insonlar ham ko'p. Lekin agar inson o'z turmush tarzini ongli tashkil etib, kasal bo'lib qolganda ham unga qarshi o'sha shifokor bilan tengma-teng ongli ravishda turmasa, dardni yengish mushukul bo'lishini bugun ko'pchilik yaxshi biladi.

Lekin yoshlar o'rtasida shu oddiy haqiqatni bilmaganlar ham ko'p. Salomatlikni o'z vaqtida o'z uyimiz, o'zimiz o'rganib qolgan muhitda saqlay olmaganligimizning, farzandlarimizni ilk yoshligidan sog'lom turmush tarzi ko'nikmalariga o'rgatmaganligimizning sabablari ham bor. Buning obyektiv sabablaridan biri sobiq sovet davrida tibbiy xizmatning bepulligi, tibbiyot xodimlari malakasiga nisbatan talabchanlikning past bo'lganligidir. Bu siyosat eski tuzumning boshlang'ich davrlarida aholi o'rtasida uchragan ko'pgina kasalliklarni kamaytirishga xizmat qilgan bo'lsa-

da, shu bilan birga, bunday siyosat kishilarda o'z sog'liqlariga befarqlik, boqimandalik kayfiyatini ham shakllantirdi. Yana bitta sabablaridan biri kasallikni sababi bilan emas, uning oqibati bilan kurashib kelindi. Natijada kasalxonalar qurish, ularda kasallar soni oshirishga ko'proq e'tibor berilib, targ'ibot sohasiga ikkinchi darajali sifatida qaraldi. Oqibatda aholi orasida tibbiy madaniyatning pastligi tufayli kasallanishning ko'payib borishi davom etdi. Bu o'z - o'zidan ma'lumki, har bir oilaning byudjetiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Oqibatda bu nafaqat byudjetga, balki oilaning mustahkamligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi va hozir ham shunday.

Shuni alohida mas'uliyat bilan ta'kidlash joizki, davlatimiz asosini tashkil etgan yosh oilalar ravnaqi kelajagimiz poydevorini sog'lomlashtirish uchun targ'ibotni eng avvallo oiladan, qolaversa, barchamiz uchun "vatan ichra vatan bo'lgan" mahalladan boshlash kerak. Chunki, sog'lom turmushi tarzini oilada to'g'ri yo'lga qo'ysak, shu oila azosi salomatlik eng birinchi darajali ekanligini tushunib yetadi. Bir oila tushunib yetgan narsani shu oilaning boshqa yaqinlari - qarindosh-urug'lar, keyinchalik yoru-birodarlar, nihoyat qo'ni-qo'shnilar tushunib yetadi.

Olimlarning fikricha, inson salomatligining 51,6% sog'lom turmush tarziga, 20,5 % irsiyatga, 19,3 % tashqi ekologik muhitga, 8,6% sog'liqni saqlash tizimiga bog'liq ekan. Ko'rinib turibdiki, salomatlik har bir insonning qanday hayot kechirishi, nima yeyishi, kimlar bilan muomala qilishi, o'zi uchun munosib, qulay hayot tarzini ishda ham, dam olishda ham tashkil eta olishiga bevosita aloqador ekan.

Salomatlik - bu nafaqat sog'-salomat yurish degam, balki uzoq umr ko'rish garovi hamdir. Tug'ilish, o'sib ulg'ayish, voyaga yetib shaxsiy va umuminsoniy manfaatlar yo'lida faoliyat ko'rsatish, qarish-qartayish va o'lim - bular inson hayot yo'lining qonuniy bekatlaridir. Bu hayot uchun kurash - salomatlik uchun kurash ekanligini anglashni taqozo etadi.

Demak, *sog'lom turmush tarzi bu* - har bir insonning ma'naviy, aqliy, ruhiy va jismoniy xususiyatlarga ega bo'lishga harakat qilishidir. Agar inson o'z hayotini faol harakatlanish rejimiga sola olsa, kun tartibini ongli belgilay olsa, ovqatlanish, mehnat qilish yoki dam olish tartiblarini to'g'ri tashkil eta olsa, gigiena qoidalariga rioya qilgan holda zararli odatlardan o'zini tiya bilsa, atrof-muhitga ehtiyotlik va sarishtalik bilan qarab, oilada va yonidagi qo'ni-qo'shni, yaqin qarindoshlar bilan tinch-totuv yashashga imkon beruvchi muomala madaniyatiga ega bo'lsa va sog'lom farzandning tug'ilishiga eng avvalo o'zi mas'ul ekanligini tushunsa, unda sog'lom turmush tarzi haqida tasavvurlar mavjud, deyish mumkin.

Bugungi kunda butun dunyoda salomatlik va sog'lom turmush tarziga katta e'tibor berilmoqda. Masalan, amerikalik olimlar bu narsaga panja ortida qarash nimaga olib keladi, degan savolga ko'proq ularni agressiv xulq-atvor bilan bog'lamoqdalar. Ya'ni, odam urushqoq, salga tajang bo'ladigan, sabrsiz bo'lib qoladi. Bu narsa oxir oqibat giyohvandikka berilish, ichkilikka ruju qo'yish, oilada er-xotin o'rtasida nosog'lom munosabatlarning kelib chiqishi, ayolga nisbatan zug'umning ortishi, sportga nisbatan befarqlik, shaxslararo ziddiyatlarni keltirib chiqaradi.

Respublika "Oila" ilmiy-amaliy markazi olimlari 2000 yillarning boshida O'zbekiston xududidagi qishloq oilalari a'zolarining sog'lom turmush tarzi borasidagi savodxonligini maxsus tadqiqot doirasida o'rgandi. Xorazm, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasidagi 600 dan ziyod xotin-qizlar bilan suhbat va so'rovlar o'tkazildi. So'raluvchilarning aksariyati tug'ish yoshidagi ayollar bo'lib, ularning fikrlarini umumlashtirib tahlil qilinganda, oilali ayollarning 21%i va erkaklarning 9,9% surunkali kasalliklarga chalingan ekan. So'raluvchilardan 53,3 foizi faqat kasal bo'lgandagina vrachga murojaat qiladi, qolganlari vaqti-vaqti bilan murojaat qiluvchilardir. Demak, ko'pchilik betob bo'lib

qolganlagina vrachga murojaat qiladi, hattoki, kasal o'tib ketgandan keyin vaqt topadiganlar ham kam emas. Demak, sog'lom turmush tarziga aloqador tibbiy madaniyatimiz borasida o'ylashga arziydigan muammo bor.

Shu bois ham, sog'lom turmush tarzi kategoriyasi ko'proq ijtimoiy kategoriya bo'lgani Markaz olimlari so'raluvchilarning tibbiy-gigienik ma'lumoti darajasini o'rgandilar. Masalan, "O'z farzandlaringiz bilan tibbiy-gigienik mavzuda suhbatlashib turasizmi?" degan savolga barcha so'rluvchilarning 62,6% ijobiy javob bergan bo'lsalar, umuman gaplashmaydiganlar 19,8% ni tashkil etdi. Bu o'ylantiradigan holat, albatta. Lekin tibbiy bilimning zaruratini anglaydiganlar qishloq aholisi o'rtasida ortib bormoqda. Masalan, so'raganlarimizning 82% "Har bir kishi tibbiy bilimga ega bo'lishi kerak" deb hisoblaydi. Shunisi e'tiborga molikki, o'rganilgan guruhdagilarning 87,7 foizida birinchi farzandlari qolgan keyingilariga nisbatan ko'proq xastalangan. Demak, yosh ona bolasini parvarish etish malakasiga, tajribasiga ega bo'lmaganidan tez-tez kasal qilib qo'yadi. Aynan o'shalar tibbiy savodxonlikka muhtojdir.

Albatta, sog'lom turmush tarzi tushunchasi har insonda o'ziga xos tarzda shakllanar ekan. Respondentlarga "Sog'lom turmush tarzini qanday tushunasiz?" deb savol bilan murojaat qilinganda, ko'pchilik, ya'ni so'ralganlarning salkam 41%i uni "atrof-muhit tozaligi" bilan, 37,3% i "to'g'ri, ratsion bo'yicha ovqatlanish" bilan, qolganlar - "o'z vaqtida uxlash", "sport bilan shug'ullanish" (28,4%), "chekmaslik, ichmaslik" kabilar bilan bog'lashdi.

Albatta, bu kabi sog'lom turmush tarzi bilan bog'liq tasavvurlar shakllanadi, kerak bo'lsa, tarbiyalanadi. Sog'lom turmush tarzi haqidagi tushunchalarni qaerdan olish mumkinligini o'rganilganda, tabiiy, OAVning o'rni va roli katta ekanligi ma'lum bo'ldi. Ayniqsa, xotin-qizlarning fikricha, televideniening roli katta (72,6%), gazetalar - ikkinchi o'rinda - 57,5%, jurnallar - 46,3% va radio - 31,2%. Demak, bu

manbalardagi axborot va ma'lumotlarning xalqbop, ommabop bo'lishiga alohida e'tibor berish, mahalla guzarlarda radio eshittirishlari va davriy gazeta, jurnallarning vaqtida berilishiga alohida e'tibor berish lozim. Demak, sog'lom turmush tarzi to'g'risida har bir yosh avlodda shakllanadigan bilimlar, tasavvurlar va ularning amaliy turmush tarkibida ongli xatti-harakatga aylanishi ko'plab ijtimoiy muammolarni yechishga imkon beradi. Shuning uchun ham bugun xalq o'rtasida amalga oshiriladigan targ'ibot va tashviqot ishlarining samaradorligini oshirish, buni mafkuraviy va ma'naviy ishlarning tarkibiy qismiga aylantirish lozim.

Mustaqil yurtimizda keng quloch yozayotgan bolalar sportini rivojlantirish, oilaviy sportni milliy mentalitetimiz xususiyatlariga mos tarzda hayotga joriy etish, mustahkam oilada sog'lom turmush tarzini barqarorlashtirishga qaratilgan barcha say'i-harakatlarimiz islohotlarimiz strategiyasiga mos bo'lib, yurtimizda tinchlik, totuvlik hamda rivojlanishga, yosh oilalarning mustahkamligiga xissa bo'ladi. Bunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan qator hayrli tadbirlar, jumladan nikoholdi tibbiy ko'rikdan kelin va kuyovlarni o'tkazish amaliyoti o'zining juda katta ijobiy samarasini berishi tabiiy.

Yoshlarni nikoholdi tibbiy ko'rikdan o'tkazish va nikohning mustahkamligi. Oila Kodeksining 17-moddasida yosh kelin-kuyovlar nikohgacha ixtiyoriy tarzda tibbiy ko'rikdan o'tishlari maqsadga muvofiq ekanligi ta'kidlangan. Bu modda kiritilishining mohiyati shundaki, imonli, insofli va yaxshi niyatli inson uchun oila qurish, uning mustahkam poydevorda bo'lishiga qayg'urish qanchalik muhim va majburiy bo'lsa, yoki ota-ona bo'lish mas'uliyati kuchli bo'lsa, o'zidan sog'lom zurriyot qoldirish, uni sog'-salomat katta qilib voyaga yetkazish, to'g'ri tarbiya berish shunchalik mas'uliyatli va majburiy ishdir. Shuning uchun ham har bir yigit va qiz, yoki ularning ota-onalari yangi oila qurish ishini savob va mas'uliyatli deb anglasalar,

nikohga kiruvchilarning pushti va nasli nuqtayi nazaridan sog'-salomatligiga ishonch hosil qilish shunchalik zurrudir. Tibbiy ko'rikdan o'tgan har ikki yosh eng avvalo o'z vijdoni oldida toza bo'lishi masalaning bir tomoni bo'lsa, hali oilani qurmay turib, uning salomatligi haqida qayg'urayotganligi ulardagi ana shu nikohday muqaddas narsaga bo'lgan jiddiy va mas'uliyatli munosabatining namoyon bo'lishidir. Ayniqsa, bugungi bozor munosabatlari sharoitida oila har bir a'zosining sog'lom bo'lishi, yangi tug'ilgan farzandning sog' va salomat katta bo'lishi qanchalik muhim iqtisodiy hamda ma'naviy masala ekanligini bugun hamma tushunib qoldi.

Jamiyatda sog'lom oilalar sonini oshirish maqsadida qabul qilingan qarorlardan biri bu - "Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish to'g'risida"gi nizomdir. Bu hujjat O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 25 avgustda qabul qilgan 365 sonli qarori bilan tasdiqlangan. Ushbu nizomga ko'ra, barcha barcha fuqarolar nikohdan oldin tibbiy ko'rikdan o'tishlari zarur. Bunda bo'lajak kelin-kuyovlar beshta asosiy xastalik - sil, teri-tanosil, giyohvandlik, OITS, ruhiy kasalliklar bo'yicha tekshiriladi. Sababi, bu beshta kasallik bevosita naslga ta'sir qiladi.

Kuzatishlar va amaliyot shuni tasdiqlamoqdaki, nikoholdi tibbiy ko'rikdan ongli ravishda o'tish, salomatlikni asrashning aynan o'zimizga, oilamizga bog'liq jihatlarini bilish, bolalar sporti, oilaviy, ommaviy sportni rivojlantirish, oilada sog'lom yashash tarzi ko'nikmalarini shakllantirish millatni jisplashtiruvchi, naslni poklovchi, davlatni kuchli qiluvchi omil sifatida baholanmoqda. O'tkazilgan tadqiqotlar yurtidoshlarimizda "salomatlik" qadriyatiga munosabatlari ijobiy tomonga o'zgarayotganligini isbotlamoqda. Xususan, Respublika "Oila" ilmiy- amaliy hamda jamoatchilik fikrini o'rganish "Ijtimoiy fikr" markazlarining tadqiqot natijalariga e'tibor beradigan bo'lsak, agar 2003 yilda aholining faqat 42,7 foizigina nikoholdi tibbiy ko'rikdan o'tishga ongli munosabatni

ifoda etgan bo'lsa, 2005 yilda bunday ijobiy ko'rsatgich 84,4 foizni tashkil etdi. Oxirgi yillarda bu borada yanada sezilarli ijobiy o'zgarishlarning sababi ham eng avvalo yosh onaning, kelinchakning salomatligini muhofaza qilish istagi yetakchi omil bo'layotganligidir.

Olimlarning kuzatishlari va tadqiqotlar yurtidoshlarimizda, ayniqsa, yosh kelin-kuyovlarda xastaliklarni oldini olish yoki bemor bo'lib qolganda dori- darmonlarni iste'mol qilishga munosabati keskin o'zgarib borayotganligini ko'rsatmoqda. Yurtidoshlarimiz bunda eng avvalo profilaktik tibbiyot, ya'ni xastalikni oldini olish uchun sog'lom turmush tarzi qonun-qoidalariga rioya etish, bunda sog'lom fikr va ruhiy quvvatdan foydalanish, bo'lgan-bo'lmagan dorilarni iste'mol qilavermaslik ko'nikmalarini egallab borayotganligi tasdiqladi. Bu ham ma'lum ma'noda mamlakatimizda "Sog'lom ona - sog'lom bola" ijtimoiy harakatining, samarali targ'ibot-tashviqot ishlarining natijasidir. Qishloq xududlarida aholining toza ichimlik suvi, zarur sanitariya-gigiena shart- sharoitlarini yaratish, xususan, ota-bobolarimizdan qolgan har bir mahallada sharqona yuvinish maskanlari bo'lmish hammomlar qurilishiga e'tiborning ortayotganligi ham yurtidoshlarimiz psixologiyasining muhim o'zgarishlaridandir.

Oxirgi yillarda ommaviy sportga, oilaviy hamda bolalar, ayollar sportiga e'tibor yanada kuchaydi. "Barkamol avlod" sport o'yinlari, "Universiada", "Umid nihollari" musobaqalari, Respublika ayollar spartakiadasi, badiiy gimnastika bo'yicha xalqaro bellashuvlar va boshqalar o'z ko'lamini va xalqchilligi bilan xalq e'tirofini qozondi. Ushbu sa'yi harakatlar davlatimizning bu boradagi strategik rejalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda xalq bilan hamjihat ekanligini isbotlamoqda. Yurtimiz ayollari va bolalar sport bilan faqat o'zining jismoniy quvvatini tiklash va bo'sh vaqtini maroqli o'tkazish uchun emas, balki u orqali sog'lom turmush tarzi keng targ'ibot qilish, ma'naviy va jismoniy kamolga intilish, turli salbiy ta'sirlar va zararli

odatlardan halos bo'lish, kuchli xarakterni shakllantirish uchun shug'ullanayotganliklari har qanday taxsinga loyiqdir.

Bularning barchasi strategik maqsadimiz - milliy genofondni yaxshilash, barkamol va sog'lom avlod tarbiyasi borasida amalga oshirayotgan ishlarni yanada takomillashtirish orqali yosh oilalarning barqarorligiga erishishdan iboratdir.

YOSHLARNI OILAGA TAYYORLASHGA

QARATILGAN TESTLAR

1- TEST. «SEVGI VA YOQTIRISH MAYLI SHKALASI» TESTI

Oila qurish motivlaridan biri sevgi-muhabbat hisoblanadi. Oilaviy munosabatlarning qaydarajada kechishi ko'pincha shu motivga bog'liq. Lekin har qanday inson o'z his-tuyg'ularining sevgi obyekti, ya'ni tanlagan kishisiga nisbatan qanday ekanligini bilib olishi kerak. Quyida keltiriladigan test shaxsdagi his-tuyg'ularidan sevgi va yoqtirishning darajasini aniqlashga yordam beradi. Buning uchun shu 14 ta tasdiqlarning ushbu javob variantlaridan birini belgilaysiz: a) ha, bu shunday; b) ehtimol shundaydir; d) u qadar bo'lmasa kerak; e) butunlay unday emas. Bunda iloji boricha tez ishlashga harakat qiling. Bu tasdiqlarning toq va juft o'rinda turganlarining ballarini summasini hisoblash orqali o'zingizdagi hissiyot turini aniqlashingiz mumkin. Buning uchun toq va juft tasdiqlar bo'yicha olgan ballaringizni hisoblab chiqing. Ya'ni toq sondagi tasdiqlar orqali sevgi darajasini, juft sondagi tasdiqlar esa yoqtirish (mayli) darajasini bildiradi. Qaysi shkala bo'yicha ballaringizning ko'p ekanligi, sizning munosabatingizda shu his-tuyg'u turining ustunligini ko'rsatadi. Muhabbat eng qadimiy va navqiron tushuncha. U shu kungacha qarigan emas, bundan keyin ham qarimaydi. U hamisha — Oila psixologiyasi

Tasdiqlar

1. Men unga mutlaqo hamma narsani ishonishim mumkin. 4 3 2 1
2. Birga bo'lgan vaqtlarimizda bizning kayfiyatimiz doimo mos tushadi. 4 3 2 1
3. U faqat menikidir deb ayta olaman. 4 3 2 1
4. U juda aqlli kishi. 4 3 2 1
5. Uning uchun men mutlaqo hamma narsaga tayyorman. 4 3 2 1
6. Ko'pchilik hollarda, u odamlar bilan tanishgan vaqtlarimizda ularga yoqa boshlaydi. 4 3 2 1

7. O'zimni noxush (yomon) his qilgan vaqtlarimda faqat u bilan suhbatlashgim, hasratlashgim keladi. 4 3 2 1

8. Biz u bilan qalban o'xshashmiz deb o'ylayman. 4 3 2 1

9. Agar, usiz yashashga to'g'ri kelib qolsa, unda menga juda og'ir (qiyin) bo'lar edi. 4 3 2 1

10. Men unga o'xshagan bo'lishni xohlar edim. 4 3 2 1

11. Unga doimo yaxshi bo'lishi uchun men o'zimni javobgar deb his qilaman. 4 3 2 1

12. U menga nisbatan yaxshi munosabatda ekanligiga ishonchim komil. 4 3 2 1

13. Uning boshqalardan ko'ra, menga ko'proq ishonishini his qilish menga yoqadi. 4 3 2 1

14. U men bilgan qizlar (yigitlar) orasida engjozibali (yoqimlidir). 4 3 2 1

2-TEST. «BU KATTA SEVGIMI YOKI YENGIL-YELPI YOQTIRISHMI?» TESTI

Quyida beriladigan savolli vaziyatlarga mos kelgan javobni tanlasangiz, u holda sizdagi hislaringizning qanday ekanligini bilib olish imkoni tug'iladi. Javob namunasining o'zingizga ma'qulini tanlayotganingizda miyangizga birinchi bo'lib kelgan fikrni tanlash maqsadga muvofiq ekanligini unutmang.

1. Uchrashuvga keta turib, Siz:

a) o'zingiz yoqtirgan ko'ylagingizni kiyasiz;

b) u yoqtirgan ko'ylakni kiyasiz;

d) ko'ylaklaringiz orasida eng yangisini kiyasiz.

2. Siz sevgilingizning ota-onalariga ro'baro' kelib qolsangiz:

a) Siz bundan juda xijolat bo'lasiz;

b) bu siz uchun yoqimli va qiziqarli;

d) ularga duch kelmasam bo'lardi, deb o'ylaysiz.

3. Agar Sizning sevgilingiz Sizga kitob taqdim esa:

a) Siz boshqa kitobga almashtirishga tayyorsiz;

b) shunday kitobni orzu qilardim, deysiz;

d) bexosdan "Menda bu kitobdan bor!", — deysiz.

4. Agar u sizga qo'ng'iroq qilaman deb va'da bergan bo'lsa-da, lekin nechundir qilmasa:

a) Siz yig'laysiz;

b) kun bo'yi telefon oldida o'tirasiz;

d) dugonangiz (do'stingiz) bilan aylangani chiqib ketasiz.

5. Agar Siz uning onasiga yoqmasangiz, ya'ni uning onasi Sizni yoqtirmasa:

a) Siz uning onasi talablari bilan hisoblashasiz;

b) uning onasiga yoqish uchun astoydil harakat qilasiz (gul berasiz, yaxshi so'zlashasiz);

d) onasidan yoqtirmaslik sababini so'raysiz.

6. Agar Sizga u biror joyga borishni taklif etsa-yu siz uning moddiy ahvoli tang ekanligini bilsangiz, u holda Siz:

a) xarajatlarni birgalashib to'lashni taklif etasiz;

b) shunchaki sayr qilishni taklif etasiz;

d) biror-bir mavzuda suhbat uyushtirasiz (yangi filmlar, tomoshalar haqida).

7. Janjallashib qolsangiz, janjaldan keyin Siz o'zingizni aybdor ekanligingizni his qilsangiz ham, Siz:

a) uning qo'ng'iroq qilishini, u birinchi bo'lib kelishini kutasiz;

b) undan siz kechirim so'raysiz;

d) o'rtoqlaringizga (dugonangizga) bo'lgan janjalni o'zingizni aybdor ko'rsatmay so'zlab berasiz.

8. Agar sizning sevgilingiz sportni sevsa, Siz:

a) u bilan musobaqalar tomosha qilgani borasiz;

b) uning "xobbiy"sini, qiziqishini ma'qullaysiz;

d) uyda yolg'iz qolishni afzal ko'rasiz, gohida uning xobbisi ustidan kulasiz.

9. Siz tasodifan ilgari yoqtirgan kishingiz bilan ko'chada uchrashib qolsangiz, Siz:

a) u bilan uchrashishdan voz kechasiz;

b) unga, endi boshqa kishini sevishingizni aytasiz;

d) o'tgan damlaringizni eslab, u bilan uchrashuvga rozi bo'lasiz.

10. Sevganingiz bilan uzoq ayriliqdan Siz:

a) yolg'izlikdan qiynalmaslik uchun, dugona yoki do'stlaringiz bilan birga vaqt o'tkazasiz;

b) yolg'izlikda o'zingiz vaqt o'tkazasiz va doimo (sevganingizga) maktublar yozasiz.

d) undan oldingi yoqtirgan odamingiz bilan uchrashishga harakat qilasiz va unga o'zingizni bildirasiz.

Test natijalarini baholash:

	A	B	D		A	B	D
1.	2	3	1	6.	2	3	1
2.	2	3	1	7.	2	3	1
3.	2	3	1	8.	2	3	1
4.	2	3	1	9.	2	3	1
5.	2	3	1	10.	2	3	1

Test natijalari tahlili:

15 balldan kam: O'zingizni va uni aldashingiz behuda, siz uni sevmaysiz.

15—28 ball: Sizning o'ylashingizcha, Siz uni sevib qolgansiz, lekin buni aniq ishonch bilan aytish asosli emas.

28 balldan yuqori: Siz haqiqatan ham uni sevasiz.

Agar sevsang, muhabbatingga arziydiganni sev. Sevilgan odam Ptolomey yoki Aflotun darajasida bo'lishi shart emas, lekin oz bo'lsa-da, idrok egasi bo'lmog'i kerak. «Qobusnoma»dan.

3-TEST. «SIZ UNI QAY DARAJADA SEVASIZ?» TESTI

Quyidagi test orqali sevgi obyektigingizga nisbatan sizdagi hissiyot darajasini bilib olish mumkin bo'ladi. Buning uchun qo'yilgan savolga javoblarning uchtasidan birini tanlashingiz zarurdir va tanlash jarayonida uzoq o'ylamaslik kerak bo'ladi.

1. Siz odamni bir marta ko'riboq, shu onning o'zida sevib qolish mumkinligiga ishonasizmi?

a) nimaga bo'lmas ekan, aslida shuning o'zi haqiqiy sevgi;

- b) bunaqasi bo'lmaydi, bu sevgi emas;
d) ba'zan shunaqasi ham bo'lib turadi.

2. Agar Sizning do'stlaringiz unga shubha, nafratli munosabatda bo'lishsa, siz uni sevgan bo'larmidingiz?

- a) so'zsiz;
b) o'ylaymanki, ha.
d) hech qachon.

3. Siz u bilan oldin ko'rgan filmingizni yana qaytadan ko'rgani borarmidingiz?

- a) agar u buni iltimos qilsa (so'rasa) borgan bo'lardim.
b) buni qilishdan baxtiyor bo'lardim.
d) Siz kinodan so'ng ham uchrashishingiz mumkin.

4. Agar u sizning do'stlaringizga yoqmasa, unda Siz nima qilgan bo'lardingiz?

- a) do'stlarim bilan munosabatlarimni aniqlab olgan bo'lardim;
b) to'g'ri tanlaganligimdan shubhalanardim;
d) bunaqasini tasavvur qila olmayman.

5. U haqda gapirayotgan vaqtingizda dastavval nimani eslaysiz?

- a) qaddi-qomatini, yoqimli yuzini, ba'zan chiroyli sochini;
b) aqlini, ma'lumotlilikini, tarbiyalanganligini, o'zini tuta bilishligini, gaplashganlikdagi tetik manerasini, ba'zan samimiyligini.

d) nima to'g'ri kelsa shuni, chunki o'zim tanlaganligimning barcha afzalliklarini men sanab o'tishga qodir emasman.

6. Sizlar birga bo'lmagan vaqlaringizda, u nima bilan mashg'ul bo'lishligini bilasizmi?

a) hozircha Siz o'zingizning raqibingiz (raqibangiz) yo'qligiga ishonasiz, shuning uchun bunaqa arzimagan narsalar bilan boshingizni qotirib o'tirmaysiz;

b) ha, chunki biz doimo oxirgi uchrashuvimizdan so'ng o'tgan vaqtlarda har birimiz bilan nima hodisa ro'y berganligini bir-birimizga gapirib beramiz;

d) biz ikkalamiz ham yerkinmiz, shuning uchun u nima xohlasa shuni qilishi mumkin.

7. Bir kunmas bir kun Sizlarning munosabatlaringizga yakun yasalishini tasavvur qila olasizmi?

- a) men bu haqda o'ylashga jur'at eta olmayman;
b) erta mi kechmi, bu, albatta ro'y beradi.

d) biz bir-birimizga shu qadar bog'lanib qolganmizki, bunday bo'lishi mumkin emas.

8. Hayot so'zsiz go'zal, faqat ikkovlon bo'lsa?

a) agar odam sevgan bo'lsa, aks holda u buni tasavvur ham qila olmaydi;

b) ha, yolg'izlikda zerikarli bo'ladi;

d) birgalikdagi hayot, faqat bir-birini haqiqatan sevuvchi ikki qalb uchun go'zal.

9. Agar Sizlar ikkovingiz yolg'iz qolgan bo'lsangiz, hayotning «buyuk» masalalari haqida gaplashasizlarmi?

- a) bunga deyarli vaqt yetmaydi;
b) nimaga kerak?

d) ha, ko'p gaplashamiz.

10. Sizda u bilan tanishgan vaqtingizdagiga qaraganda boshqa odam bo'lib qolganligi haqidagi tasavvur bormi?

a) Siz uni qanday tasavvur qilganigizcha qoldi;

b) u boshqacha odam bo'lib chiqdi, biroq u shundayligicha sizga yana ham ko'proq yoqadi;

d) albatta, u dastlabki daqiqalarda tasavvur etilganidan ideal emas.

Test natijalarini baholash: a b d . a b d

	A	B	D		A	B	D
1.	10	8	7	6.	4	7	0
2.	7	3	1	7.	9	4	7
3.	6	7	3	8.	9	1	7
4.	10	2	7	9.	2	1	7
5.	2	7	10	10.	10	7	5

Test natijalari tahlili:

30 balldan kam bo'lsa: balkim siz uchun do'stona munosabatlar uning shaxsidan muhimroqdir. Balkim siz uni yetarli darajada bilmasdirez, aniqroqi uning tashqi ko'rinishidan qoniqasiz xolos. «Mana qanday g'alabaga yerishdim, kimni o'zinga rom qilib oldim!», — degandek. Ba'zan bunday holat yoqimli hamdir, biroq yehtiyot bo'ling, axir Siz birovlar uchun emas, balki o'zingiz uchun juft tanlayapsiz!

31 dan 65 ballgacha: Ideal sevgi shunaqa: Siz o'z tanlaganingizning tashqi ko'rinishini ham, xarakterini ham sevasiz, uning nafaqat afzalliklarini, yaxshi xislatlarini qadrlab qolmay, balki yaxlitligicha qabul qilasiz. Siz uni bilishga va tushunishga intilasiz. Albatta, sizga o'z hayotingizni bajonidil baham ko'rishni istagan odamingiz bilan qiziqmasangiz, yana boshqa kim bilan qiziqasiz. Siz ikkovingiz hamma narsaga qodir ekanligingizni his qilasiz.

65 balldan ko'pi: Sevgi — ajoyib narsa! Faqat u agar ikkovlon sevgining o'zini emas, balki bir-birlari sevsa uzoq davom etishi mumkin. Siz o'z predmetingiz bilan shu qadar mashg'ul bo'lib ketgansizki, odamning o'zini ko'rmaysiz, balkim u haqidagi o'z tasavvuringizga asoslanasiz. Balkim siz o'z sevgilingizda, agar uni o'z fantaziyangizda yaratilgan ideal obrazgagina asoslanib qolmay, uni yaqindan bilishga intilsangiz pushaymon bo'lmaysiz. Sevgi barcha tuyg'ular ichida eng qudratlisidir, shuning uchun ham u aql-u xayolni, qalb va vujudni egallab oladi. F.Volter.

4-TEST. «SEVGI-MUHABBATGA LOYIQMISIZ?» TESTI.

O'zbekistonning taniqli yozuvchilaridan bo'lgan Pirimqul Qodirov ta'kidlaganidek «Sevgi — bu shunday bir ulug' va ilohiy so'zdirki, kimdir bu so'zni bir gap bilan, kimdir ko'p gap bilan, va yana kimdir aytolmay qoladi». Quyida taklif yetilayotgan test biz oilaviy hayot kechishi yoki kimgadir keraklilik hissi bo'lishi uchun shaxsning o'zi bu hisga loyiqligini aniqlash imkonini

beradi. Buning uchun siz quyidagi gaplarni «ha» yoki «yo'q» so'zlari bilan tasdiqlashingiz kerak bo'ladi.

1. Erkak kishi, menimcha, hamisha ayolga nisbatan faolroq bo'lishi kerak.

2. Men sevimli kishimga hatto arzimasa sababga ko'ra ham shodlik bag'ishlashni yaxshi ko'raman.

3. Begona kishilar orasida sevimli, muloyim bo'lishdan o'zimni yo'qotib qo'yaman.

4. Sevimli kishimga o'zimni nihoyatda zarur, deb hisoblayman.

5. Hamkorlikdagi hayotning 15 yilidan keyin xislatlar asosiy narsaga aylanadi.

6. Men osonlik bilan o'z his-tuyg'ularimni namoyon yetaman va ular haqida bamaylixotir gapira olaman.

7. Farzandlarim, uyim, xislatlarim bo'lmaganida hayotimni o'zgartirardim.

8. Taqdirim bilan bog'liq bo'lgan kishi men uchun eng aziz va mehribon inson sanaladi.

9. Ochig'ini aytganda, sevgi nima ekanini aytishga qiynalaman.

10. Men sevadigan inson bilan oramizda yuz berayotgan narsalar juda muhim va asosan o'zim uchun.

11. Men sevgilimni sog'inishdan ko'ra, uni ko'proq rashk qilaman.

12. Taqdir meni bog'lagan insonni juda sevaman.

13. Ayrim paytlari sevgan insondan charchab ketaman.

14. Har doim suyuqli kishini shod etishga harakat qilaman.

15. Ba'zi hollarda bir-birimizni tushunmayotgandek va turmushimizni turlicha tasavvur yetayotgandek tuyuladi.

16. Oilaviy hayot muvaffaqiyatli bo'lishi uchun muhim qarorlarni er-xotindan biri qabul qilishi lozim.

Test natijalarini baholash:

2,4,6,8,10,12,14,16 — savollardagi «ha» va

1,3,5,7,9,11,13,15 — savollardagi «yo'q» javobiga 10

balldan, har bir savol belgisiga 5 balldan qo'shing.

Test natijalari tahlili:

100—160 ball. Siz his-hayajonga beriladigan odamlar turiga mansubdirlsiz. Chuqur sevis xislatiga egasiz va vafodor bo'la olasiz, o'z muhabbatingizdan tortinmaysiz va uni namoyon eta bilasiz. Ammo ba'zi bir holatlarda muhabbatingiz Siz uchun qayg'u-alam manbayiga aylanishi, yaqin kishingiz bilan munosabatdagi qiyinchiliklar haqiqiy fojiaga sabab bo'lishi mumkin. Sevgining murakkab san'atini o'rganib olish uchun barcha ko'rsatkichlarga egasiz, chunki sizda sevis va shunday javob his-tuyg'ularini uyg'otish qobiliyati mujassam.

50—99 ball. Siz ta'sirchan insonsiz. His-tuyg'u masalasi hayot uning hamma vaqt ham birinchi o'rinda turmasligini isbotlab bergan bo'lsa-da, siz uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday holatlar bo'lganki, tuyg'u butunlay sizni qamrab olgan, biroq bu vaziyatlarda o'zingizni yo'qotish xavfi sizdan yiroq. Realizm, sabr-bardosh, ayrim paytlarda g'urur — aynan shular sizning xatti-harakatingizni boshqarib turadi. O'zgarib turish xususiyatingiz sevgilingiz tomonidan unga nisbatan sovuqlikyoki erkatoylilik, deb qabul qilinishi mumkin.

"OILA PSIXOLOGIYASI" FANIDAN TEST SAVOLLARI

1. Oila psixologiyasining vazifasi quyidagilardan qaysi birida ko'rsatilgan?

- A) Oila byudjeti, oila ishlab chiqarishi, oilaviy iste'moli, mehnat taqsimoti
- B) Nikohning fiziologik jihatlarini va ularning oqibatlarini
- C) Aholining asosiy bo'g'inini
- D) Nikoh-oila munosabatlarida namoyon bo'ladigan hissiyot, tasavvur, urfg'odatlarni ruhiy hodisalarning ijtimoiy tabiiy manbalarini
- E) Oilaning bolalarga ko'rsatadigan ta'sirini oiladagi tarbiya qonuniyatlari

2. Nikoh nima?

- 1) Yigit va qiz o'rtasidagi munosabat
- 2) Erkak va ayol o'rtasidagi muayyan ittifoqni va bu ittifoqning jamiyat, davlat tomonidan tan olinishi
- 3) Ikki kishi orasidagi kelishuv, shartnoma
- 4) Ikki qarama-qarshi jins orasidagi munosabat

3. O'zbekiston Respublikasining "Oila kodeksi" qachon tasdiqlangan?

- 1) 1995 yil 30 may
- 2) 1998 yil 30 aprel
- 3) 1989 yil 9 aprel
- 4) 1990 yil 29 may

4. "Nikoh" so'zi qaysi millat tilidan kelib chiqqan?

- 1) Grekcha
- 2) Yunoncha
- 3) Arabcha
- 4) Turkcha

5. "Nikoh" so'zi qanday ma'noni anglatadi?

- 1) Shartnoma
- 2) Munosabat
- 3) Kelishuv

4) Qo'shilish

6. Nikohdan o'tuvchi shaxslarning o'zaro roziligi O'zbekiston Respublikasi "Oila kodeksi"ning nechanchi moddasida ko'rsatib o'tilgan?

1) 17

2) 16

3) 14

4) 12

7. Respublikamizda "Oila yili" deb e'lon qilingan yil?

1) 1992

2) 1994

3) 1996

4) 1998

8. «Ayollar yili» deb nechanchi yil e'lon qilingan?

1) 1989

2) 1898

3) 1999

4) 1990

9. "Estrus" – deb nimaga aytiladi?

1) Shartnoma tuzi

2) O'zaro kelishuv

3) Qushilishga moyillik

4) Muloqotga kirishish

10. "Tabu" – deb nimaga aytiladi?

1) Qovushish

2) Suhbatlashish

3) Qattiq ta'qiq

4) O'zaro munosabatga kirishish

Oila psixologiyada muloqotningqanday tuzilishlari mavjud?	Muloqotning interaktiv, perseptiv tomoni.	Muloqotda axborot almashinish	Muloqotning kommunikativ, interaktiv, perseptiv tomoni	Muloqotning kommunikativ, axborot almashinish tomoni
---	---	-------------------------------	--	--

Muloqotning kommunikativ tomoni –	Bu shaxslararo axborotlar, bilimlar, g'oyalar, fikrlar almashinuvi.	Kishilarning birgalakdagi faoliyatda bir-birlariga amaliy jihatdan ta'sir etishlari.	Muloqotga kirishuvchilarning bir-birlarini idrok etishlari va tushinishlari bilan bog'liq bo'lgan murakkab psixologik jarayon.	Shaxslarning bir-birlarini tushinish jarayoni
Muloqotning interaktiv tomoni –	Bu shaxslararo axborotlar, bilimlar, g'oyalar, fikrlar almashinuvi.	Kishilarning birgalakdagi faoliyatda bir-birlariga amaliy jihatdan ta'sir etishlari.	Muloqotga kirishuvchilarning bir-birlarini idrok etishlari va tushinishlari bilan bog'liq bo'lgan murakkab psixologik jarayon.	Shaxslarning bir-birlarini tushinish jarayoni.
Muloqotning perseptiv tomoni –	Bu shaxslararo axborotlar, bilimlar, g'oyalar, fikrlar almashinuvi.	Kishilarning birgalakdagi faoliyatda bir-birlariga amaliy jihatdan ta'sir etishlari.	Muloqotga kirishuvchilarning bir-birlarini idrok etishlari va tushinishlari bilan bog'liq bo'lgan murakkab psixologik jarayon.	Shaxslarning bir-birlarini tushinish jarayoni
Etnopsixologiya nimani o'rganadi?	Ayrim millatlar psixologiyasidan tashqari turli xalqlar psixologiyasini, kichik milliy guruxlarni ham o'rganadi	Xalq psixologiyasini o'rganuvchi fan.	Etnik guruhlar psixologiyasini o'rganuvchi fan.	Omma psixologiyasini o'rganuvchi fan.
Referent guruh tushunchasini birinchi bo'lib fanga klm kiritgan?Nechanchi yilda?	1979 yil V.Myode.	1942 yil G.Xaymen.	1908 yil E. Rosse.	1908 yil V. Makdugall
Oila psixologiyasining vazifasi quyidagilardan qaysi birida ko'rsatilgan?	Oila byudjeti, oila ishlab chiqarishi, oilaviy iste'moli, mehnat taqsimoti	Oila byudjeti, oila ishlab chiqarishi, oilaviy iste'moli, mehnat taqsimoti	Nikohning fiziologik jihatlarini va ularning oqibatlarini	Nikoh-oila munosabatlarida nomoyon bo'ladigan hissiyot, tasavvur, urf-odatlarini ruhiy hodisalarning ijtimoiy tabiiy manbalarini

Nikoh nima?	Yigit va qiz o'rtasidagi munosabat	Erkak va ayol o'rtasidagi muayyan ittifoqni va bu ittifoqning jamiyat, davlat tomonidan tan olinishi	Yigit va qiz o'rtasidagi munosabat	Erkak va ayol o'rtasidagi muayyan ittifoqni va bu ittifoqning jamiyat, davlat tomonidan tan olinishi
O'zbekiston Respublikasining "Oila kodeksi" qachon tasdiqlangan?	1995 yil 30 may	1995 yil 30 may	1998 yil 30 aprel	1998 yil 30 aprel
"Nikoh" so'zi qaysi millat tilidan kelib chiqqan?	Grekcha	Yunoncha	Yunoncha	Arabcha
"Nikoh" so'zi qanday ma'noni anglatadi?	Shartnoma	Munosabat	Munosabat	Qushilish
Nikohdan o'tuvchi shaxslarning o'zaro roziligi O'zbekiston Respublikasi "Oila kodeksi"ning nechanchi moddasida ko'rsatib o'tilgan?	17-modda	18-modda	14-modda	16-modda
Respublikamizda "Oila yili" deb e'lon qilingan yil?	1992 yil	1992 yil	1994 yil	1998 yil
"Ayollar yili" deb nechanchi yil e'lon qilingan?	1989 yil	1898 yil	1898 yil	1999 yil
"Estrus" - deb nimaga aytiladi?	Shartnoma tuzish	O'zaro kelishuv	Qo'shilishga moyillik	Muloqotga kirishish
"Tabu" - deb nimaga aytiladi?	Qovushish	Suhbatlashish	Qattiq ta'qiq	O'zaro munosabatga kirishish
Ekzogam nikoh - nima?	Shartnoma asosida tuzilgan nikoh	Urug'lararo, qabilalararo nikoh	Manfaat ko'zlangan nikoh	Noqonuniy nikoh
Juft nikohlar qachon tashkil topgan	23-22 yil ilgari	25-24 yil ilgari	20-23 yil ilgari	25-26 yil ilgari
Hozirgi zamon oilai qanlay oildan iborat?	Ekzogem	Juft nikoh	Guruhli nikoh	Monogam nikoh
Oila necha turga bo'linadi?	33 turga	34 turga	13 turga	31 turga
Hozirgi zamon oilasining nechta asosiy funksiyalari mavjud?	9 ta	6 ta	11 ta	8 ta

Psixologik muhit nima?	Shaxslararo ziddiyatlar	Iqtisodiy etishmovchilik	Kollektivdan kishilarning psixologik holati, kayfiyati, munosabatlarning yig'indisi	Manfaatdorlikni ko'zlab ish tutish
Muvofiqlikligi nechta turi mavjud?	3 ta	6 ta	8 ta	9 ta
Ayol bilan erkakning oilaviy munosabatlarda teng huquqligi "Oila kodeksi"ning nechanchi bo'limida ko'rsatib o'tilgan?	3 bo'lim 2 modda	1 bo'lim 2 modda	4 bo'lim 2 modda	5 bo'lim 3 modda
Ibn Sino do'stlikni necha yo'nalishga ajratgan?	3 ta	2 ta	1 ta	6 ta
Qadimgi yunonlar sevgi-muhabbatni necha turga bo'lishgan?	8 ta	9 ta	4 ta	3 ta
Sevgi-muhabbat tuyg'ularini D.A. Li necha turga bo'lgan?	8 ta	9 ta	6 ta	7 ta
Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning nechta yo'nalishi mavjud?	2 ta	6 ta	4 ta	7 ta
Nikohdan tashqari jinsiy munosabatlarning nechta asosiy omillari mavjud?	12 ta	16 ta	21 ta	14 ta
Er-xotin o'rtasidagi kelishmovchilikning nechta sabablari mavjud?	8 ta	6 ta	4 ta	11 ta
Respublikasizda oila bo'yicha shug'ullangan tadqiqotchilar	Leontev	K. Fabri	Shoumarov, A. Sog'inov	A. Sog'inov
Oila kodeksining 26-bobidagi "Nikohdan ajralishni qayd etish" qachon tasdiqlangan?	1998 yil 30-may	1989 yil 30-iyun	1998 yil 30-prel	1998 yil 20-aprel
"O'simlik avtonomiyasi" necha turdan iborat?	6 turdan	8 turdan	3 turdan	4 turdan

Jinsiy balog'atga etish necha bosqichdan iborat?	4 bosqichdan	6 bosqichdan	3 bosqichdan	2 bosqichdan
"Nikoh motivlari" necha turdan iborat?	6 turdan	4 turdan	2 turdan	3 turdan
Mashhur rivoyatda Xorining qizi Asmo kelin bo'lib kuyov uyiga ketayotganida onasi tomonidan berilgan o'g'itlar soni?	12 ta o'g'it	13 ta o'g'it	10 ta o'g'it	11 ta o'g'it
Ota-ona va farzandlar o'rtasidagi nizolar necha bosqichdan iborat?	8 bosqichdan	7 bosqichdan	6 bosqichdan	5 bosqichdan
Qaynona-kelin o'rtasidagi nizolarni keltirib chiqaruvchi asosiy sabablar nechta?	10 ta	8 ta	7 ta	9 ta
Xiyonatni yuzaga keltiruvchi omillar nechta?	8 ta	9 ta	7 ta	6 ta
"XXI asr vabosi" deganda qanday kasallik nazarda tutilgan?	SPID	Zaxm	Gonoreya	Barcha javoblar to'g'ri
Hayotda ajralishlarning asosiy sabablari nechta?	4 ta	2 ta	2 ta	5 ta
Oila mustahkamligiga raxna soluvchi ziddiyatlar, kelishmovchiliklarning asosiy sabablari nechta?	16 ta	18 ta	13 ta	11 ta
Hozirgi kunda ko'p ajralishlarga sabab bo'luvchi omillar?	Er-xotin o'rtasidagi kelishmovchilik	Qaynata-kelin o'rtasidagi nizolar	Qaynata-kelin o'rtasidagi nizolar	Barcha javoblar to'g'ri
Teri tanosil kasalliklarini kelib chiqish sabablari?	Nikohdan tashqari munosabat	Gigienaga rioya qilmaslik	Hiyonat	Boshqa sabablar

Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda...	asosan qizlarga o'g'it-nasihatlar berish	asosan qizlarga o'g'it-nasihatlar berish	yigitlarga ota tomonidan alohida oilaviy hayotga tayyorgarlik ishlarini olib borilishi	Faqat qizlarga oila, turmush, hayot haqida nasihatlar qilish.
Abu Ali Ibn Sino o'z asarlarining birida "Muhabbat"ni qanday ta'riflaydi?	Ajoyib tuyg'u	Xirsga berilish	Kasallik	His-tuyg'ularga berilish
Hozirgi zamon oilasining nechta asosiy funksiyalari mavjud?	9 ta	6 ta	11 ta	8 ta
Psixologik muhit nima?	Shaxslararo ziddiyatlar	Kollektivda kishilarning psixologik holati, kayfiyati, munosabatlarning yig'indisi	Kollektivda kishilarning psixologik holati, kayfiyati, munosabatlarning yig'indisi	Manfaatdorlikni ko'zlab ish tutish
Muvofiqlikning nechta turi mavjud?	3 ta	6 ta	8 ta	9 ta
Ayol bilan erkakning oilaviy munosabatlarda teng huquqligi "Oila kodeksi"ning nechanchi bo'limida ko'rsatib o'tilgan?	3 bo'lim 2 modda	1 bo'lim 2 modda	4 bo'lim 2 modda	bo'lim 3 modda
Ibn Sino do'stlikni necha yo'nalishga ajratgan?	3 ta	2 ta	1 ta	6 ta
Qadimgi yunonlar sevgi-muhabbatni necha turga bo'lishgan?	8 ta	9 ta	4 ta	3 ta
Sevgi-muhabbat tuyg'ularini D.A. Li necha turga bo'lgan?	8 ta	9 ta	6 ta	7 ta
Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning nechta yo'nalishi mavjud?	2 ta	6 ta	4 ta	7 ta
Nikohdan tashqari jinsiy munosabatlarning nechta asosiy omillari mavjud?	12 ta	16 ta	21 ta	14 ta
Er-xotin o'rtasidagi kelishmovchilikning nechta sabablari mavjud?	8 ta	6 ta	4 ta	11 ta

GLOSSARIY

PSIXOLOGIYA — odamning ob'ektiv borlikni sezgi, idrok, tafakkur, tuyg'u-xissiyot va boshqa psixik hodisalar orqali aks ettirish jarayonini o'rganadigan fan.

FAOLLIK - tirik materiyaning umumiy xususiyati bo'lib, tevarak-atrofdagi muhit bilan o'zaro ta'sirda bo'lishda namoyon bo'ladi. Psixik faollik bu o'zaro ta'sir etishda psixik obraz yarata olish qobiliyatining mavjudligi va shu asosda faollik ko'rsatish bilan xarakterlanadi.

ANALIZATOR— murakkab neyrofiziologik tizim bo'lib, odamga ta'sir etuvchi qo'zg'alishlarni idrok etish va uni tahlil qilishni ta'minlaydi. Analizator retseptor, nerv yo'llari, miya bilan bog'lanadigan qismi va miyaning maxsus spetsifik bo'limlarini o'z ichiga oladi (I.P. Pavlov).

PSIXIKA - yuksak darajada tashkil topgan materiya (miya)-ning ob'ektiv borliqni aks ettirish va shuning asosida shakllangan psixik obrazlar orqali maqsadga muvofiq sub'ektning faoliyati va uning xatti-harakatlarini boshqarishdan iboratdir.

REFLEKSIYA - kishi bilimlarining o'z-o'ziga, o'zining ichki olamiga, psixik sifatleri va psixik holatlariga qaratilishidir.

STIMUL - retseptorlarda qo'zg'alishni vujudga keltiradigan tashqi ichki ta'sirdir.

FAOLLIK - tirik materiyaning umumiy xususiyati bo'lib, tevarak-atrofdagi muhit bilan o'zaro ta'sirda bo'lishda namoyon bo'ladi. Psixik faollik bu o'zaro ta'sir etishda psixik obraz yarata olish qobiliyatining mavjudligi va shu asosda faollik ko'rsatish bilan xarakterlanadi.

ANKETA— oldindan tayerlangan savollar asosida javob olish uchun tayyorlangan varaka.

AUTOGEN MASHQ— o'z-o'zini ishontrish va o'z-o'zini idora qilishga asoslangan psixoterapevtik usul.

BIOGRAFIK METOD— kishini uning tarjimai holi bilan bog'lik, bo'lgan xujjatlar orqali o'rganish usuli.

VALIDLIK- psixologik tadqiqotda olingan natijalarning

ob'ektiv tashqi mezonlarga mos kelishi.

GENETIK METOD— psixik holatlarning paydo bo'lishi va ularning quyidan yuqoriga qarab rivojlanishi jarayonini o'rganish usullari.

DETERMINIZM— tabiatdagi barcha narsalar, shu jumladan psixik hodisalarning ro'y berishi ob'ektiv sabablar va qonunlar bilan belgilanadi deb qarash.

YOSH PSIXOLOGIYASI— psixologiya fani tarmoklaridan bo'lib, turli yoshdagi odamlarning psixologik xususiyatlarini o'rganadi.

KUZATISH— psixologiya metodlaridan bo'lib, kishining xatti-harakatlarida namoyon bo'ladigan turli hodisalarni hisobga olish va sub'ektiv psixik hodisalar to'g'risida fikr olishdan iborat.

LABORATORIYA EKSPERIMENTI - psixologiya metodlaridan bo'lib, tekshiruvchiga ta'sir etadigan barcha omillar kat'iy nazorat kilgan holda sun'iy sharoitda olib boriladi.

SOTSIOMETRIYA - J. Moreno tomonidan tavsiya etilgan bo'lib, o'zaro munosabatlar tuzilishi bilan psixologik qovushuvchanlikni aniqlash maqsadida guruh va jamoalardagi shaxslararo munosabatlarni o'rganishdan iborat psixologik tadqiqot metodi.

SUN'IY AQL— birona odam yoki bir gurux kishilar bajara oladigan murakkab aqliy funksiyalarni bajaradigan sun'iy yaratilgan qurilma.

PSIXOLOGIYA — odamning ob'ektiv borlikni sezgi, idrok, tafakkur, tuyg'u-xissiyot va boshqa psixik hodisalar orqali aks ettirish jarayonini o'rganadigan fan.

FAOLLIK - tirik materiyaning umumiy xususiyati bo'lib, tevarak-atrofdagi muhit bilan o'zaro ta'sirda bo'lishda namoyon bo'ladi. Psixik faollik bu o'zaro ta'sir etishda psixik obraz yarata olish qobiliyatining mavjudligi va shu asosda faollik ko'rsatish bilan xarakterlanadi.

HARAKAT AKSEPTORI — markaziy nerv sistemasining bo'la digan harakatlar natijasini belgilab beruvchi neyrodinamik modelidir. Bu model harakatlarning asosiy xarakteristikasini o'z ichiga

olib, harakatlarni boshqarishda ishtirok etadi P.K. noxin).

ANALIZATOR— murakkab neyrofiziologik tizim bo'lib, odamga ta'sir etuvchi qo'zg'alishlarni idrok etish va uni tahlil qilishni ta'minlaydi. Analizator retseptor, nerv yo'llari, miya bilan bog'lanadigan qismi va miyaning maxsus spesifik bo'limlarini o'z ichiga oladi (I.P. Pavlov).

ASSOTSIATSIYA — psixik hodisalarning o'zaro bog'lanishi bo'lib, ma'lum qonunlar bo'yicha tarkib topadi (jumladan, fazodagi yondoshlik, xronologik, o'xshashlik, qarama -qarshilik va boshqa assotsiatsiyalar).

PSIXIKA - yuksak darajada tashkil topgan materiya (miya)-ning ob'ektiv borliqni aks ettirish va shuning asosida shakllangan psixik obrazlar orqali maqsadga muvofiq sub'ektning faoliyati va uning xatti-harakatlarini boshqarishdan iboratdir.

REFLEKSIYA - kishi bilimlarining o'z-o'ziga, o'zining ichki olamiga, psixik sifatlari va psixik holatlariga qaratilishidir.

STIMUL - retseptorlarda qo'zg'alishni vujudga keltiradigan tashqi ichki ta'sirdir.

FAOLLIK - tirik materiyaning umumiy xususiyati bo'lib, tevarak-atrofdagi muhit bilan o'zaro ta'sirda bo'lishda namoyon bo'ladi. Psixik faollik bu o'zaro ta'sir etishda psixik obraz yarata olish qobiliyatining mavjudligi va shu asosda faollik ko'rsatish bilan xarakterlanadi.

ANKETA— oldindan tayerlangan savollar asosida javob olish uchun tayyorlangan varaka.

AUTOGEN MASHQ— o'z-o'zini ishontirish va o'z-o'zini idora qilishga asoslangan psixoterapevtik usul.

BIOGRAFIK METOD— kishini uning tarjimai holi bilan bog'lik, bo'lgan xujjatlar orqali o'rganish usuli.

VALIDLIK- psixologik tadqiqotda olingan natijalarning ob'ektiv tashqi mezonlarga mos kelishi.

GENETIK METOD— psixik holatlarning paydo bo'lishi va ularning quyidan yuqoriga qarab rivojlanishi jarayonini o'rganish usullari.

DETERMINIZM — tabiatdagi barcha narsalar, shu jumladan psixik hodisalarning ro'y berishi ob'ektiv sabablar va qonunlar bilan belgilanadi deb qarash.

YoSh PSIXOLOGIYA SI— psixologiya fani tarmoklaridan bo'lib, turli yoshdagi odamlarning psixologik xususiyatlarini o'rganadi.

KUZATISH— psixologiya metodlaridan bo'lib, kishining xatti-harakatlarida namoyon bo'ladigan turli hodisalarni hisobga olish va sub'ektiv psixik hodisalar to'g'risida fikr olishdan iborat.

LABORATORIYA EKSPERIMENTI - psixologiya metodlaridan bo'lib, tekshiruvchiga ta'sir etadigan barcha omillar kat'iy nazorat kilgan holda sun'iy sharoitda olib boriladi.

SOTSIOMETRIYA - J. Moreno tomonidan tavsiya etilgan bo'lib, o'zaro munosabatlar tuzilishi bilan psixologik qovushuvchanlikni aniqlash maqsadida guruh va jamoalardagi shaxslararo munosabatlarni o'rganishdan iborat psixologik tadqiqot metodi.

SUN'IY AQL— bironta odam yoki bir gurux kishilar bajara oladigan murakkab aqliy funksiyalarni bajaradigan sun'iy yaratilgan qurilma.

O'Z-O'ZINI KUZATISH - bunda sub'ektning o'z psixik holatlari bilan o'z xatti-harakatlarini o'rganishdan iborat metod.

SHAXSIY MUNOSABAT— psixologiya koidalaridan bo'lib, odamga shaxs tariqasida, uning voqelikni aks ettiruvchi va barcha psixik hodisalarni belgilab beruvchi sistema ekanligini tushungan holda yaqindan yondashish.

MEHNAT — odamning ma'lum maksadga, o'z ehtiyojlarini kondirish uchun borliqni bilish va uni qayta ko'rishga, moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratishga yo'naltirilgan faolliyat.

ODATLAR— bajarilishi kishining ehtiyojiga aylanib qolgan xatti-harakatlar yoki xulq-atvor.

O'YIN — faoliyat turlaridan biri bo'lib, bu bolalarning kattalar faoliyatini, ularning ish-harakatlarini, kishilar o'rtaidagi o'zaro munosabatlarni aks ettirishda ifodalanadigan va tevarak-atrofdagi borliqni bilishga qaratilgan faoliyat.

FAOLIYAT— insongagina xos, ong bilan boshqariladigan, ehtiyojlar tufayli paydo bo'ladigan va tashqi olam bilan kishining o'z-o'zini bilishiga, uni qayta ko'rishga yo'naltirilgan faolligi.

DEPRESSIYA— tushkunlik kayfiyati bo'lib, bu kishida intilishlarning susayishi, harakatlarning tormozlanishi bilan bog'liq ravishda yuzaga keladigan ruqiy holat.

IRONIYA — kishiga nisbatan mutlaqo ijobiy, hatto ma'qullovchi harakterga ega bo'lgan istexzo aralash nozik munosabati.

KAYFIYAT - birorta emotsiyaning barqaror kechishi.

AFFEKT (lot. ruhiy his-hayajon) — irodaviy nazoratni yo'qotgan holda tez va kuchli paydo bo'lib, shiddat bilan o'tadigan qisqa muddatli emopional holat.

YOSH DAVRI INQIROZLARI (grekcha - burilish payti) -bir yosh davridan ikkinchi yosh davriga o'tishdagi to'qnashuvli vaziyat.

ZEHN — shaxs maxsus qobiliyatlarini tarkib toptirish va rivojlantirish uchun asos bo'ladigan anatomik-fiziologik imkoniyat.

IRSIYAT - organizm xususiyatlarining ota-onada tarkib topib, mustahkamlanib, keyingi avlodga o'tish jarayoni.

INDIVIDUALLIK- har bir insonni boshqa insondan farqlab turuvchi xususiyatlar yig'indisi, shaxsning o'ziga xos xususiyatlari.

KASB-HUNAR KONSULTATSIYASI - jamiyat ehtiyoji va yoshlarning qiziqish va iste'dodlariga qarab turli kasblar haqida ilmiy tashkil etilgan ma'lumotlarni berish.

KASB-HUNARGA YO'NALISH BERISH - yoshlarning ishga joylashishda xohishi, qiziqishi, shakllangan qobiliyati, layoqatiga qarab psixologik, pedagogik va tibbiy tadbirlarni o'tkazish.

QIZIQISH (ahamiyatga ega bo'lib - kishining bilish ehtiyojlarini emotsional namoyon o'lishi bilan bog'liq motiv.

XARAKAT - maqsadga munofiq yo'naltirilib, ongli ravishda amalga oshiriladigan harakatlar yig'indisi, ongli faoliyat tarkibiy

qismlari va motivlaridan biri.

REPRODUKTIV- jamiyatning biologik uzluksizligini ta'minlash, bolalarni dunyoga keltirish.

TARBIYAVIY - madaniy merosni avloddan avlodga uzatish, yosh avlodni tarbiyalash jamiyatning madaniy merosini saqlab turish.

KOMMUNIKATIV - oila a'zolarining muloqotga va o'zaro tushunishga bo'lgan ehtiyojini qondirish.

REAKTIV- o'zaro jismoniy, moddiy, ma'naviy va psixologik yordam ko'rsatish, bir-birining salomatligini mustahkamlash, oila-a'zolarining dam olishini tashkil etish vazifasi.

FELTSITOLOGIK - shaxsiy baxtga erishishga intilish (felitsito-italyancha baxt). Insonning tom ma'nodagi baxtga erishishida oilaning tutgan o'rni.

REGULYATIV - boshqaruv, yosh avlodni ijtimoiy nazorat qilish va kattalarning ma'naviy-ahloqiy, seksual hulqini nazorat qilish va boshqarish.

RELAKSATSIYA VA PSIXOTERAPEVTIK-kasb faoliyatida sarflagan kuch quvvatini oilada qayta tiklash va emotsional zo'riqishlar, ruhiy tanglik, stresslarning oldini olish. Ruhiy zo'riqishlarni bartaraf etish.

EROS— kuchli sevgi-muhabbat hislari bo'lib, bu hislar asosida yotgan motiv muhabbat obyektiga jismoniy ega bo'lish. Bunda jinsiy intilish yetakchilik qiladi.

LYUDUS — sevgi hislarini unchalik chuqur bo'lmagan muhabbat o'yini sifatida idrok qilinadigan, sevgi hislari obyektiga oson almashishi mumkin bo'lgan turi.

STORGE — tashqi ko'rinishidan kuchli ifodalanmagan, ammo ishonchli muhabbat — do'stlik turi.

PRAGMA (L+S) — lyudus va storgelardan iborat doimo ong nazoratida bo'lgan, sevgan shaxsining manfaatlarini ko'zlagan maqsadlari asosida yuzaga kelgan sevgi hislaridir.

MANIYA (E+L) — eros va lyudusdan iborat bo'lib, sevgan kishi sevgi obyektidan tobeligi bilan xarakterlanadi. Ammo eros

va lyudusdan bu turning farqi sevgan shaxsda o'ziga ishonch hislari yetarli bo'lmaydi.

AGAPE (E+S) — eros va storgelar yig'indisidan iborat kuchli ifodalanadigan sevgan kishi muhabbat obyektiga hamma narsasini va hatto o'zini ham bag'ishlashga tayyor bo'lgan hislar turi va hokazo. Kuzatishlarga ko'ra erkaklarning sevgi muhabbat hislarida ko'proq qismini eros va lyudus, ayollarda esa pragma, storge va maniya turlari tashkil etadi.

ASOSIY ADABIYOTLAR

1. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. Darslik-T:Fan va texnologiya. 2008.152 b.
2. Shoumarov G.B. tahriri ostida. Oila psixologiyasi. T.: Sharq, 2009. 272 b.
3. Fayzieva M., Jabborov A. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. - T.Sharq 2007.
4. Dobroslavovich V. Lyubov ili vlyublennost? Moskva. Akademiya 1999.

QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR:

5. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik xar bir rahbar faoliyatini kundalik qoidasi bo'lishi kerak O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi // Xalq so'zi gazetasi 2017 yil 16 yanvar.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
OILA PSIXOLOGIYASI FAN SIFATIDA.....	5
OILA VA OILAVIY MUNOSABATLAR BORASIDAGI QARASHLAR	21
OILANING IJTIMOIIY VAZIFALARI, OILAVIY ROLLAR	63
YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH.....	80
OILANING HAYOTIY SIKLI.....	117
ER-XOTIN JUFTLIGINING SHAKLLANISHI.....	125
YOSHLARNI OILAGA TAYYORLASHGA QARATILGAN TESTLAR	152
“OILA PSIXOLOGIYASI” FANIDAN TEST SAVOLLARI....	161
GLOSSARIY.....	168
ASOSIY ADABIYOTLAR.....	175

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

QAYDLAR UCHUN

S. R. Mirzayeva, Sh.R. Samarova, D. U.Raxmanova

OILA PSIXOLOGIYASI

O'QUV QO'LLANMA

Muharrir: X. Tahirov
Texnik muharrir: S. Meliquziyeva
Musahhih: M. Yunusova
Sahifalovchi: A. Isxoqov

Nashr. lits № 2244. 25.08.2020 y.
Bosishga ruxsat etildi 25.06.2024 y.
Bichimi 60x84 1/16. Ofset qog'oz. "Cambria"
garnituras. Hisob-nashr tabog'i. 11,125.
Adadi 100 dona. Buyurtma № 2517631.

«Renesains sari» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
+998 (94) 673-66-56

ISBN 978-9910-9398-5-3



9 789910 939853